

Daryo shovullaydi. Tog' orqasidan osmonga sut purkagandek bo'lib avval oy shu'lasi ko'rinadi, keyin o'zi salmoqlanib ko'tariladi-da, cho'qqiga ayri minib turib qoladi. Biram chiroyli, biram yoqimli shabada esadi. Oftob dazmoldek qizdirgan toshlarni shu shabada puflab sovutadi.

Siz yozuvchi Said Ahmadning hikoyalarini ko'pdan yaxshi bilasiz.

Yozuvchi tabiatga qanchalik maftun bo'lmasin, uni odamlar yuragidagi go'zalliksiz, inson mehnatisiz tasavvur qilolmaydi. U inson yaratgan go'zallikning oshig'i. Qo'lingizdagi kitobdan shu his-tuyg'ularni topib olasiz deb umid qilamiz.

O'n sakkiz yoshing

Ne ajab, chun sarvinozim o'n sakiz yoshindadir. O'n sakiz ming olam oshubi agar boshindadirNavoiy

O'n sakkizga kirgan odamning ko'ziga olam jilva qiladi. Kamalakning yetti rangidan yetmish ming rang yasaydi. Echkining yoqimsiz ma'rashi ham qulog'iga bul-bul navosi bo'lib kiradi. Yulduzlarga qo'li yetadi, tubsiz ummonlar tizzasidan keladi.

O'n sakkizga kirmabsiz, dunyoga kelmabsiz!

Mana, o'n sakkizga kirganlardan biri kattakon terak tagida xayolchan turibdi. U hali shu yoshga yetib og'ziga ichkilik degan narsani olmagan. Ammo qip-qizil mast. Ovozi do'rillaydi, husnbuzar toshgan yuzlarida bir chiroyli xayol izlari bor. Mana shu bolaning o'n sakkizga kirganiga bugun roppa-rosa to'rt oy bo'ldi. Shu yoshga kirdi-yu, shunaqa xayolchan, bo'lar-bo'lmasga xo'rsinadigan, kechasi oyga qarab o'zicha she'r to'qiydigan bo'lib qoldi.

Keksalar! Siz ham shu yoshingizni eslang!

Qishda sarimsoq piyoz yegan odamning og'zidan ko'klam jalasi quyib o'tgan terakzorning isi keladi. Siz ham bolaligingizni eslasangiz unutilgan muhabbat yana tug'yonga keladi. Mana shu xo'rsinib turgan, yuziga husnbuzar toshgan yigit sizsiz, shu sizning o'n sakkiz yoshingiz.

Yigitcha xo'rsinib turgan ko'chaning bu ko'chaning bu betida baland imorat bor. Ikkinchi qavatning balkonida yaqinda o'n sakkizga kirgan bir qiz kaftini iyagiga tirab o'tiribdi. O'zi uncha chiroyli emas, ammo o'n sakkizga kirgan qizning xunugi bo'lmaydi, buni bilasiz. Bechora qiz kelin ayasining parдоз qutisini titkilab yo'lakda yuziga upa surayotganida akasi kelib qolib bir tarsaki yeganidan, yonidan bir juft kino bileti chiqib qolib gap topib berolmay dovdiganidan uning necha yoshga kirganini bilib turgandirsiz. Bunaqa ish o'n sakkizga kirgan qiz bolaning qo'lidan keladi.

E, ayajonlar! Ko'chadan kuyovnavkar o'tsa qavib turgan ko'rpangizni supada qoldirib devordan qaraydigan, buvijonlar, ha, nima, o'n sakkizga kirmay hatlab o'tib ketmagandirsiz. Kulmang, o'z'laringiz ham xuddi shunaqa bo'lgansiz. yig'lagansiz, kulgansiz, xo'rsingansiz, do'rillagan ovoz eshitganingizda yuragingizda ot o'ynagan.

Yo'l o'rtasida ezmalanib gaplashib kelayotgan ikki keksa o'tib ketgandan keyin, yigit jadal yurib balkon tagiga keldi. Uning sharpasini sezgan qiz barmog'ini lablari ustiga ko'ndalang qo'yib qoshlarini kerdi-da, chiroqni o'chirib g'oyib bo'ldi. Zum o'tmay, u yigit oldida paydo bo'ldi. Hamma yoqni atir hidi tutib ketdi.

Ikkovi indashmay yo'l yoqalab ketaverishdi. Anhor tomonga burilishayotganda qiz majnunolning osilib yotgan novdasidan barglarni qisimida sidirib oldi-da, yigitning ustidan sochib yubordi. Yigit undan qasdini olmoqchi bo'lib intilgan edi, qochdi.

Ko'prikka yetmay yigit uni tutib, bag'riga bosib, o'pib-o'pib oldi. Qiz uning quchog'idan yulqinib chiqib, katta xarsangga o'tirib qoldi.

- Shunaqasan-da, Anvar,- dedi qiz undan o'pkalagandek kulib.

Anvar unga yaqin kelishga yuragi dov bermay sal nariroqda xansirab turardi.

- Bo'ldi, endi - dedi qiz jiddiy ohangda. ВЂ”Endi nima qilamiz. Juda boshim qotdi-ku. Aytdim-ku, sen bilan mendan kinoartisti chiqmaydi, deb.

Anvar qo'l siltadi.

- Ko'risholmaydi, rejissyorining gapini qara, ilm kerak, deydi. Nima o'ninchini bekorga bitirib qo'yibmizmi? Rolni bersinu o'ynaganimizni tomosha qilaversin. Mayli, kimligimni ularga ko'rsatib qo'yaman. Qurilishga boraman. Sen nima qilasan? Senga nima, sendan artist chiqadi. Sal kunda xizmat ko'rsatgan artist Umidaxonim Boltaeva bo'lib ketasan.

Umida sharaqlab kulib yubordi.

- E, omon bo'l-e, bo'lmadi. Arizamning ustiga bo'lmaydi, degan rezolyutsiya qo'yib qaytib berishdi. Xayr, alvido kino ekrani!

To'qimachilik kombinatiga ishga kiraman. O'sha yerda havaskorlar to'garigidan o'sib chiqaman.

Ular goh kuyinib, goh kulishib ancha paytgacha anhor yoqalab aylanib yurishdi.

Anvar bilan Umida bir partada o'n yil yonma-yon o'tirib o'qishdi. Shu o'n yil ichida ozmuncha xayol surishmadi. Anvar kuniga bir kasb tanlardi, Goh uchuvchi, goh mashhur artist, goh diplomat bo'lib dunyo kezardi. Mana bugun hammasi chippaka chiqdi ketdi.

Umida bo'lsa qaysi jurnalda kinoartistlarning surati chiqsa qirqib olar, hind qizlariga o'xshayman, deb ikki qoshining o'rtasiga xol qo'yib, kapron sharfga piston qadab kunora suratga tushardi. Uni ham kinoga olishmadi.

Beqaror, beqo'nim yoshlik ularni ne ko'ylarga solmadi.

Bu kecha ham ularning maslahati pishmadi. Ertaga yana shu yerda uchrashishga ahd qilib ajralishdi. Yana o'sha ko'cha betidagi balkonning chirog'i yondi. Yana o'sha xayolchan o'tirish...

Anvar bo'lsa mast odamdek kalovlab sanqib uyiga qaytdi. O'rniga yotib ko'zi ilinmadi. Umidaning yuzi ekranda kattakon bo'lib ko'rinaverdi, U go'yo bu yoqqa kel, deb uni ekranga chaqirayotganga o'xshayverdi. Oxiri xayoli tushga ulanib ketdi.

Ikkovi o'ynagan rangli kino qo'yilayotgan emish. Zalda o'tirganlar bir ekrandagi Anvarga, bir zalda o'tirgan Anvarga qarab qanday baxtli odam ekan-a, deyishayotgan emish. Kino tugagandan keyin ularning har ikkovini ham tomoshabinlar o'rab olib chapak chalisharmish. Bir tomoshabin xuddi uning qulog'i tagida juda ham qattiq chapak chalar emish. Anvar uyg'onib ketib qarasa, u yotgan karavotning bosh tomoniga qo'nib olgan xo'roz qanot qoqib endi qichqiraman, deb turgan ekan.

Anvar tushni bo'lgan xo'rozning oyog'idan ushlab uloqtirdi. Baribir xo'roz ariq labida turib uni masxara qilgandek yana qichqirib yubordi.

To'kilgan olmalarni terib yurgan ichkuyov pochchasi piching qildi:

- Yotaverasizmi, xalq artisti. Boshingizga oftob kelib qoldi-ku, ishlar nima bo'ldi? Qabul qilishmaganga o'xshaydi. Yaxshisi, yuring men bilan, ekspeditsiyaga olib ketay. Ikki yil mening partiyamda ishlab, keyin institutga kirasiz.

Anvar pochchasining ishini yomon ko'rardi. Shu ham ish bo'ldimi, cho'lu biyobonlarda tuproq kovlab, eski imoratlarning qoldig'ini topish. Bu ishda qahramon bo'lish qiyin. Bo'lsa pochchasi bo'lardi. Ming yil oldingi tangalarni, ko'zachalarni topgan. Nimasi qiziq! Kosmonavt bo'lsa boshqa gap. Bir marta osmonga chiqib orbitani aylansa bo'ldi, yerga tushishi bilan Oltin Yulduz tayyor.

Ammo kosmonavt bo'lish uchun matematikani, fizikani yaxshi bilish kerak. Anvar har ikkalasidan ham zo'rg'a uchga ilingan. Undan tashqari, Anvarning bo'yi uzun, novcha. Kabinaga sig'maydi, siqqanda ham ikki bukilib o'tirish kerak. Bola bechora ming xyl o'ylar bilan tentib qurilish maydoniga kelib qolibdi. Hamma yoq chang, shovqin. Samosvallar u yoqdan-bu yoqqa vag'illab o'tib turibdi. Sharaqlatib shag'al to'kadi, qaerdadir qaldirab beton qoradigan mashina aylanadi. Birpasdayoq Anvarning boshi aylanib ketdi. Kimdir: "Qoch, e, bola", dedi. Anvar o'girilib qarasa, sement devorni xartumida ko'tarayotgan bahaybat kranning tagiga kelib qolgan ekan. U chetga chiqib kran boshqarayotgan kishining harakatlarini kuzatib turdi. Kran xartumi devorni havolatib oborib uchinchi qavat tomining qirg'og'iga qo'ndirdi. Devor qo'ngan joyda elektr payvandlari chaqnadi. Anvar angrayganicha turib qoldi. Kranchi Anvarga qarab nimadir dedi. Anvar u nima deyotganini tushunmadi. U ikki barmog'ini labiga qo'yib nafasini ichiga tortib ko'rsatdi-da, nimanidir unga irg'itdi. Keyin u do'ng orqasidagi avtolavkani ko'rsatdi. Anvar u tashlagan narsani olib qarasa "Belomor"ning pachkasiga o'rab tashlangan pul ekan. Anvar darrov tushundi-yu, papiros olgani do'konga qarab chopdi. U qaytib kelganda kranchi yana bitta devorni qo'ndirib bo'lgan ekan. Anvar unga papirosni ko'rsatgan edi, u bu yoqqa chiq, deb imladi. Anvar shoshib temir pillapoyalarga tarmashib chiqa boshladi. Kran pastdan uncha baland ko'rinmagan edi. U to kranchining oldiga chiqqunicha naq qora terga botib ketdi. Birdan muzdek shamol esib uning bahri-dilini ochib yubordi. Papirosni egasiga berib atrofga qaradi. Hamma yoq ko'rinib turibdi. Shahar chetidagi imoratlar xuddi tuman orasidan ko'rinayotganga o'xshaydi. Hamma yoq imorat, imorat. Uzoqda ko'm-ko'k daraxtlar orqasidan Komsomol ko'li oynadek bo'lib yaltirab turibdi. Kranning qoq belida Anvarning shundoq takkinasida bir gala kaphtar pildirab uchadi. Kranchi papirosni o't oldirib bir-ikki marta to'yib-to'yib tortdi-da, Anvarga qaradi. - Rahmat, akasi, zap ish qilding-da, juda xumor bo'lib turgap edim. Anvar unga ma'noli iljayib qo'ydi. - O'qiysanmi, ishlaysanmi? - dedi kranchi pastga, xartum ilgagiga sement qorishmasi solingan temir toсни ilayotganlardan ko'z uzmay. - Ishlamayman ham, o'qimayman ham. O'qishni bitirdim, endi ishlamoqchiman. - Menga shogird tushmaysanmi? ВЪ” dedi u qorishmani to'rtinchi qavati bitmagan bino tepasidan aylantirib o'tib yangi poydevor qo'yayotganlarning oldiga tushirarkan. Anvar nima deyishni bilmay o'ylanib qoldi, - Yo kosmonavt bo'lmoqchimisani? Hozir hamma yoshlar kosmonavt bo'lishni mo'ljallashyapti. Ke, sen bilan biz o'sha kosmonavtlarga uy quraylik, nima deysan! Anvar mundoq qarasa kranchilik ham g'alati ishga o'xshaydi. Birdan unda kranchi bo'lish orzusi tug'ildi. Yoshlik shunaqa bo'ladi. To bir kasbning boshini tutguncha o'zini u yoqdan-bu yoqqa uraveradi. O'n sakkiz yosh ana shu beqarorlikning marrasi - oxiri bo'ladi. - Rost aytyapman, shogird tushsang, sal kunda kranchi qilib qo'yaman. Mana shu kran ikkovimizniki bo'ladi. Bilasanmi, bu kran bilan respublikani aylanib chiqqanman. Bu yog'iga ikkovimiz ishlaymiz. Qarab tursam yaxshi bolaga o'xshaysan. Xo'sh, nima deysan? Anvar "bo'pti" deb yuborganini bilmay qoldi. Tamom! Anvarning bolaligi bitdi! - Hali obedda kontoraga birga boramiz, o'sha yerda ishni bitkazamiz. Hozir uyingga borib hujjatlaringni olib kel. Ana, endi menga xalaqit berma. Texnika xavfsizligining inspektori ko'rib qolsa boshim baloga qoladi. Anvar pildiraganicha pastga tushib ketdi. Yana o'sha anhor bo'yi. Yana o'sha sichqon teshgan elakdek oy. Yudduzlar kuygan qozon tagidek jim-jim qilib turishibdi. Anhor shaloplab qirg'oqqa sapchiydi. Oy aksini maydalab oqizib ketmoqchi, majnuntol novdalariga osilib bir dam to'xtamoqchi bo'ladi-yu, eplolmaydi. Harsang tosh ustida oyog'ini suvga botirib Umida o'tiribdi. Anvar hovliqib-hovliqib gapiradi. - Bilasanmi, bilasanmi, dunyoda kranchilikdek qoyil ish yo'q. Shundoq tepasiga chiqib qarasang dunyoning narigi chekkasi ham ko'rinadi. Men o'sha yerdan turib sizlarning tomlaringizni ko'rdim. Ko'llar, bog'lar, imoratlar... Bitta samolyot xuddi-xuddi oyog'imning tagidan o'tib ketdi. Umida ko'zlarini katta-katta ochib unga qarab turibdi. Choy qog'ozini burdalab tashlagandek oy tangalari suv betida milt-milt oqadi. Katta ko'prik ustidan o'tayotgan mashina chiroqlarining aksi xuddi suvga bir sho'ng'ib olgandek narigi qirg'oqqa yetmay so'nadi. Qiz yigitning gaplariga chidamay ketdi. - Kombinatga borganmisan, o'zing. Kombinatning qanaqaligini bilasanmi, o'zing. Voy bo'... Men tengi qiz bir yuz o'n ikkita dastgohni yurityapti. Qirq ming odam ishlaydi. Kranni gapirasana. Kraning nima bo'pti, bu dastgohlarning oldida. Kombinatda bir yilda chiqadigan matoni yer shariga o'rasang yerning ochiq joyi qolmaydi. Kranlaringu, jamiki qurilishlaringni o'rab tashlaydi. Anvar ham bo'sh kelmadi. U kranchini maqtayverib oxiri gap topolmay qoldi. Ammo Umida kombinatda ko'rganlarini gapirib tugatolmasdi. Anvar mundoq qarasa, Umida labiga qizil surtganga o'xshaydi. Tikilib ko'rsa rost. - Bu nima, yapgi kalishning ichidek qip-qizil qilib. Umida piq etib kulib yubordi. Uning bu kulgisida? Sen uchun, sen uchun tentak, degan ma'no barq urib turardi. Shu kecha ularning xayoliga kinoartist bo'lish degan gap kelmadi. Har ikkovi ham yangidan tanlagan kasblarini tildan qo'ymasdilar. O'n sakkiz yosh shunaqa bo'ladi. Go'daklik xayollari yaratgan orzularini tumandek tarqatib, yangi orzular yaratadi. Yaratadi-yu, uni haqiqatga aylantiradi. Ajab emas, endi bu ikki o'smir kinoekranlarida artist bo'lib emas, artistlar bular bo'lib ko'rinsa. O'n sakkizga kirmabsiz, dunyoga kelmabsiz!

Ta'zim

Nihoyat, ko'pdan kutilgan diplom qo'lga tegdi. O'zim qattiq charchaganman. Aksiga olib so'nggi imtihon oldidan bir hafta yotib olsam bo'ladimi. Oshqozon nosog'-da. Keyingi ikki imtihonni parhez paytimda topshirdim. O'zi imtihon hamma vaqt saraton kirish oldidan boshlanadi. Havo qizigandan qizib ketadi. Ishtaha bo'g'ilgan, o'qigan narsang miyangdan uqalanib tushib ketadi. Bunday

paytlarda yo'g'on cho'zilib, ingichka uziladi, degandek, menga o'xshagan nimjonlarning tinkasi qurib qoladi. Odam bolasi bir nimaga jazm qilgandan keyin oxiriga yetkazmay qo'ymas ekan, shu alfozda hammasini beshga topshirib, omon-eson diplomni qo'lga oldim.

Mana, yo'lga ham chiqdim. Poezd meni sershovqin stansiyaga tashlab, yana qichqirganicha oldinga intildi.

Yuk vagonlari qasur-qusur qilib u yoqdan-bu yoqqa o'tib turibdi. Parovoz kukulaydi, temirlar jaranglaydi. To ochiq maydonga chiqib olgumicha boshim aylanib, ko'zim tinib ketdi.

Oftob osmondan olov quyayapti. Stansiya maydonidagi asfalKjt xamirdek ko'pchib, mashina g'ildiraklariga yopishadi. Kalovlab borib avtobusga intildim. Odam ko'p. Ikki qo'lim band bo'lganidan peshonamdan quyilayotgan terni artib ololmayman. Ter tomchilari ko'zimga oqib tushib achishtiradi. Bir mahal qarasam, oldimda turgan kishining basharasi samovarning qornida aksi ko'ringandek uzun bo'lib ketyapti. O'zim xuddi havoda muallaq turib qolganiga o'xshayman...

Ko'zimni ochsam begona uyda, divanda yotibman. Tepamda boya basharasi uzun bo'lib tuyulgap kishi turibdi. Hayron bo'ldim. Notanish kishi peshonamdan ho'l ro'molchani olib boshqatdan taxlab yana qo'ydi.

- Xayriyat,- deydi u ko'zlari chaq nab.- Issiq elitibdi, uka. Endi tuzalib qolasiz. Kelin ayangiz hozir xo'rda qilib beradi.

Eshik oldida choynak ko'targan yoshgina bir juvon turardi. Rostini aytsam, bola bo'lib munaqa chiroyli xotinni ko'rmaganman. Notanish yigit juvonning qo'lidan choynakni olib piyolaga choy quydi-da, menga tutdi.

- Iching, qaynoq-qaynoq iching, foyda qiladi. Davosi achchiq choy.- U boshimni bir qo'li bilan ko'tarib og'zimga piyolani tutdi. Juvon o'tdek chaq nab turgan ko'zlarini katta-katta ochib menga qarab turardi.

- Kechirasiz, uka,- deydi yigit nimadandir bezovtalanib.- Bafurja tanishib olarmiz. Hozir shoshib turibman, o'z uyingizdek bermalol yotavering. Men kechqurun qaytaman.- U shunday dedi-yu, stol ustidan, gazetaga o'rog'liq nimanidir olib eshikka yo'naldi.

- SelKjxoztexnikadan zapchastga naryad olib keldim. Yana stansiyaga jo'nashim kerak. Siz mehmonga xo'rda qilib bering.

Juvon ma'qul ishorasini qildi. Yigit chiqib ketdi. Uyda go'zal juvon bilan ikkimiz qoldik. Inson bolasini tabiat shunday ham chiroyli yaratadimi? Bu tushimmi, o'ngimmi? Yo ertaklardagi parilardanmi bu ayol? Ovozi qandoq ekan? Oddiy xotinlarning ovozig a'oxsharmikan?

O'lay agar, ko'nglimga yomon niyat kelgani yo'q! Faqat uning tengsiz husniga oddiy bir jo'n odam sifatida lol bo'lib turibman, xolos!

Juvon nimanidir olib chiqib ketdi. Shundagina bu yerga qanday kelib qolganimni o'yladim. Demak, avtobusda ko'nglim ozgan. Behush bo'lib qolganman. Bu yigit meni olib tushgan, uyiga olib kelib yotqizgan.

Uy jihozlariga ko'z yugurtira boshladim. Burchakda yozuv stoli, o'rtada ustiga kleyonka yopilgan dumaloq stol. Derazadan hovli ko'rinadi. Shaftolining ayvonga engashgan shoxlari mevasining ko'pligidan lapanglab turibdi. Hal-hal pishgan shaftolini bir chumchuq beomon cho'qilayapti. U cho'qigan joydan billurdek tomchi uzilib tushay, uzilib tushay deb turibdi. Chumchuq har cho'qiganda tumshug'ini qanotiga surkab oladi. Beixtiyor tamshanib qo'ydim.

Juvon oyoq uchida kirib yozuv stolining tortmasidan gazetaga o'ralgan bir nimani olib ochdi. Qarab turibman. Bir dasta pul. U shu pullar orasidan bitta besh so'mlikni olib, yana o'rab tortmaga solib qo'ydi-da, menga qaradi.

- Kechirasiz, uyda go'sht yo'q ekan, hozir guzardan go'sht olib kelaman, siz bahuzur dam olib yotavering, darrov kelib ovqatga unnab yuboraman.

U chiqib ketdi-yu, uyda g'ijjakning titragan ovozig a'oxshash mayin tovushi qoldi. Bu tovush uzoq vaqt uy ichida aylanib yurdi. Studentlik paytlarimda ota-onasi bor, o'ziga to'q studentlarga havasim kelardi. Ba'zan dars tayyorlagani ularnikiga borganimda, uylarini, osoyishta, beozor yashashlarini ko'rib havas qilardim. O'z hayotimga beixtiyor ko'z tashlardim. Bolalar uyi, yotoq, ba'zan to'q, ba'zan och qolishlar. Ota-onaga tashnalik har nafas bilinib turardi. Qachonlardir yaxshi kun ko'rish, ana shunday beozor oilada yashash ishtiyoqi yuragimda tug'yon qilardi. Ba'zida-chi... bolalik ekan, shunday kunlarga allaqanday mo"jiza kuchi bilan darrov yetisha qolish to'g'risida o'y o'ylab ketardim. Xayolan allaqayoqlardan katta pul topib olgandek, yuz ming, yo'q, ikki yuz ming so'm topib olib birdan niyatimga yetsam, deb o'ylardim. Mana, o'sha katta pul. Ko'zim oldida, ana shu burchakdagi stol tortmasida gazetaga o'rog'liq turibdi. Shunday o'rnimdan turib qo'limni uzatsam, bo'ldi. Tamom. Istagimga yetaman.

Agar men yomon niyatli odam bo'lsam, yo'q, mening o'rnimda yovuz niyatli odam bo'lsa...

Bunday emas. Har qanday yovuz odam ham bu ishni qilmasdi. Yiqilganda suyab, uyiga olib kirgan, uyining to'ridan joy berib, qaqragan og'ziga o'zi choy tutgan kishining peshona teriga xiyonat qilish uchun bo'ri bo'lish kerak. Vahshiy bo'lish kerak. Men odamman. Faqat meni bir narsa ezyapti. Bir umr tanimagan, na otini, na zotini bilmagan bir kishini uyga olib kirib, yosh xotining oldiga tashlab ketgan bu yigitga hayron bo'lyapman, Er-ku bunday qildi, xo'p. Xotinchi, xotini kimligini, qayoqdan kelib qayoqqa ketayotganini bilmagan yot begonaning oldiga bir dasta pul, stol ustiga qimmatbaho taqinchoqlarni tashlab chiqdi-ketdi. Nima, bular meni sinashyaptimi? Sinab ularga zarur kelibdimi? Hayronman!

Oradan yarim soatlar chamasi vaqt o'tdi. Hovlida juvonning oyoq tovushi eshitilib turibdi. Tushunib bo'lmaydigan mavhum o'ylar bilan ko'zim ilingan ekan, juvonning tovushi uyg'otib yubordi.

- Mehmon, hovliga joy qildim, chiqa qoling. Ancha salqin bo'lib qoldi, Xijolatlik bilan o'rnimdan turdim.

Hovliga suv sepilgan. Supaga joy qilingan, xontaxta ustida bir lagan shaftoli. Juvon bir bog' ko'k piyozni ariq bo'yida o'tirib tozalayapti. Supaga o'tirib u yoq-bu yoqqa qaradim. Darvozaxona oldidagi usti shifer bilan yopilgan omonat garajda mashina nusxasini ko'pdan yo'qotgan eski bir "Moskvich" turibdi. Uning oldingi ikkita g'ildiragi olinib, o'qiga g'isht terib qo'yilgan...

Motorlari ochib tashlangan. Mashinaga tikilib qolgaimni sezgan juvon kulib qo'ydi. U biram chiroyli kularkanki, beg'ubor qalbi, samimiyligi xuddi shu kulgisida aks etib turgandek edi.

- Turg'unboyingizga mashinadan tekkan. Tushida ham, o'ngida ham mashinani o'ylaydi. Tuzataman deb uvallo urinadi, uvallo urinadi, qani bu o'lgur yura qolsa. Endi yurgizib ko'chaga olib chiqadi-yu, to'rt-besh kishi bo'lib orqasidan itarib opkirib qo'yishadi. Yana kovlashga tushadi. Uch yildan beri ahvol shu. Qarasam bo'shamaydigan, mayli, yangisini olaqoling, dedim. Pul yig'ib mashinaga yozilib qo'ydik. Qecha do'kondan qog'oz keldi. Mashinalaringni olib ketinglar, deпти. Turg'unboyingiz hali kassadan pul olib kelib qo'ydi. Ertaga mashinani olib kelamiz.

Ko'zimga boyagi stol tortmasidagi pul ko'rindi.

- Ikkalamiz ham maoshdan tashlab qo'yib yig'dik. O'tgan yili kurortga ham bormadik. Bu yil ham bormasak kerak.

Turg'unboyingiz mashinada o'zim o'ynataman, deydi.

Juda-juda xijolat bo'lib ketdim. Ne hasratda yiqqan o'sha pulni buzib men uchun xarajat qilib keldi-ya. Bular qanaqa odamoxun

kishilar o'zi!

Shaftoli archib yeb o'tirib ming xayolga boribman. O'zimni bu olijanob odamlar o'rniga qo'yib ko'raman. Hayotda men hali nimani ko'ribman. O'qish, qorin to'ydirish tashvishidan boshqa nimani ko'ribman? Oldinda juda jiddiy, murakkab hayot borligini qayoqdan bilaman. Odamlar orasiga endi kiriyapman. Bular men uchratgan birinchi kishilar.

Tun jimjit. Ariqda suv jildiraydi. Yon-verimga tap-tap qilib, shaftoli to'kiladi. Tol novdalari orqasida yuzlari tilim-tilim bo'lganga o'xshab oy ko'rinadi. Hamma yoqda so'lim va osuda yoz kechasi hokim.

Katta hovlining o'rtasida husni bir jahonga tatiydigan juvon yotibdi. Ammo mening ko'zlarimga uyqu ilinmaydi. Yuragim hayajondan gupullab uradi. Quvonchmi, o'kinchmi, bilib bo'lmaydigan allaqanday bir his ichimni timdalaydi. Bu nima?

Bolaligimni, daydi o'ylarimni, tentak niyatlarimni allaqayoqlarga supurib tashlagan narsa bu uydagi odamlarning pokizaligi, beg'uborligi emasmi?!

Shu uy, shu odamlar, shu sirli oydin kecha menga yangi olamning eshigini ochib bergandek edi.

Ertalab uyg'onsam, Turg'unboy tovuq katagidan do'ppisiga tuxum solib emaklab chiqib kelayotgan ekan, U tuxumlarni xotiniga uzatar ekan, menga qarab ko'z qisib qo'ydi.

- Quymoqqa qalaysiz, mehmon,

Oshqozonim kasal bo'lganidan quymoq menga to'g'ri kelmasligini aytishga istihola qilib, gap topolmay qoldim.

- Ha, aytgancha parhezdaman, deganidingiz-a, bo'lmasa sizga shirgurunch.

Ovqat pishguncha ikkovimiz ariq bo'yiga cho'nqayib shaftolixo'rlik qildik. U shundagina kimligimni, qayoqdan qayoqqa ketayotganimni so'radi. Aytдим.

- Bizning sovxozda ham sizbop ish bor. Attang, putyovkani shu yoqqa olmabsiz-da. E, attang! Bir-ikki kun tursangiz, yangi mashinada qishloqni o'zim bir aylantirardim-da!

- Avval mashinalik bo'ling, undan keyin gapiring. Bu kishi shunaqalar.

Turg'unboy xotining gapiga kulib qo'yaqoldi.

Nonushtadan keyin Turg'unboy meni avtobusga chiqarib qo'ydi. Xotini bilan, bilmadim, qanaqa xayrlashdim ekan? Esimda yo'q. Har holda bu ajoyib xotinga munosib qaynoq bir so'z aytgan bo'lsam kerak. Esimda bor, ko'zlarida ajoyib bir tabassum bor edi o'shanda.

Qayga borsam yo'qolmasligimga, hamisha atrofimda olijanob kishilar bo'lishiga, ularning ishonch to'la ko'zlari porlab turishiga amin bo'lib safarga ketdim.

Har gal qishloqdan stansiyaga o'tayotganimda tomining yarmi shiferda yopilgan uying qorasi ko'rinishi bilan yuragimda chiroyli hislar g'alayon qiladi. Hovli o'rtasidagi bir tup shaftolining bahorda pushti gulga burkanishini, yozda sap-sariq mevalar larzon bo'lishini, kuzda barglari olovdek yonishini, qishda yalang'och novdalariga bulduriq qo'nishini ko'rib o'taman.

Bu qutlug' uyda meni o'zimga o'zimni tanitgan nurdek tiniq, oftobdek issiq odamlar yashaydi. Taqdir mening birinchi qadamimni shu ostonaga yetkazdi. Shu uy ostonasidan ochiq yuz bilan ertangi hayotimga boqqanman.

Shu uyga, shu odamlarga ixlos bilan ta'zim qilgim keladi.

Ko'zlaringda o't bor edi

Zinapoyaning boshida oq xalatlil ayol ko'rinishi bilan Mutal shoshib o'rnidan turadi. Undan biron gap chiqmagandan keyin bo'shashib yana joyiga o'tiradi. U shu taxlit uch soatdan beri o'tiribdi. Shahar allaqachon uxlagan. Ammo bu yerda kirdi-chiqdi. Telefon dam o'tmay jingillaydi. "Tez yordam" mashinasi tinimsiz kelib-ketib turadi. Rangi bo'zargan, ko'zlari besaranjom ayollarni nosilkalarda yuqoriga olib chiqib turishibdi. Kutib turganlarning ko'zida tashvish bor. Ichkaridan ham quvontiradigan, ham hayajonga soladigan xabarlar chiqadi. Mutal ham o'z baxtini o'sha joydan kutib o'tiribdi.

Zinada keksagina hamshira xotin ko'rindi. Hamma baravar o'rnidan turdi. U o'tirganlar orasidan kimnidir qidirardi. Oxiri, ko'zi Mutalga tushishi bilan yuzida bir chiroyli tabassum paydo bo'ldi.

- Holva muborak bo'lsin, inim. Xotining to'tidek qiz tug'di.

Mutalning yuragi qinidan chiqib ketayozdi. U rost aytyaptimi? Axir Mutal qirq olti yillik umrining yigirma sakkiz yilini shunday qutlug' xabar eshitish orzusida kechirdi. Nihoyat, nihoyat niyatiga yetdi. Hamshira xotin aldamayotganmi? Rostmi? Tushimmi, o'ngimmi? Yo'g'-e

Mutal esankirab qolgan edi. Atrofida nimalar bo'lyapti, kimlar bor, o'zi qaerda o'tiribdi, bilmasdi. O'zidan-o'zi dovdirab hovliga chiqib ketganini bilmay qoldi. U tug'ruqxona darvozasiga yetganidagina, shunday yaxshi xabar olib chiqqan hamshiraga rahmat aytmagani, suyunchi bermaganini bilib qoldi. Shoshib orqasiga qaytdi. Hamshira yo'q edi. Uning ismini bilmaganidan, hali ko'p kelaman-ku, ko'nglidan chiqarib yuboraman, deb o'ziga taskin berib yo'lga qaytdi.

Ko'cha jimjit. Har zamon asfalt yo'lni yoritib mashinalar o'tib qoladi. Negadir ular Mutalning oldiga yetay deb qolganda signal berishadi. Ular xuddi uni tabriklayotganga o'xshashadi. Sonsiz chiroqlar jimirlab ko'zni qamashtiradi. Daraxt shoxlari shabadada silkinib, yerdagi soyalarini u yoqdan bu yoqqa otib o'ynashadi. Havo toza, musaffo.

Tramvay-trolleybuslar yotgan. Uy hali uzoq. Mutal ko'chani qoq o'rtasida borardi. Dunyoda hozir undan baxtli odam yo'q.

Ashula aytgisi, uchragan odamga shu topda qiz ko'rganini birpasda tapirib tashlagisi keladi. Xuddi uning yonginasidan bir yuk mashinasi vag'illab o'tib ketdi. Nariroq borib shart to'xtadi-yu, shofyor kabinadan bosh chiqarib, jahl bilan so'kindi. Mutal unga parvo qilmadi. Ammo birdan hushyor tortib ketdi. Boyagi quvonchlarini qayoqqadir g'oyib bo'ldi, bir zumda yuragini muz bosgandek sovub qoldi.

- Men ham odam bo'ldimmi? Rostdan ham baxtlimanmi? Shumi baxt?

Bu fikr yashin tezligida kallasini parmalab kirib, mahkam o'tirib oldi.

Endi Mutal behush qadam tashlardi. Boya yeldek uchib ketayotgan odam, endi shoshilmasdi. Qayoqqa shoshadi, yigirma besh yillik hamrohi, do'sti, eng aziz kishisi bu xabarni eshitsa nima bo'ladi? Bu xabar uni qon yig'latmaydimi? Ilgarilari ham Mutal shu to'g'rida o'ylaganida, yuragi orqaga tortib ketar, o'yini oxiriga yetkazishdan qo'rqardi. Bola ko'rish orzusida yigirma besh yil orziqib yashagan bo'lsa, bu yog'idagi niyati ro'yobga chiqayotgan uch yilida bu ezgu niyati ko'pincha dahshatli o'ylar bilan aralashib ketardi.

Mutalning hayotidagi bu kattakon voqea e'tiborxonning qulog'iga yetmay qolmaydi. Undan keyin nima bo'ladi? e'tiborxonning holi nima kechadi? Ana shunisi yomon! Uning qiynalganini ko'rish, ko'zida yosh, chehrasida g'am ko'rish Mutalni iztirobga soladi. U, yigirma besh yil e'tiborxonni avaylab keldi.

e'tiborxon Mutalning avvalgi xotini edi. Tug'madi.

Mutalning nazarida dunyoda hech qanday er-xotin ulardek bir-birini sevomasdi. Bu hurmat, bu muhabbat, bu mehr-oqibat... Mutalning hali esida, ularning to'yi ming to'qqiz yuz o'ttiz to'rtinchi yilning avgustida bo'lgan edi. To shu kungacha bir-birlarini sen deyishga tillari bormagan. Hamisha "siz"lab gapirishardi. Qo'ni-qo'shnilar ularning uyidan biron marta qattiq ovoq eshitishmagan. Uylari bo'lsa, hamma vaqt yaraqlardi. Qelgan mehmonlar ularga havas qilib ketishardi-yu, uylariga yetmay, shu bechoralarga xudo bittagina farzand bermadi-da, deb qo'yishardi.

Yillar o'taverdi. Ular hamon bir-birlarining qosh-qovog'iga qarab, kunlarni yillarga ulab yashayverishdi. Mutal qachondir bola ko'rishiga ishonardi. Uning ishonchi e'tiborni qiynardi. Erining siqilayotganini bilib turardi. Ko'chadan bola o'tsa ko'zi o'ynashini, mehmonga borishsa bolalarning o'yiniga qo'shilib ketishini e'tibor sezmasmidi, sezardi. Xotinlar ziyrak bo'lishadi, uydagi konfetlarni ko'chadagi bolalarga tashib tamom qilishini bilmaydi, deysizmi? Bilardi.

Urush boshlandi. e'tibor to'rt yil yo'lga ko'z tikib Mutalni kutdi. Keldi. Yana o'sha jim, osuda hayot. Urushdan avval qanaqa yashashgan bo'lsa, undan keyin ham o'zgarishsiz bir xil umr boshlandi. Mutal bolasiz o'tishga rozi edi-ku, ammo e'tiborsiz yashashga rozi bo'lolmasdi. U e'tiborga shunchalar o'rganib qolgan, o'zini hatto e'tiborsiz tasavvur ham qilolmasdi. Ammo e'tibor erining qo'lida bola ko'rishni shunday orzu qilardiki, birgina bola uchun, Mutalning birgina quvonchi uchun jonini ham berishdan qaytmasdi. Qo'lida bola ko'rib o'lsam, to'yimiz bo'lgan yillardagi Mutalning ko'zlarida chaqnagan o'tni yana bir ko'rsam, bu dunyodan bearmon ketardim, deb o'ylardi.

Kunlar, yillar o'taverardi. Er-xotin hamon samimiy, hamon bir-biriga oqibatli. Bir burda non bir-birisiz tomog'idan o'tmaydi, uy hamon ozoda, saranjom, jimjit.

Shu xilda yigirma to'rt yil umr o'tib ketdi. Na bolasizlik, na odamlarning kishi bilmas ilmoqli ta'nalari ularning orasiga sovuqchilik sololmasdi.

Mutal tanish-bilishlar bilan uchrashib qolganda odatdagicha, undan bola-chaqalarning salomatligini so'rashardi. Mutal dovdirab nima deyishini bilmay, tayinsizroq bir gap aytib qutulib ketmoqchi bo'lardi-yu, ammo odatda shu gaplardan keyin keladigan: kattasi nechaga kirdi, degan so'roqdan keyin, qiynalib-qiynalib javob berishga majbur bo'lardi.

- Bolamiz yo'q. Shundoq...

So'ragan odamning xijolatligini aytmasizmi.

Mutal tanishlar bilan to'qnash kelishdan bezillab qolgandi.

Bu gaplarni e'tibor sezmasdi, deysizmi, sezardi. Sezardi-yu, ich-ichidan ezilib ketardi. Erining ko'ziga qarolmay, xomush bo'lib qolardi.

Yana bir yil o'tdi. Mutal qariy boshladi. e'tiborning nazarida, ilgari chaqnaq turgan ko'zlaridagi o't yo'qolayotganga, o'zi sal narsaga charchab qolayotganga o'xshayverdi. Bir kun Mutal ishdan kelib hovlida gulqaychi bilan olma shoxlarini butab yurganda, e'tibor ayvonda chuchvara tugib o'tirgan edi. Birdan, bexosdan ko'zi erining bo'yniga tushib qoldi. Iyaklarining tagi g'ijimlanib qolganek ko'rindi. O'rnidan turib, bexos oldiga bordi. Faqat iyagida emas, ko'z chetlarida, peshonasida ham ajin. Birdan e'tiborning yuragini vahm bosib ketdi. Qaribdi, qaribdi. Sochi ikki chakkasidan oqora boshlabdi, qaribdi, qaribdi...

Hali oftob o'chmagan, gullar qiyg'och ochilib turgan iyulKj kuni ularning yigirma besh yillik ahil umriga yakun yasadi.

e'tiborning niyati buzildi. Ketish kerak, shu qadrdon, dunyodagi yaxshi odamlarning eng yaxshisini tashlab ketish kerak. Qandoq qilib?

Mana shunisi qiyin edi. Shunday ketish kerakki, ko'z yoshi to'kilmasin. Kelgan yig'ini kulgi bilan, xandon kulgi bilan yengish kerak.

e'tibor boshqa yo'l topolmadi. Mutalni baxtli qilishning birdan-bir yo'li shu edi. O'sha kecha e'tibor mijja qoqmadi. Yana boshqa tadbirlar ham qidirib chiqdi. Eng so'nggi tadbir, Mutalning ko'nglini o'zidan sovitish, bezor qilish bo'ldi.

O'shanda dam olish kuni edi. Kechgacha e'tibor bo'lar-bo'lmasga bahona topib, erini qiynayverdi. Qo'pol gapirdi, jig'iga tegdi, ko'ngil qoldiradigan sovuq gaplardan ham toymadi. Mutal og'irlik qilib uning ko'nglini olishga urindi. e'tibor sovimadi. Axir, toqati toq bo'lgan Mutal qizishmay, yotig'i bilan so'radi:

- Sizga nima bo'ldi, e'tibor? Juda qiynavordingiz-ku?!

- Ketaman!

Mutal gangib qoldi. Nima qilishini bilmay, xotining ko'ziga qarab, angrayganca qoldi.

- Ketaman, yashamayman siz bilan.

e'tibor shu gapni aytdi-yu, titrab ketdi, ammo buni eriga sezdimadi. Ich-ichidan toshib chiqqan xo'rsinishni kuch bilan bosib qaytardi. Angrayib qolgan erining ko'ziga qaramay, uya kirib ketdi-da, birpasdan keyin chamadon, tuguncha ko'tarib chiqdi.

- e'tibor, ketmang, meni tashlab ketmang, men nima qilaman...

Mutalning ko'zleri xiralashib bir gandraklab oldi. Darmonsizlanib ayvonning labiga o'tirib qoldi.

e'tibor yugurib borib qo'ltig'idan ko'targisi, peshonasidan, o'sha sochi oqarib kelayotgan chakkalaridan silagisi, yuzini-yuziga ishqab ovutgisi keldi. Lekin, bunday qilmasdi. O'zini tutdi. Yuragi yig'lardi-yu, chidardi. Bu - qahramonlik edi, katta qahramonlik edi. U o'zini hamon dadil tutib, erining oldiga bordi:

- Bilasanmi,- bu erini birinchi marta senlashi edi,- senga xiyonat qildim. Buning uchun o'zimni kechirolmayman. Sen ham kechirmaysan. Xiyonat qilgan xotin erining uyida turishga, u bilan birga yashashga haqsiz. Buning uchun, bilaman, meni kechirolmaysan.

e'tibor bu bahonani beixtiyor topdi. Bu - zo'r bahona. Hech qanday er xiyonat qilgan xotinni kechirolmaydi. Butun umrini bolu pardek pokiza o'tkazgan xotin, xiyonat u yoqda tursin, begona erkakni xayoliga keltirmagan xotin o'zini-o'zi eng pastkashlar qatoriga qo'yib o'tiribdi. Nima uchun? Kim uchun? Buni e'tiborning o'zi bilardi.

e'tibor ostonaga yetib qoldi. O'girildi:

- Meni kechirolmaysan, kechirolmaysan. Ko'zingga qarab, shafqatingni kutib yashashga toqatim yo'q. Kuniga ming martalab o'zimni qarg'ab yashashga toqatim yo'q. Seni harom qilishga haqqim yo'q. Ketay, ketay...

e'tiborning tovushi bo'g'ilib, gapirolmay qoldi shart burildi-yu, chiqdi-ketdi.

Mutal yolg'iz qoldi. Bir kun kutdi, ikki kun, bir oy, bir yil kutdi, xotinidan darak bo'lmadi,

Oradan bir yarim yil o'tib, e'tibordan xat keldi. Xatda u endi sira qaytib kelmasligini, o'sha yo'ldan "urgan" kishi bilan

qovushmoqchi ekanini aytibdi. Mutal yig'ladi. Xo'rliqi kelib, o'tkazgan yigirma besh yillik umriga achinib yig'ladi. Mutal

yolg'izlikda so'la boshladi. Ajinlari ko'paydi, chakkasidagi oq tolalar manglayiga o'rmlab qoldi. Kuyib-yonib ado bo'lay dedi.

Ko'pchilik: uylan, yolg'izlik yomon, deb nasihat qilishdi. Mutal yotib qolay dedi. Oxiri, do'stlari kichkinagina to'yicha qilib o'zi bilan birga ishlaydigan bir qari qizga uylantirib qo'yishdi. Hamon e'tibordan darak yo'q. U bevafoing qardaligini hech kim bilmasdi.

Mutal tug'ruqxonadan kelarkan, mana shularni esladi. Esladi-yu, siqilib ketdi.

- Uning bola ko'rganini e'tibor eshitsu, nima qilarkin? O'zini-o'zi bir nima qilib qo'ymasmikin? Yo sevinarmikin? Sevinmaydi, u xiyonatchi!

Uning ko'ziga goh tug'ruqxonada yotgan chaqalog'i, goh uydan qahru g'azab bilan chiqib ketayotgan e'tibor ko'rinardi.

Oradan to'rt kun o'tdi. Mutalning xotini bilan qizi hali tug'ruqxonada. O'zi bo'lsa, tinmay uy yig'ishtiradi, keldi-ketdi uchun tayyorgarlik ko'radi.

Birdan eshik taqillab qoldi. Pochtachi. Posilka olib kelibdi. Kimdan? Kimdanligi noma'lum. Mutal shoshilmay yashikni ochdi. Chaqaloqqa ko'ylak, fartuk, qalpoqcha... Kimdan bu? Mutal yashikning u yoq-bu yog'ini titkilay boshladi. Xat. Shoshib oldi, shoshib o'qiy boshladi:

"Hurmatli Mutal aka! Meni kechiring. Eshitdim. Eshitib qay ahvolga tushganimni tushuntirib berolmayman. Mening bittagina niyatim - qo'lingizda bola ko'rish edi. Shu niyatimga yetdim. O'tgan kuni ko'chada sizni ko'rib qoldim. Ko'zlaringizda o't yonib turibdi. Bundan yigirma yil avval ko'zlaringiz shunday edi. Ko'rib, hayron bo'ldim. Bilsam, ota bo'libsiz. Bu qanday baxt, bu qanday baxt! Sevinchdan yuragim yorilay dedi. Yotib uxlolmadim. Tong otguncha ko'rgan kunlarimizni eslab chiqdim. Qandoq totuv yashadik! Qandoq mehribon edik bir-birimizga! Sizni qanchalik yaxshi ko'rardim! Qandoq ayardim, shamolni ham ravo ko'rmasdim. Kechalari sizga baxt, salomatlik tilab chiqardim. Sizdek pok odamga munosib xotin bo'lish uchun qo'limdan nima kelsa, vijdonim nimani buyursa - hammasini qildim. Bilsangiz, uydan ketishim, o'zimga-o'zim tuhmat qilib, o'zimni-o'zim buzuq deb ataganim ham sizga baxt tilashim edi. Endi ochig'ini aytoy, umrimda xiyonat yo'lga kirmaganman. Agar o'zimni buzuq demaganimda, siz meni uydan har qandoq qilib ham chiqazmasdingiz. Ketdim, yaxshi bo'ldi, siz baxt topdingiz, bolalik bo'ldingiz. Niyatim ham shu edi.

Agar men ketmaganimda sizga bu baxt qayoqda edi? Endi ko'nglim tinchidi. Niyatimga yetdim. Baxt muborak bo'lsin!

Yangi kelin paytlarimda yaxshi niyat qilib, bola ko'rsak kiydirarman deb ko'ylakchalar, qalpoqchalar tikkan edim. Ezilasiz deb sizdan yashirib tikkan edim. Menga ona bo'lish nasib bo'lmadi. Iltimos, shularni chaqaloqqa kiydiring.

Shu paytgacha shaharda edim, Yaxshilik xabarini eshitib, tamoman xotirjam bo'ldim. Ertaga butunlay ketaman. Kim biladi, qayta uchrasholamizmi, yo'qmi?

Uydan chiqib ketayotganimda yetkazgan ozorlarim uchun Sizga hamisha ehtirom bilan: e'tibor otli xotin"

Xatga Mutalning ko'z yoshlari to'kildi.

Cho'l oqshomlari

Otalar va bolalar

Kattakon yer o'choq oldida bir qariya chirsillab yonayotgan o'tga qarab jimgina o'tiribdi. Ufqda anchadan beri kimxobdek ko'zni olayotgan olovrang shafaq suv purkagandek bir zumda o'chdi-yu, cho'l ustini nim qorong'ilik bosdi. Olisda ikki traktor hamma yoqni ostin-ustin qilib vag'illab yuribdi. Ularning faralari har zamon bir-birlari bilan to'qnashib qilichdek chaqnaydi. Chol guldirakka quloq solib o'choqdagi o'tdan ko'zini olmay hamon nimaningdir xayolini suradi. Nimani o'ylayotganikin? Kim biladi, uning ko'pni ko'rgan keksa xotirasiga nimalar keldiykin? Har bosgan qadami tarix, har aytgan gapi hikmat bu keksaning, eslasa arzigulik xotiralari bor. Ko'pincha u kechirgan kunlarini, qilgan ishlarini o'zi gapirmasdi, boshqalar gapirishardi. Gapirganda ham oshirib-toshirib, qo'shib-chatib gapirishardi. Shunaqa paytlarda u gapga aralashib, hoy bola, oshirma, toshirma, bosmachini bitta o'zim yengmagandirman, boshqalar ham bordir, kolxozni bitta o'zim qurmaganidirman, boshqalar ham bordir, deb gap tashlab qo'yardi-da, o'zi o'rnidan turib davradan chiqib ketardi.

Hozir u cho'l shamolida goh u yoqqa, goh bu yoqqa silkinib yonayotgan o'tga qarab nimani o'ylab ketdiykin? Bolalarinimi?

Nevaralarinimi? Toshbo'ron bo'lib o'lgan sambitdek singlisinimi? Qandoq qiz edi-ya! Bu tomonlarda hammadan oldin paranjisini tashlagandi. Shunaqa o't juvon edi. Nomard eri toshbo'ron qildirdi. E, attang, marhuma tirik bo'lsa oltmishga kirarmidi...

Ot dukuri eshitildi-yu, xayoli bo'lindi. U bosh ko'tarib qaragan edi, o'choqdan sal nariroqda bir otliqni ko'rdi.

- Omonlikmi, qariya!- dedi yo'lovchi uzangiga oyoq tirab egardan ko'tarilar ekan.

Chol shoshib o'rnidan turdi-da, uning istiqboliga chiqdi.

Yo'lovchi tizginni egar qoshiga omonat tashlab, ildam kelib cholning qo'lini oldi. Hol-ahvol, omonlik so'rashgandan keyin, chol uni berigi brezent chodirga boshlab kirdi. Chiroq yoqib uni o'tqazdi.

- Yo'llari bo'lsin, mehmon, o'zlarini bu biy dalaga qaysi shamol boshlab keldi.

Yo'lovchi boshidan qalpog'ini olib tizzasida taxlab, popugini o'ynab o'tirdi-da, kulib qo'ydi.

- Usi jerde maqta ekib jatqan bir jigiti ovulimni bespokoyso qilib jatir. Aynalayim o'tag'asi, qudayim bergan neberemdi tinish qo'ysin.

Chol nima gapligiga tushunolmay hayron bo'lib qoldi. Cho'lda traktor minib yurganlardan to'rttovi bola-chaqalik, faqat bittagina uning nevarasi bo'ydoq. Bo'yniginang uzilmagur Shamsining qilg'imikin bu? Chol savol nazari bilan mehmonga qaradi.

Mehmon kula-kula bo'lgan voqeani gapirib ketdi.

Uning Suluv degan nevarasi bor ekan. Otasi urushda o'lib ketgan, onasi Olmaotada konserva zavodida laborantlik qilar ekan. Chol tug'ilib o'sgan shu cho'llardan ketgisi kelmay, cho'ponlarga qarashib yurar ekan. U nevarasi Suluvga juda o'rganib qolganidan qizi uni olib ketolmay boboyning oldida qoldirgan ekan. Yaqin bir oydan beri bir yigit kechalari ovulga kelib itlarni vovullatib Suluvni chaqirarmish. Avvaliga otasidan xijolat tortib turgan Suluv, keyinchalik tiq etsa cho'lga qaraydigan, it akillashi bilan allaqayoqqa zim g'oyib bo'ladigan qiliq chiqaribdi.

- Ovulding itterida jigitingmen kelisip qoldig'o'y. Endi kelse indemeydi. Quyrug'ini dikilletedi.

Ikki qariya qotib-qotib kulishdi. Chol dasturxon yozdi. Qand-qursni to'kib tashladi.

- Shayingdi qo'yatur, qariya. Manov gapga ne diysin, aytag'o'y.

Nol soqolini g'ijimlab o'ylab turdi-da, yana kuldi.

- Nege kulesin, o'tag'asi?

- Kulayotganim yo'q, mehmon. Hozirgi zamonning bolalariga bizning tishimiz o'tmaydi. Bir-biri bilan don olishib qolgan bo'lsa, siz bilan biz ne qilamiz. Quda bo'lshdan boshqa ilojimiz yo'q. Shoshmang, yigitlar ishdan qaytadigan payt bo'ldi, oshga gurunch

tashlab qo'yay.

Chol shoshib chodirdan chiqdi-da, o'choqdagi o'tni balandlatib qozonga gurunch soldi. Temir kaltakka ilingan uvada o'ramiga kerosin sepib gugurt chaqdi. Mash'ala gurullab cho'lning uzoq-yaqinini yoritdi. Chodirdan mehmon ham chiqib mash'ala yorug'ida qozon kavlayotgan cholga qarab turardi. Uning yuzlari qip-qizil. Bitta ham ajini yo'q. Gavdasi quyib qo'ygandek baquvvat. Yelkasiga tashlab olgan chakmonining barlari shamolda har silkinganida burgut uchishga talpinayotganga o'xshab ketadi. Qisq ko'zlari tun qa'ridagi olislarni ko'rayotgandek...

Cho'l odamlari shunaqa bo'ladi. Ayniqsa umrini cho'llarda shamoldek kezib o'tkazgan qozoqlar kengliklarda yashab, olis yo'llarni bir qarashda ko'radigan bo'lib qolishgan. Cho'l qozoqlari erta bilan ovuldan chiqishidayoq quyoshning yerdan ko'tarilishini ko'rmasa, uning kech payt botishini ko'rmasa, yuragi siqilib ketadi. Shunday, qozoqlar kenglikni, erkinlikni sevadilar. Ovuliga tushgan qo'noqni et bilan, qimiz bilan siylamagan qozoqni bular qozoq demaydi. Qadimdan udum bo'lgan bu odatni ular hamon saqlab kelishadi. Mehmondo'stlik ularning milliy odatiga aylanib ketgan.

Mash'ala hamon charsillab yonib turibdi. Osmonda yulduz to'lib ketdi. Lipillab yonadi, o'chadi. Xuddi koinotga chaqirayotgandek imlashadi. Ufq etagi xira pardaga o'ralgandek bir zum sokin turib qoladi-da, qizarib-bo'zarib ketmondek oyning yarmi ko'rinadi. Mehmon o'choq oldiga keldi.

- Utti nege jaqting, qariya?

- Yigitlarni chaqirdim. Mash'ala yoqqanimda ishni tugatib ovqatga kelishadi. Ko'ryapsizmi, oy to'lishgan payt. Kechasi ham shudgor olishayapti, bir-ikki soat dam olib yana ishga tushib ketishadi.

Chol gapini tugatmagan ham ediki, traktorlarning shovqini birin-ketin tindi.

- Hozir kelib qolishadi.

Yana motor shovqini eshitildi.

- Shamsining mototsikli,- dedi chol cho'l bag'riga quloq tutib.

Motor tovushi borgan sari sekinlashib, oxiri qorong'ilikda jimib ketdi.

- Bo'yning uzilmagur tentagim yana ketdi.

Mehmon ham ketmoqchi bo'lib otining jilovidan tutgan edi, chol uni qaytardi.

- Mehmon, unaqa qilmang, tayyor ovqatni tashlab ketmang, xafa bo'laman. Qozoqdan siylov ko'rgan odamman. Yigitlarimiz bilan birpas hangomalashib, keyin ketasiz.

- Jigitingde kazir keleme?

- Kelmaydi. Mototsiklini patillatib Suluvingizning oldiga ketdi.

Mehmonnig ko'zi olazarak bo'lib qoldi.

- O'tiring, quda, boshqa iloj yo'q.

Mash'ala vishillab-vishillab mushtdekkinaga cho'g'ga aylandi-yu, oxiri uni ham cho'l shamollari uchqunga aylantirib har tomonga nurlil to'zon qilib uchirib ketdi. Chol oshni damlab o'choqdan cho'g'ni tortdi. Samovarning quvuriga belkurakda cho'g' tashladi-da, mehmonni qaytarib ichkariga olib kirdi. Tashqaridai gangur-gungir tovushlar eshitildi. Zum o'tmay chodirga oldinma-ketin to'rt yigit kirdi. Chol chiroqning piligini ko'tarib qo'ydi. Mehmon ular hurmati uchun o'rnidan turdi. Birpasda tanishib ketishdi-yu, gap bu yilgi bahor, ob-havo, qancha yerga paxta, qancha yerga sabzavot ekish ustida ketdi. Mehmon ularning gaplariga quloq solib o'tirar ekan, nevarasi Suluvni o'ylar, unga oshiq bo'lgan yigitning qanaqaligini bilgisi kelardi. Oxiri gap Shamsiga borib qadaldi. - Shamsining oshini boshqa suzing. Salim ota. Ketdi uningiz, o'sha Suluvining oldiga. Tentagingiz yomonam oshiq bo'libdi-da. Qo'li traktor rulida-yu, ko'zi o'sha tomonda. Na qulog'iga gap kiradi, na ko'ziga odam ko'rinadi. Tezroq boshini ikki, oyog'ini to'rt qilib qo'ymasangiz devona bo'lib qoladi buningiz.

Chol ayyorcha kulib, do'ppining tagida odam bor, ehtiyot bo'l, degandek imlab qo'ydi. U, yana Shamsini chalpima, yaxshisini oshir, yomonini yashir, demoqchi edi-yu, gap qotgan yigit befahmlilik qilib boshqa gapni o'rtaga suqib qo'ydi.

- Katta akamning qizi oqi oq, qizili qizil bo'lib yetilib turibdi. Bir og'iz shama qilib qo'yganda, o'lay agar, o'rtaga tushardim.

Shunaqa-da, tayyori turganda notayyoriga yuguradi, hozirgi bolalar.

Oraga sal jimlik tushdi. Pastda o'tirgan puchuqroq yigitni Salim ota imlab tashqariga olib chiqib ketdi. Yigit zum o'tmay choy ko'tarib qaytib kirdi.

Ana shundan keyin gap Shamsining ta'rifi ko'chib ketdi. Uning nechta medali borligi, raykom komsomolning byuro a'zosi ekanligi, Varshavadagi Jahon yoshlari festivaliga qatnashib, "Andijon polka"sini qotirib laureat bo'lgani, kolxoz sekretari bir oy allaqayoqqa otpuskaga borib xotinlarga o'xshab soch qo'yib, "stilyaga" bo'lib kelganida Shamsi uning qo'l-oyog'ini bog'lab sataroshxonaga opkirib, o'zi sochiga ustara solgani, tor shimini yechib tumonat ichida trusigi bilan uyiga haydaganigacha gap bo'ldi.

- Festivaldan kelgandan keyin juda oshig'i ko'payib ketdi. Parijdan, Qohiradan, Vashingtondan, odamning tili kelishmaydigan Rio-de-Janeyro degan joylardan qizlar xat yozib turishadi. O'shanaqa joylardan har xat kelganda, akam o'zlari tushunmay, ha do'st, shaharga tushib Chet tillar institutidagi bolalarga o'qitib, o'shalarga xat yozdirib keladilar.

Bu yerda-shu Shamsivoyning ta'riflari bo'lib turibdi. U kishining o'zlari shu topda nima qilayotgan ekanlar?..

Mototsikl chirog'i cho'l qorong'iligini shamshirdek ikkiga bo'lib uchib ketyapti. Do'ngliklarda qaqqayib turgan yumronqoziqlar chiroqdan esankirab, inlari atrofida chir aylanishadi. Shalponquloq quyonlar yo'lni cho'rt kesib u yoqdan bu yoqqa o'tib qolishadi. Shamsi ularga parvo qilmay, hamon jadal ilgarilaydi. Chiroq tepalikka urilib, yana pastga sirg'anib tushdi. Kattakon bir it mototsiklga qarama-qarshi yurib kelmoqda. U Shamsiga yaqin keldi-yu, dumini likillatib oldiga tushib yuraverdi. It uni har galgi uchrashuv joyiga emas, katta do'nglik tomonga boshladi. Azim xarsang tosh ustida turgan qizga chiroq shu'lasi tushdi. U o'tkir nurdan ko'zlari qamashishiga qaramay sakrab yugura boshladi. Shamsi motorni o'chirib, chiroqni yoqiq qoldirganicha qizga intildi. It hamon dumini likillatib uning atrofida parvona edi.

Jamiki kitoblarda, hatto hayotning o'zida ham oshiq-ma'shuqlarning uchrashuvi, aytadigan gaplari bir xil bo'ladi. Mana shu masalada standartlik, shtampchilik bor. Oshiq ham, ma'shuq ham oyga qaraydi. Ikkovi ham xo'rsinadi. Aytadigan gaplari ko'p bo'lsa ham aytolmay bir-birlariga qarab turaverishadi. Yigit qizning qo'lidan ushlab silaydi, boringki zo'r kelsa bitta o'padi ham...

Ammo bizning bu oshiq-ma'shuqlar anovi standart oshiq'larga sira o'xshashmaydi. Oshiq-ma'shuqlikning qonun-qoidasi yo'q. Bo'lganda ham kim unga amal qilardi, deysiz. Yurak gupillab urib turganda, qon qizib miyaga urganda, ikki yurak bir-birining ichiga kirib ketaman deb turganda kim bunaqa qoidaga amal qilardi!

Suluv xalloslaganicha kelib Shamsining bag'riga tashlandi. Shamsi uning sochlaridan, boshu bo'yinlaridan siladi. Bu oshiq-

ma'shuq tushmagurlar kitoblardagi oshiq'larga o'xshab oyga ham, mo'ltillab turgan yulduzlarga ham qarashmadi. Ayniqsa Zuhra yulduzi ular qararmikin, deb shuncha imlaydi, yo'q, qarashmadi. Oxiri u zarda qilgandek yuziga xira bir bulutchani parda qilib tutib oldi. Ammo eski, ko'p oshiq'lardan beva qolgan oy ulardan ko'zini olmay turib olgan edi.

Endi gapni bu tomondan eshiting. Salim ota bilan yigitlar mehmonni izzat-ikrom bilan kuzatib tashqariga chiqishdi. Bularning har ikkovi ham qudalikni bo'yinlariga olgan edilar. Ertaga besh kishi bo'lib, yaylovga borib, shu ishning shundoq bo'lganini ovulga ma'lum qiladigan bo'lishdi. Yigitlar u bilan xayr-xo'shlashib ishlariga ketishdi. Ikki qariya oydin kechada ot jilovidan yetaklab ancha vaqtgacha cho'l kezib yurishdi.

Cho'lning ikki burchidagi ikki odam biriga qiz berib, biriga o'g'il berib to'y qilish rejasi bilan band edilar. Bolalar, nevaralar xayoli bilan katta do'ng oldiga yetib qolganlarini sezishmadi. Xuddi shu yerdan, shu do'ngdan ikki respublikaning chegarasi o'tardi. Ular keksayib qolgan, muhabbat hislarini unutib yuborgan bo'lishlariga qaramay, inson muhabbati hech qanday chegarani tan olmasligini bilishardi.

Mehmon qo'lini cho'zib chiroqlar porlagan tomonni ko'rsatdi.

- Ovulim manov qirding ostinda, kelaber, bovorim,- dedi.

Salim ota chiroqlarga tikilib turdi-da:

- Boraman, albatta boraman,- dedi.

Olisdan mototsiklning yakka ko'zi porladi.

- Kuyovingiz kelyapti,- dedi ota.

- Aynalayim,- dedi quda.

Uning tovushida allaqanday iliq, otaning arzanda bolasiga aytadigan g'alati bir mehri bor edi.

Quda qudag'aylar

Salim ota bu yoqlarga ko'p kelgan. Kuzda qozoqlar to'qayga o't qo'yishardi. Bir necha kun shu do'ng orqasidan alanga chiqib turardi. Ana shundan keyin cho'ponlar kuygan to'qaydan kuyib, tayyor kabob bo'lgan bedanalarni, qirg'ovullarni terib ketishardi. Hozir o'sha to'qay qamishlari belga urib ko'm-ko'k bo'lib turibdi. Shamsi mototsiklining lampasini almashtirib turganida shu to'qay tomondan bir gala kiyik chiqib do'ngga qarab asta keta boshladi. Shamsi avvaliga angrayib turib qoldi-yu, keyin shoshib egarga mindi. O'qdek uchib kiyiklar ketidan ketdi. Kiyik qochsa hech tutqich bermaydi. Mana, hozir ham ular goh so'qmoqni kesib o'tib, goh shudgorni changitib yugurishardi. Shamsi ularni to katta do'nggacha quvdi-yu, shu yerga kelganda izni yo'qotdi. Angrayib u yoq-bu yoqqa qarab turganida kattakon bir it yugurib kelaverdi. Shamsining o'takasi yorilgudek bo'lib, qo'rqib ketdi. Qani endi motor o'lgur o't ola qolsa. Shoshganda shunaqa bo'ladi. It yaqinlashib qoldi. Shu payt past tomondan ayol kishining ovozi keldi:

- Arstan! Arstan!..

Shamsi u yoq-bu yoqqa qaradi. It to'xtab dumini likillatganicha hurib turaverdi.

Pastdan qizil ro'mol o'ragan qiz oqsoqlanib chiqib kelardi. Uni ko'rib Shamsi bir qadam oldinga bosdi.

- Qo'rqa, qo'rqa, jigit,- dedi qiz Shamsining esankirab qolganini ko'rib.

Shamsi xijolatlikda yutib qo'ydi.

- Kiyikdi, sen quvdingba?

Shamsining tiliga gap kelmasdi. U qiziq ahvolda qoldi. Hali itdan qo'rqqani tarqamay turib oldidan xayolga ham kelmagan chiroyli bir qiz chiqib, uni esankiratib qo'ygan edi.

Shamsi shu kichkinagina umrida ko'p qizlarni ko'rgan. Dunyodagi jamiki qizlarni ko'rgan, gaplashgan desa bo'ladi. Varshavadagi Jahon yoshlari festivaliga qatnashganda hammasini ko'rgan. Nazarida hozir ularning bari shu qizil ro'mol o'ragan qozoq qizining oldidan aylanib o'taversin. Chindan ham u munaqasini ko'rmagan. Birpasda yuragining allaqaeri jiz etib ketdi. Ammo Shamsi ham uncha-muncha yigitga husnini qarz ber-sa arzigulik xushro'y o'spirinlardan edi.

- Jigit, seni mog'an qudayim jetkezdi,- dedi qiz,- tasdan jig'ilib tusdim. Ovulga jetkezb qo'ymeysenbe?

Shamsi boya itdan qo'rqqani uchun qizning oqsoqlanayotganini bilmay qolgan ekan.

U dadil yurib unga yaqinlashayotgan edi, it hurib tashlanib qoldi. Qiz uni haydab soldi.

- Nima bo'ldi?- Shamsi cho'kkalab qizning lat yegan oyog'ini ushladi.

- Qizg'aldoq teraman dep manov tasding usdiga shig'ib edim, aynalayim, ovulga jetkez.

- Xo'p, xo'p,- dedi Shamsi va mototsiklni yetaklab qizning oldiga keldi.

- Qaysi tomonga boramiz?

- Juraber, itting o'zi jo'l bastaydi.

Qiz mingashgandan keyin Arslon pildirab so'qmoqdan yugurib ketdi.

Hamma yoq lola. Xuddi qirlarga qizil baxmal yopib qo'ygandek. Shu sokin yaylovda motor tovushi-yu, shamolning guvillashidan boshqa narsa ularning qulog'iga kirmasdi. Qiz mototsiklga umrida mingashmagan ekan shekilli, Shamsining orqasiga shunday yopishib, quchoqlab oldiki, uning yurak urishi bemalol bilinib turardi. Qizning qo'li bo'lsa Shamsining ko'ksida. Balki u ham yigitning yurak urishini bilayotgandir.

Hozirgina yashnab turgan osmonni bulut o'radi-yu, shatir-shutir qilib yomg'ir quya boshladi. Biy dala, yashirinadigan joy qayoqda deysiz. Ularning ikkovi ham ivib shalabbo bo'lib ketishdi. Shamsi bir dam to'xtab kurtkasini yechib qizning boshiga yopib qo'ydi. Avvaliga qiz ko'nmagan edi, yigit qistayvergandan keyin, noiloj ko'ndi. Yana yo'lga tushishdi. Uzoqdan pichan g'aramlari ko'rina boshladi.

- O'si jerde to'xtat,- dedi qiz. Uning gapini shovqindan Shamsi eshitmadi. Ammo uning o'zi ham shu joyni mo'ljalga olib kelayotgan edi.

Bu g'aramlar xuddi cho'l o'rtasida bodrab chiqqan azamat qo'ziqoring'a o'xshab ketardi. G'aramlar tagiga kelgan qo'y-qo'zilar atrofidan yeyaverib past tomonini ingichka qilib qo'yishgan. Bu xuddi shahar parklaridagi morojenoe budkalariga ham o'xshab ketardi. Qiz bilan yigit shu pichan soyabon tagiga suqilishdi. Jala quygandan quyib yotibdi. Yomg'ir iplari shamolda cho'zilil ba'zan ularning ham yuz-ko'zini savalab o'tib ketardi. Shamsi yurak yutib gap boshladi.

- Kimlingingizni bilib qo'ysam, maylimi? Mening otim Shamsi, brigadamiz manavi yoqqa paxta ekyapti.

Qiz kuldi. Unga boshdan-oyoq bir qarab oldi-da, sekin javob berdi:

- Atim Suluv. Zootexnikmen. Qolqozding mal sharvasi o'si jaylovda.

Yana jimlik. Yomg'irning sharrosi, shamolning to'poloni, pichanning shitirlashi.

Qasir-qusur qilib bir-ikki marta momaqaldiroq gumburladi-yu, bulutni shamol surib ketdi.

Ho'l maysalar oftobda yaltiradi. Pichan tagida qip-qizil tilini osiltirib yotgan Arslonnint junlaridan hovur ko'tarildi. Shamsi bilan Suluv qiz ham tashqariga chiqishdi. Qizning ho'l bo'lib ketgan ko'ylaklari g'ijimlanib, badaniga yopishib ketgan. Shamsi uning kelishgan qomatiga bir zum mahliyo bo'lib, turib qoldi. Qiz uning bu qarashidan andisha qilib, ketamizmi, degandek qarab qo'ydi. Shamsi yo'lga qaradi. Yomg'ir ko'lobi hali so'qmoqlarda yaltirab turardi.

- Birpas sabr qilaylik. Shamol yo'lni yalab o'tsin. Oyog'ingiz qalay, hali ham og'riyaptimi?

Suluv bosh irg'ab "ha" ishorasini qildi. Shamsi shu topda uni, agar mototsikl yurmasa, qo'lda ko'tarib ketishga ham tayyor. Bu qiz uni tamoman sehrlab qo'ygandi. Mototsiklni yetaklab uni kuzatib qo'yishni ham o'ylab ko'rди, ammo qizning oyog'i bu xilda og'rib tursa, yetib olish qiyin. Shamsining mardligi tutib, uni egarga o'tqazdi-yu, ruldан ushlab yetakladi. Shu alpozda bir kilometrcha yo'l yurishdi. Shamol yerni yalab anchagina quritib qo'yibdi. Oxirgi g'aramdan keyin Shamsi ham egarga mindi. Yaylovga yaqin qolgan ekan, uzoqdan bir necha o'tov ko'rindi.

Arslon oldinda yelib boradi, har zamon tilini osiltirib orqasiga qarab yana jadallab yuguradi. Shamsi yo'lda yomg'ir ko'lobi tez-tez uchrab turganidan mototsiklni unchalik tez haydamasdi. Arslon ulardan oldinlab ketib g'uj o'tovlar orasiga kirib ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Yaylov deganda Shamsining ko'ziga daraxtsiz, suvsiz o'tloq ko'rinardi. Bu yaylov u o'ylagan o'tloqqa o'xshamasdi. O'tovlar tepasida televizor antennalari ko'rinib turibdi. Avtolavka oldida moy idish ko'targan, buxanka non qo'ltiqlagan xotinlar ko'rinadi. O'tov oldiga sholcha yozib o'tirgan qariyalar radio tinglashadi. Manqallardan tutun burqsib turibdi. Pastlikda "P" harfiga o'xshagan tirgovichda arg'imchoq.

Shamsi oq kigiz o'tov oldida motorni o'chirdi.

- Jetdik,- dedi Suluv egardan tusharkan. Narigi o'tovdan bir kampir chiqdi. U Suluvning oqsoqlanayotganini ko'rib:

- Ne bo'ldi, shirag'im?- deb so'radi.

Suluv, hech gap emas degandek, qo'l siltab qo'ydi.

- Atang ovulga ketdi. Tamaq jeseng qazanda.

Shamsi ketmoqchi bo'lib turgan edi, Suluv qo'yarda-qo'y may o'tovga olib kirdi. O'tovning ichi ozoda. To'rda televizor, radio. Suluv oqsoqlana-oqsoqlana ko'rpacha to'shadi, dasturxon yozdi.

- Al, ashiqdingov, olag'o'y, Semsі.

Birpasda o'tov ichi yigit-yalangga, qizlarga to'lib ketdi. Allapallagacha gurunglashib o'tirishdi. Keyin ko'pchilik bo'lib uni so'qmoqqacha kuzatib qo'yishdi. Shamsi odamlar oldida ko'ngliga tugilgan gaplarni Suluvga aytolmay armonda yo'lga qaytdi. Mana shu voqeadan keyin Shamsining ikki ko'zi katta do'ng tarafda bo'lib qoldi. yigitlarning ko'zini shamg'alat qilib o'sha tomonga g'oyib bo'ladigan qiliq chiqardi.

Bundan bir haftacha burun u Suluv bilan ochiqchasiga gaplashdi. Qiz uning dardini obdan eshitib indamay qo'ya qoldi. O'sha kuni yaylov etagidagi yalanglikda katta davra bo'lib yigit-qizlar o'lan aytib, aytishuv qilib o'tirishganda Shamsi borib qoldi. Yosh-yalang Shamsini tanib qolganidan uni ham davraga tortishdi. Shunda Suluv Shamsining oldiga bir choynak choy bilan piyola qo'yib ketdi. Bu qozoq odati bo'yicha, sen bilan aytishaman, seni sevaman degani bo'ladi. Shamsi ko'p joylarni ko'rgan, ko'p ishlarni qilgan bo'lsa ham, bayt aytishga yo'qroq edi. Nima qilishini bilmay birpas olazarak bo'lib turib, keyin qiziqchilikka olib bir gap aytibdi.

- Men aytisuvni bilmayman, avval sizlarga pochcha bo'lib olay, keyin Suluv bilan qanaqa aytishganimni ko'rasizlar.

- Jo'q, jo'q, aytisuvga tusesen,- deb turib olishibdi yigitlar.

- Bo'lmasa, bitta o'zbekcha qo'shiq aytib bera qolay, maylimi?

- Mayli, aytag'o'y, Semsі,- deb oxiri rozi bo'lishibdi.

Shamsi o'rnidan turib do'ppisini ikki buklab "Bog' aro"ni shunaqayam baland avjdan aytibdiki, hammasi qoyil qolishibdi. Ana shundan keyin "Olti baqan" - arg'imchoq aytisuviga tortishibdi. Shamsi bilan Suluvni arg'imchoqqa chiqazib o'zlari atrofga tizilib olishibdi. Odamlarning shovqini orasida ularga bildirmay Suluv Shamsiga aytisuvning baytlarini o'rgatib turibdi. Shamsi undan eshitganlarini qattiq-qattiq aytib hammani qoyil qoldiribdi. O'tov oldida ularga qarab angrayib turgan kampirlar havaslari kelib:

- Ay-hay, shirkin jiirmabes, qaydasing?! (Voy-voy, kechgan yigirma besh yoshim qaydasan?!) - deb kulib qo'yishardi.

Shu-shu bo'ldi-yu, Shamsi ovulga pashshaxo'rda bo'ldi qo'ydi. Avvallari kechalari kelganda ovul itlari uni oldilariga solib quvlab qolishardi. Bora-bora ular ham Shamsiga o'rganib qolishdi. Suluvga ko'zi kuyib yurgan yigitlar bir-ikki marta Shamsining yo'lini poylashdi ham. Shamsiga teng kelib bo'larmidi, ularga so'z bermadi, oxiri ular Suluvning qo'ldan ketganiga tan berib, indamay qolishdi. Shamsining brigadasi yer haydab chigit qadashga tushib ketib, bir-ikki kun ovulga kelolmay qoldi. Shunda ovul qizlari Suluvdan: Semsі kelgan jo'qmi, deb so'rashardi. Suluv bo'lsa Arslonni ergashtirib katta do'ngga kelar, uzoqdan kelayotgan traktor shovqiniga quloq solib, uni kutib o'tirardi. Olisdan tun qorong'isini teshib yakka chiroq ko'rinsa, u albatta "Semsі kelib jatir" deb sevinardi.

Ikki respublika o'rtasida borib-kelaverib Shamsi ozib, cho'p bo'lib ketdi. Kuni bilan traktor haydaydi, chigit qadaydi, kechqurun, og'aynilari dam olayotganda u cho'l kezib Suluvining oldiga ketadi. Qoq yarim kechada, hamma uxlaganda, qaytib keladi-da, yana el qatori vaqtli turib ishga chiqadi.

Suluv ham undan battar edi. Uning bir o'zbek yigitiga aylanishib qolganini, kechalari u bilan uchrashganini katta do'ngga ketib sahar paytida qaytib kelishini otasi payqab yurardi. U nabirasining bu ahvoliga achinib, gapga solib ko'rgan edi, qiz ochiq-yorug' bir gap aytmadi. Oxiri otga minib o'sha "maqta ekib jatqan o'zbeklar bilan so'yilasib" qo'ygani ketdi. Bordi-yu, bir suhbatdayoq bo'lmish kuyovning, qudasining kimligini bilib qaytdi. Beixtiyor: "sizdi attab qayg'a boramiz, bir jerding o'tini o'ttab, suvini suvdab juribmiz, avuldi uzaytirib qaytamiz, avliyo attag'an o'ngbas, degang'o'y", deb yuborganini bilmay qolgandi. Bo'lmish qudaning oldidan qaytib cho'pon ratsiyasi bilan Olmaotaga - qizi Oqmorolga: Suluv kuyovga chiqayapti, tez kel, deb xabar yetkazdi.

Besimboy otaning gapi to'g'ri edi. Bu yerning qozoqlari ham, o'zbeklari ham bir daryoning suvini ichishadi, bir yaylovga chorva haydashadi. Farhod chirog'i har ikkovining ham uyida yonadi. Bular bir-biri bilan allaqachonlaroq chatishib ketgan edi. Ular o'rtasidagi do'stlik, qarindoshlik allaqachonlar chegaradan hatlab o'tib ketgan edi.

Bu cho'llarda ko'pdan buyon qozoqning o'lani, o'zbekning katta ashulasi yangrardi. Endi gal: "yor-yor"ga, "aytisuv"ga...

Bu kunlarni hammadan burun Suluv bilan Shamsi orziqib kutishardi.

Bugun Salim ota to'rt kishi bo'lib qizning boshini boylagani do'ng oshib yaylovga otlandi. U egar qoshiga tuguncha qo'yib shirin

xayollar bilan ketyapti. Tugunda kelinga bozorliq - sovg'a, qudasiga "Samarxanda jumurlang'an unidi shay (hind choyi)" olib boryapti.

Kelin taraf nima sovg'a tayyorlayotganikin. Qozoqlar uch million olti yuz oltmish ming gektar yerni sep qilib qiz uzatayotganidan chol hali bexabar edi.

Katta do'ng oldida o'n choqli otliq qudalarni kutib turardi.

Shamsi bilan Suluv bo'lsa qo'ziqoringa o'xshagan g'aram tagida bir-birlariga tikilib, bir-birlarini yalab-yulqab, bir-birlariga silab-siypashib o'tirishardi.

Bunisi Suluvim desa, unisi Semsim, deb to'ymasdi.

Chevara

Bilaman, daraxtday qulasam agar Mening hayot bog'im qolmas huvillabZulfiya

Chevarasining surati kelgandan beri kampir oromini yo'qotdi. Toshkentga qarab talpinib qoldi. Avji mevalari g'arq pishib turganda kampir shaharda nima qiladi, deb qo'ni-qo'shnilar hayron bo'lishdi.

Tap-tap yerga to'kilib yotgan shaftolilar ham, sal xoli qo'ysa chumchuq talab tashlaydigan nor buvakilar ham shundoqqina qoldi.

Kampir eshikka qulf urib yo'lga chiqdi.

U poezdda ham mijja qoqmasdi. Chevarasining suratiga qarab goh xo'rsinadi, goh iljayadi. Suratni ko'zlariga surtadi. Yo'lovchilar hayron. Bir nima deyishga botinisholmaydi. Kampir suratdan ko'z olib, derazadan lip-lip o'tayotgan bog'larga, cho'llarga ma'yus boqadi. Ko'zlaridan shashqator yosh oqadi. Oxiri yo'lovchilardan biri chidayolmadi. Jur'atsizlik bilan so'radi:

- Aya, nega unaqa qilasiz? Tinchlikmi?

Kampir javob bermadi. Poezdga ergashib goh o'zib, goh ortda qolib uchayotgan o'yinqaroq qaldirg'ochning pildirlashiga qarab qoldi. Oxiri og'ir xo'rsinib gap so'ragan kishiga qaradi.

- E, bolam, dostonim uzoq. Nima qilasan kitobimni varaqlab, bir benavo odamman, dardimni qo'zg'ama!

Yo'lovchilarning biri choy tutdi, biri qovun so'yib oldiga kosa qilib qo'ydi. Xullas, uni gapga solishdi.

- Yetti bola tuqqanman. Hammasini tuproqqa berib birgina qizim bilan sho'ppayib qolganman. Men ko'rgan kunni it ham ko'rmasin, bolalarim. Xotin boshim bilan Poytuq istansasida hammollik qilganman. Odam o'ldirganman. Xotin kishi bo'la turib, azbaroyi tirikchilik ekan, konibodomlik zo'r polvon bilan kurash tushganman. Yiqilganman.

Yo'lovchilarning aqli shoshib qoldi. Bu qanaqa xotin o'zi? Odam o'ldirgan, erkak bilan kurash tushgan?

Parovoz kichikroq bir raz'ezdda anchagina turib qolgandan keyin yana shitob bilan oldinga intildi. Hammaning qulog'i kampirning og'zida. Kampir choydan bir ho'pladi. Stakandagi choyni chayqalishiga ma'yus tikilib hikoyasini boshladi.

- Chuvamada bizni yetti qizlar deyishardi. Onam olti qiz tug'ib o'g'il dardida sig'inib bormagan joyi qolmagan. Shohimardondagi Chakkatomarning suvini ham ichgan, Arslonbopdan hassa Muso olib kelib butun qishloqqa ulashgan. Toshkentga kelib Mo'yi muborakni ziyorat qilib, Tojixon eshonga qo'l bergan. Shuncha sig'inishlar zoe ketib men tug'ilgan ekanman. Onam bechora baribir o'g'ildan ko'ngil uzolmay otimni niyat qilib O'g'ilxon qo'yg'an ekan. Esimda bor, to kuyovga chiqqunimcha ham boshimda telpak, belimda qiyiq, oyog'imda etik edi. O'g'il bolalar bilan o'ynardim. O'rtoqlarim nuqul o'g'il bolalar edi. Mahallaning kazo-kazolari, bas, qi-zing bo'yga yetdi, yuzini bekit, deganlarida ham otam rahmatlik, yuraversin, uni o'g'lim deganman, deb yuzimni bekitmagan.

Kuyovga chiqib, olti o'g'il, bir qiz ko'rdim. Ota-onam ko'rmagan baxtga yetdim, deb o'ylagandim. Yo'q, nasib qilmagan ekan...

Erim sartaroshlik qilardi. Kichkinagina do'konchadan tushgani bilan ro'zg'orni amal-taqal qilib turardik. Yetti bolani bir amallab boqayotganimizga er-xotin xudoga ming marta shukur qilardik.

Kichkinam o'shanda qo'limda edi. Erim kuni bilan tikka oyoqda ishlab kelib shu kenjatoyimni o'ynatib ovunardi. Shu kichkinagina baxtimizni ham xudo ko'p ko'rdi. Erimni mardikorga olishdi. Yig'lab-yig'lab istansada orqasidan qarab qoldim. Tirikchilik ekan, erimning do'konini o'zim ochdim. Bolani bir chekkaga yotqizib qo'yib, ustachilik qila boshladim. Azaldan yuzim ochiq bo'lganidan hech kim hayron bo'lmadi. Bola-chaqalik bo'lganimdan keyin ham dala-toshda ochiq yuraverdim. Ishim tig'iz paytlarda erkaklar qatori samovarda bitta choy chaqirib ichib ketaverardim. Sal kunda qo'lim kelishib qoldi. Bilmadim, yuzi ochiq xotinning sartaroshlik qi-lishi g'alati ko'ringanidanmi, yo ayol kishining qo'li tegishiga ishqibozlik qilibmi, har qalay boshqa ustalardan ko'ra menga odam ko'proq kelardi. Mijozlarimdan bittasi bir gap aytib qoldi. Ellikboshi o'zining o'g'li o'rniga mening erimni jo'natgan ekan noinsof. Bu gapdan keyin sira chidamadim. Necha bor yo'lini poyla-dim. Yo'liqmasdi. Bir kuni Andijondan hokim to'raning o'zi Chuvamaga kelarmish, degan gap tarqaldi. Qo'chalarga suv sepildi. Samovarlarga odam sig'may ketdi.

Ellikboshi allaqaysi go'rda ekan, ot choptirib kelib qoldi. Uning soch-soqoli o'sib ketgan, otdan tushiboq do'konimga o'zini urdi.

- Qani, bo'l, soch-soqolni tarashlab qo'y!

Bo'yniga lungi bog'lab yuziga sovun surdim, ustarani qayishga ishqab turganimda ikki yelkamga shayton minib yo'ldan urdi.

Kallamga kelgan o'ydan qo'rqib ketdim. Qaltiradim. Ellikboshi pishqirib baqirdi:

- Muncha imillaysan. Bo'l tez!

U, kursi suyanchig'iga boshini qo'yib, shipga qarab o'tiribdi. Ko'zimga ha deb, bo'rtib chiqib turgan kekirtagi ko'rinaverdi. Undan ko'zimni olib qochaman deymen, eplayolmayman. Iyagini chap qo'lim bilan yuqoriga ko'tarib turib, shartta kekirtagiga ustarani botirganimni bilaman. Ellikboshi xirilladi. To'g'rida turgan oynaga qon otilib sachradi. Navbat kutib turganlar gur etib ko'chaga qochishdi. Ellikboshi o'rnidan turib ketdi, xirillab-xirillab ostonaga yetganda yiqildi.

Kampirning yuzlari bujmayib ketdi. Nursiz ko'zlari bir dam yalt etdi-yu, yana boyagicha xiralashib qoldi.

- Shu to'polonning ustiga qo'sh otli izvoshda hokim to'ra kelib qoldi. Mirshablarni qo'l-oyog'imni bog'lab avaxtaga olib ketishdi.

Poytuqda sud qilib kesib yuborishdi. Sibirga qarab ketyapman, ko'zimga bolalarim ko'rinadi.

Kampir derazadan tashqariga qaradi.

- O'shandan beri endi poezdga tushishim. Mana shu yerlardan o'tgandim. Qarang, boshqacha bo'lib ketibdi. Dashti-biyobon edi o'shanda. Qamoqqa tushganimga bir yildan oshganda sud qilishgan edi. Inqilob bo'lganini poezdda eshitgandik. Poezd Toshkentga bir hafta turib qolgandi. Oq poshsho taxtdan tushib, uzoq-yaqinda to's-to'polon bo'layotgan ekan. Rabochiyalar hamma vagonlarning eshigini ochib yuborishdi. To'rt kishi bo'lib o'n sakkiz kun deganda goh aravada, goh piyoda yurib Poytuqqa yetib kelganmiz.

Kelsam uyim kul tepa bo'lib yotibdi. Bolalarim har tarafga tarqab ketishibdi. Dunyo ko'zimga qorong'i bo'lib ketdi. U yoqqa yugurdim, bu yoqqa yugurdim, to'rttasini topib keldim, uch bolam o'lib ketgan ekan. Yig'ladim-siqtadim. Qandoq qilaman, odam

bolasi har baloga ko'naverar ekan. Qolganlarining umrini bersin, deb shukur qildim. O'zim loy qorib bir kulbani tikladim. Do'kon ochsam, qo'rqib hech kim soqol oldirgani kelmadi. Do'konni yopib Poytuqqa qatnab hammollik qildim. Ish bo'lmagan kunlarda to'nka kavlab o'tin qilib sotdim. O'sha kezlari qishloqda har kun bosqin. Ellikboshining kuyovi bosmachiga chiqib ketgan ekan, mening payimga tushib qoldi. Kechalari mijja qoqmay tiq etsa eshikka qarab yotaman. Bir kuni qizimni yonimga olib, Poytuqqa tushib ketgan edim; kelayotib Chuvamani bosmachi bosdi, deb eshitib qoldim. Qizimni yetaklaganimcha halloslab yugurdim. Uzoqdan, daraxtlar orasida tutun burqsiyapti. Qo'rqib ketdim. Kelsam uyim yonyapti. Jinniga o'xshab qopman. O'zimni hovliga urdim. Katta o'g'lim ayvonda, o'rtancham ariq bo'yida qonga belanib yotibdi. Turgan joyimda qotib qolibman. Kenjam tutga chiqib olgan ekan, yig'lashini ham bilmaydi, gapirishini ham. Faqat iyagi qimirlaydi, xolos.

Kampirning ko'zidan yosh dumalayverdi, dumalayverdi. Hammaning dili vayron bo'lib ketdi. Uni yupatishga hech kim so'z topolmasdi. Uning dardini yengillatadigan so'zni inson bolasi hali yarata olgani yo'q. Hech kimdan sado chiqmasdi. Faqat vagonning bir maqomda tebrinishidan chiqayotgan taraqqat hokim edi. Bu o'ng'aysiz holdan yana kampirning o'zi qutqardi. U boshidan o'tgan mudhish kunlarni eslayverib ko'nikib ketganidan bo'lsa kerak, ortiqcha hayajonlanmay hikoyasini davom ettirdi. - Sabr qilmay ilojim qancha. Chidadim. Qolganlarining umrini bersin deb yana yashab ketdim. Ikki bolam katta bo'lib bo'yga yetib qolishdi. Tirikchilik boshqacha bo'lib ketdi... To'rt yil selKjsovetga, uch yil kolxozga raislik qildim. Qizimni kuyovga berdim. Nevara ko'rdim. O'g'lim ham kap-katta yigit bo'lib qolgan edi. Yurt qatori urushga jo'natdim.

Kampir entikdi. Stakandan choy ho'pladi. Qo'li titrayotganidan darrov ho'playolmadi. Ko'zidan oqqan yosh choyga tomidi. Quyuq jigjar rang choy yuzida uning tiniq ko'z yoshi bir doira yasadi-da, keyin aralashib ketdi.

- Kelmadi. Kenjaginam kelmadi. Tuprog'ini ko'zlarimga surolmay qoldim. Shuncha bola tug'ib, qum qisimlagandek quruq qo'l bilan qolaverdim.

Zabunlikda qoldim, telbaman, telbaman, bolalarim. Gohida gapdan adashib ketaman. Tushlarimda o'rnimdan turib ketib ko'chaga chiqqanda uyg'onib qolib qo'rqib ketaman. Nevaram kuyovga chiqqanida notob edim, to'yiga borolmadim. O'g'il ko'rdi ham, borganim yo'q. Mana suratini yubordi. Shu suratni ko'rdimu, oromim yo'qoldi. Eski yaralarimning ko'zi ochilib ketdi. Yana telbalikka tushib qoldim.

Kampir suratni qo'lga olib tikilib qoldi.

- Xuddi o'zi, Kenjaginamning o'zi. Bir tuki o'zgasmas... Surat qo'ldan-qo'lga o'tdi. Unda uch yoshlardagi jingalaksoch, burni yalpoqroq bola o'yinchoq ot minib turardi.

- Shu suratni ko'rdimu, nazarimda Kenjaginam urushda o'lmay shu atroflarda yurganga o'xshay berdi. Hozir chevara ko'rgani emas, urushda yo'q bo'lgan bolamni ko'rgani ketayotganga o'xshayman. Keldik, shekilli. Bu qaysi istansa?

Kampir derazadan tashqariga qaradi. Poezd halloslab Toshkentga kirib kelayotgan edi.

Poezd xotinni Toshkentda qoldirib yana pishqirganicha oldinga intildi. Yo'lovchilar derazadan bosh chiqarib bu ajoyib kampirga ehtirom bilan qo'l silkib o'tib ketishdi. Ularning har biri o'tda kuymas, suvda cho'kmas xotinning qon va shon bilan yozilgan daftarini varaqlab ketishardi.

Sokin, osoyishta oqayotgan daryolarga sho'ng'igan kishi uning tubida to'fonlar borligini, qudratli oqim toshlarni qulatayotganini biladi. Qolgan umrini pisandasiz, shovqinsiz o'tkazayotgan bu azamat xotinning qalbiga quloq solgan kishi ham suronli yillarning bo'ronlarini eshitadi.

Ovqat vaqtida ham kampir boladan bo'shamadi. Ikki ko'zi unda. O'zi ovqat yedirib o'zi yuvintiradi. Bola ham darrov unga elakisha qoldi. Bolalar shunaqa bo'ladi: yaxshi gapirganga yopishadi. Kechasi bola buvisi bilan yotdi. Kampir uxlamadi. Yostiqqa tirsagini qo'yib, unga tikilganicha tong ottirdi.

Uyqusiz bu kechada uning ko'nglidan ne gaplar o'tdi ekan? Kim biladi, u tuproqqa bergan olti bolasining go'daklik yillarini eslagandir. Ularning beshigi tepasida tong ottirgan uyqusiz tunlarini ko'rgandir. Keksa qalbdan nimalar borligini o'zgalari ne bilsin! Ne bo'lsa bo'ldi. O'tganlar o'tib ketdi. Ular qachonlardir boshqa odam bo'lib, qayta bosh ko'tarsalar ajab emas! Bugun kampir yo'qotgan Kenjavoyi qayta tirilganini ko'rib turibdi. Demak, bu munis xotin dunyoda mevasiz daraxtdek yashagani yo'q. Shu murg'ak bola uning ham o'g'li, ham nevarasi, ham chevarasi.

Kampir bolaga tikiladi. Ko'zlarida nimadir yiltiraydi. Bu alamli ko'z yoshimikin? O'limlarga so'z bermagan, bo'ronlarda bukilmagan kekse ona qalbidan toshib chiqayotgan shaffof yolqinmikin?! Yo nuri o'cha boshlagan ko'zlariga ko'chgan bola istiqbolining yorqin shu'lasimikin?!

Tong ota boshlagan subhisodiqda kampir chevarasining jingalak sochlariga termilib nimalarnidir pichirlaydi.

Yaqinroq kel, o'quvchim! Uning lablariga qulog'ingnn tut!

Tabarruk onaning duosini olib qol!

Yo'lda

Yonboshiga "prokat" deb yozilgan pachaqqina "Moskvich" g'uborsiz tong havosini yorib oldinga intiladi. Kozimjon bu mashinani olganiga uch kun bo'ldi. U xotiniga ko'pdan beri, tog' yo'llarini bir ko'rsataman, deb va'da qilib, sira fursat topolmay yurardi.

Uning o'z tili bilan aytganda: "Bizning xotin bir narsaga yopishdimi, bo'ldi, pona bilan ajratib, ombur bilan tortib olinadi".

Darhaqiqat, Xosiyatxon shunaqa bir so'zli ayol. Kozimjon shu besh yillik turmushlarida hali uning bir gapini ikki qilmagan.

Qilolmaydi ham. To maktabning ikkinchi sinfigacha onasi opichlab borgan erka qizning talablarini rad qilishga Kozimjondek yuvosh odam o'zlik qilardi. Mana, Xosiyatxon Kozimjonning yonida husni bir jahon bo'lib o'tiribdi. Uning chinakamiga ko'z-ko'z qilsa arzigulik husni bor edi. U mashinani, modani, atoqli ayollar davrasiga kirishni jon-dili bilan yaxshi ko'rardi. U Kozimjonga tegarkan, uning istiqbolida katta obro', yengil mashina, dang'illama imorat ko'rardi. Afsus, unaqa bo'lmadi. Kozimjon jo'ngina injener chiqdi. Teatrda ham el qatori o'rtaroqda o'tirardi. Mashina qayoqda, shu bilan ikkinchi marta prokatga mashina olishi.

Mana o'zi rulda o'tirib, Xosiyatxonni tog' yo'llarini aylantirishga olib ketyapti.

Shahar chiroqlari birin-ketin o'chib, tong otdi. Bu payt ular ancha joyga borib qolishgan edi.

Tog' yo'li boshlandi. Pastak adirlar oralab ketgan kaftdek yo'l ilon izi bo'lib malla rang qirlar orasida yo'qolib ketardi. Tuman orasiga o'ralgan cho'qqining uchi qilich damidek yarqirab ketdi-yu, bir dam kimxob parchasidek bulut yalt-yalt yonib ko'zni qamashtirdi. Tog' orqasida quyosh bosh ko'targan edi. Ana endi, tog' yo'lining eng gashtli payti boshlanadi.

Mashina anchagina uringan, ko'p "shafqatsiz" qo'llardan o'tgani sababli yo'l-yo'lakay ko'ksovga o'xshab yo'talib borardi. Mana hozir ham yonbag'irga yetmay suvi samovardek qaynab ketdi. Kozimjon bir juft azim yong'oq tagiga kelganda to'xtatib, qaynoq

suvni to'kib, chelakni ko'targanicha soyga tushib ketdi.

Kozimjon bir juft azim yong'oq tagiga kelganda to'xtatib, qaynoq

suvni to'kib, chelakni ko'targanicha soyga tushib ketdi.

U radiatorga suv quyayotganda ham, mashinaning u yoq-bu yog'ini aylanib, g'ildirak rezinalarini tepib ko'rayotganda ham Xosiyatxon mashinadan tushmadi.

- Pastga tushib bu yoqlarni tomosha qilsangiz-chi. Qarang, soyga qarang. Toshga urilib, biram g'alati to'zon otyaptiki.

Xosiyatxon mashinani judayam sog'ingan ekan, tushmadi. Pista chaqib o'tiraverdi.

Yo'l shu joydan boshlab tik qiyalab toqqa ko'tariladi. Yong'oqning narigi tomoniga "VoditelKj, tormozlaringni tekshir!" deb yozib qo'yilgan. Taxminan besh kilometrcha masofaga mashina tinimsiz ko'tarilishi kerak. Bu qiyaga uncha-muncha havaskor shofyorning yuragi dov bermasdi. Kozimjonning ham yuragi po'killab turibdi. Agar Xosiyatxon shoshirmaganda u motorni jindak sovutib olmoqchi edi. Bo'lmadi.

- Buncha imillaysiz, yura qolsangizsiz-chi. Cho'qqiga chiqib dam ola qolarsiz.

Kozimjon endi kabinaga kirgan edi, tog' tomondan o'rta yoshlardagi bir qishi ko'rindi. Uning egnida kombinezon, qo'lida tuguncha. U Kozimjonga qarab qo'l silkidi. Kozimjon endigina motorni o't oldirgan edi, yana o'chirdi.

- Haydang!- dedi Hosiyahton.

- Shoshmang, anavi kishining ishi borga o'xshaydi.

- Ishi nima bo'lardi. Olib ket, deydi-da. Haydang, haydang!

Kozimjon beixtiyor mashinani yurgizib yubordi, qayrilishga kelganda o'sha tomonga bir nazar tashlagan edi, boyagi kishi yo'l o'rtasida unga qarab turardi. Kozimjonning ichi ezilib ketdi. Bechora, endi nima qiladi...

- Ha, muncha qovoq-dimog'ingiz osilib qoldi.

- Haligi odam...

Kozimjon gap topolmay qo'l siltadi. U shitob bilan mashinaga gaz berdi. Motor xunuk bir gurillab tepalikka tarmashdi.

Aylanma yo'llar boshlandi. Er-xotindan sado chiqmasdi. Bir tomon bulutga sanchilgan cho'qqi, bir tomon toshqin tog' darasi.

O'ngga sal jilsang, pastga qulaysan, chapga sal jilsang, yo toshga urilasan, yo qarshidan kelayotgan mashinaga urilasan. Oxiri ular suv almashtirish uchun maxsus tayyorlangan yalanglikka yetib to'xtashdi. Bu yerda ulardan boshqa yetti choqli mashina turardi. Hammasi suv olishyapti. Kopotni ochib shamollatishyapti. Kozimjon ham ular orasiga suqildi.

Bu joydan pastliklar juda g'alati ko'rinar edi. Kozimjon, o'zimizda shunaqa xushmanzara joylar bor ekan-ku, odamlar qayoqlarga borib yurishadi-ya, deb dilidan o'tkazib qo'ydi.

Darhaqiqat, yonbag'irlar beqiyos chiroyli edi. Pastliklarda g'uj-g'uj pista daraxtlari, azamat toshlar orasida sinkaga solingandek ko'k suv goh ko'rinadi, goh ko'rinmaydi. Soyning narigi tomonida yalang'och tog'lar yuksala-yuksala vodiy yo'lini to'sib yotibdi. Uning qizil cho'qqilariga oftob tushib turibdi. O'ngirlarda saratondan yashirib qolgan qor uyumlari ko'rinadi.

Kallaqantdek cho'qqiga ko'tariladigan aylanma yo'lga bosh ko'tarib qaragan kishi bir-birining ustiga mingashib yuksalgan yo'lni ko'radi, mashina to cho'qqiga ko'tarilguncha shu yo'ldan to'rt marta o'tishi kerak. Kozimjon yuqoridan tushayotgan mashinaga qaradi, u to tushib kelguncha to'rt aylandi-da, to'dalashib turgan mashinalar oldida to'xtadi.

- Cho'qqi orqasidagi yo'lga xarsang qulagan, o'tolmaysizlar. Ekskavatorchiga telefon qilishdi, kelsa yo'lni ochib beradi.

Xosiyatxon hafsalasi pir bo'lib kabinadan tushdi. U yoq-bu yoqqa alanglab tomosha qila boshladi. Xarsangga o'tirib olgan bir shofyor yigit atrofni o'rab olganlarga yo'lni tushuntirardi.

- Ikki yil shu yo'l qurilishida ishlaganman. Ishning zo'rini ana shunda ko'rganman. Ko'p ustalar bor edi. Ekskavator, bulKjdozer deganlar qumursqadek to'lib ketgan. O'shanda odamlar tosh bilan, oftob bilan olishib ishlashgan. Siz manavi tayyor yo'ldan ketyapsiz. Eha, qurish oson bo'lmagan buni. Bir Rustamjon degani bor edi. Yo qudratingdan, tosh otishni o'shanga chiqargan edi. Badani oftobda xuddi misga o'xshab qizarib ketgan, o'ziyam miqti kelgan, tiqmachiq kishi edi, o'zidan katta toshlarni pastga uloqtirardi-ya.

Bir kun ko'chki tushib bulKjdozerni bosib qolibdi. Har toshlarki, odamning vahmi keladi. NachalKjnik kelib kim toshlarni olib tashlasa, besh norma yozaman, deb qoldi. Hech kimdan sado chiqmadi, Bir chetda papiros chekib o'tirgan Rustamjon o'rnidan turdi-da, piching qildi.

- Besh norma o'zingizga siylov, nachalKjnik. Odamlarni o'z ishiga yuboravering, Toshlarni o'zim olib tashlayman.

Lekin odamlar ketishmadi. Qani, bu maqtanchoqning ishini bir ko'raylik-chi, deb turib olishdi.

Rustamjon bilagini shimarib ishga tushib ketdi, Xarsanglarni bir u yoqqa otadi, bir bu yoqqa otadi, odamning vahmi keladi, deng. Badanidan seldek bo'lib ter oqib turibdi. U, har tosh ko'targanda bilagidagi, bo'yinlaridagi tomirlari barmoqdek-barmoqdek bo'lib shishib chiqadi. Tanasi bo'lsa oftobda yalt-yalt qiladi. U avval kabina tepasidagi toshlarni oladi. Keyin yon-verlarni tozalab bulKjdozerchiga qarab ko'z qisib qo'yadi,

- Qani, kel, akasi, sal orqaga tort, keyin buradigan tomoningdan yo'l ochib beraman.

BulKjdozerchi orqaga surgandan keyin boshqalar ham qarab turishmadi. Ko'plashib toshlarni pastga uloqtirib tashlashdi.

NachalKjnik ham mard kishi edi. Bilagidagi soatini shart chiqazib Rustamjonning bilagiga soldi. Yo'q, olmadi.

Yigit hikoyasini tugatishi bilan qoyadan tushgan shofyor luqma tashladi:

- Yo'lni ochgani hozir Rustam akaning o'zlar keladilar. O'sha kishiga telefon qilishdi-da.

Hamma jimib qoldi. Odamlarning ko'z oldiga toshlarni Farhoddek qulagan Rustamjonning pahlavon qiyofasi kelardi.

Kozimjonning ham, Xosiyatxonning ham ko'ngliga Rustamjonni ko'rish niyati tushib qoldi, Hammaning ko'zi yo'lda. Ammo Kozimjondan keyin pastdan hali bitta ham mashina chiqqani yo'q. Birov yonbag'irdan gul terгани, birov buloq suvidan ichgani tarqab ketdi. Faqat bir necha shofyor yigit o'rtaq termos qo'yib alyumin krujkada choy ermak qilib o'tirishardi. Kozimjon toshga o'tirib inson qo'li bilan qurilgan yo'lga qarab aqli lol bo'lib o'tirardi. Pastlikdan mashina ovozi keldi. Hamma yo'lga qaradi. Yuk mashinasi gurillab ko'tarilardi. Kuzovda kelayotgan Rustam akani dastavval boyagi shofyor yigit tanidi.

- Ana, kelyapti.

Kozimjon uni ko'r-di-yu, esankirab qoldi. Rustam aka, boya unga qo'l siltab ola ket, degan kishi edi. Mashina ularning oldidan bir necha minut ichida o'tib ketdi. Bu on Kozimjonning xayoliga nimalar kelmadi. Qani, shu asriy toshlar yorilib ketsa-yu, uni o'z bag'riga yashirsa. Kechalari ishqida kuyib yongan, erkalash uchun dunyodagi eng nozik, eng go'zal so'zlarni axtargan, hamisha ko'ziga olovdek yonib turadigan xotini Xosiyatxon endi sovuq, juda ham sovuq ko'rinib ketdi. Endi uni so'kish uchun eng haqoratli so'zlar ham ojizlik qilayotgandek edi. Agar shu Xosiyatxon uni majbur qilmaganda, albatta, Rustamjonni ola ketardi. Nahotki shu qiyin yo'lni qurgan odamni o'zi qurgan yo'ldan olib ketishga og'rinsa. Uning orqasidan qarab qolganda ko'nglidan nimalar kechdi ekan...

Oradan bir soatcha vaqt o'tib, yo'l ochildi. "O'taveringlar" degan xabar kelguncha, Kozimjondan sado chiqmadi. Xosiyatxon ham

uning ko'nglidagi gaplarni sezib turgan ekan, yupatishga urinardi.

- Qo'ying, diqqat bo'lmang, ozib-yozib bir safarga chiqqanimizda meni xunob qilmang. Nimasidan xijolat bo'lasiz. Yo'l qurilishida ishlagan bo'lsa, haqini olgan, tekinga ishlabdimi?

Kozimjon xotinini endi ko'rgandek bo'lib unga angrayib qarab turardi. Hamma ketdi. Ammo Kozimjon joyidan jilmasdi. Nazarida uning bu yo'ldan yurishga haqi yo'qdek edi.

Cho'qqilardan osilib turgan anvoyi bulutlar ham, pastda toshdan toshga sakrab oqayotgan ko'm-ko'k suv ham, maysalar betida titrayotgan shabnam ham, uning xayolini tortmasdi, uni ovutolmasdi.

Kozimjon hech narsa bo'lgani yo'q, deb o'zini aldaydi. Xo'p, shunday ham qilib ko'rsin. Ammo kechasi qanday uxlaydi?

Rustamjon tushiga kirmaydimi? Tog'-toshlarning qaldirashi uni qandoq uxlatadi, qandoq?

Poyqadam...

Voy qudamdan aylanay, ana kelishadi, mana kelishadi, deb ikki ko'zim ko'chada bo'ldi-ya, to'y qandoq o'tganiniyam bilmadim.

Voy bo'ylaringizga tasadduq. Xush kelibsizlar. Hoy, Nigoraxonni uyg'otdinglar. Dadalari bilan oyilari kelishdi.

Vahobjon bilan Manzurani quda ana shunday so'zlar bilan kutib oldi.

Quda yoshi ellikdan oshgan bo'lsa ham yuzidan pardoz arimagani jikkakkina xotin edi. Uning yuzlari xuddi sharbati siqib olingan anor po'stiga o'xshab ketardi. Qo'lidagi qo'sha-qo'sha uzuklar, bo'ynidagi har biri no'xatdek keladigan dur marjonlari, egnidagi yoshiga yarashmagan gulli krepdeshin ko'ylagi uni allaqanday bachkana qilib ko'rsatar edi.

Vahobjon atrofga nazar tashladi. Katta hovlining boshidan oyog'igacha qo'yilgan stollardan hali dasturxon yig'ilmagan, gullar orasida bo'shagan shishalar, so'rilarida to'yda xizmat qilib charchagan kishilar yechinmay yotib qolishgan, yero'choq oldida dasta-dasta yuvuqsiz laganlar yotardi. Hatto daraxt shoxlariga ilingan lampochkalar hali yoqug'lik turardi.

Quda aya so'rida yechinmay uxlab yotgan kishining oyog'idani silkiyib uyg'otdi.

- Turing, hoy turing, qudalaringiz kelishdi.

Qora soqol bir kishi yostiqtan bosh ko'tarib atrofga alangladi. U Vahobjonlarni ko'rib iya, iya, deb o'rmidan turarkan, ko'rpacha qatlarini titkilab nimanidir qidirardi.

- Hojar, tishimni ko'rmadingmi?

- Yo'g'-a, qayoqqa qo'ygandigiz? Avval qudalaringiz bilan ko'rishib oling, keyin qidirarsiz.

Chol ildam yurib Vahobjonlar bilan quyuq ko'rishdi. Yo'l boshlab uyga olib kirdi.

- Qani, qani, o'tirishsinlar, o'tirishsinlar, obbo quda-ey, ko'p kutdik. Juda ko'p kutdik. To'yga yetib kelolmadinglar-da. Hay mayli, sizlarga boshqa to'y qilib beramiz endi. Hoy, Hojar, dasturxon keltir, kelingni uyg'ot, o'g'lingni uyg'ot, qaynata, qaynanalari bilan tanishib qo'ysin.

Chol uzr aytib tavoze bilan yuvingani chiqib ketdi. Er-xotin uy jihozlariga mahliyo bo'lib indamay o'tirishardi.

Ular kirgan uy mehmonxona bo'lsa kerak, nihoyatda serhasham edi. To'rda pianino, burchakda kurant soat, devorda ham, yerda ham, divan ustida ham gilam. Shifta billurin qandil. Javonlarda xitoy chinnilari, televizor ustida har xil chinni o'yinchoqlar.

Derazalarga ham to'r, ham baxmal parda tutilgan.

Vahobjonning esi og'ib qoldi. Butun umrini mehnat bilan o'tkazgan, ro'zg'orini bir me'yorda olib borgan Vahobjonga bu hashamlar allanechuk ko'rinib ketdi. Er-xotindan sado chiqmasdi. Manzura kaftini iyagiga tiraganicha xayol surardi.

Nigora ularning bittagina bolasi. Vahobjon tug'ilib o'sgan qishlog'i Ganjiravonda o'ttiz yildan beri o'qituvchilik qiladi. Butun Ganjiravondagi kishilarning yarmidan ko'pini shu Vahobjon o'qitgan. U qizini Toshkentga o'qishga yuborayotganda ne-ne umidlar qilgan edi. O'qisa, institutni bitirib o'ziga o'xshab o'qituvchi bo'lsa, shu. Ganjiravonga kelib otasining ishini davom ettirsa. Kuyovi ham o'qituvchi bo'lsa. Muallimlik qanday yaxshi hunar. Qizi tushmagur nima qilib qo'ydi. Bir og'iz na otaning, na onaning roziligini olmay o'zboshimchalik qilib qo'yibdi. Kuyov nima ish qilsaykin? O'qiganmikin, yilmi bormikin? Biron hunarning boshini tutganmikin? O'zi axloqlikka bolamikin?

Ichkariga o'qdek otilib Nigora kirdi. U onasining bo'yniga osilib, u yuzidan, bu yuzidan cho'pillatib o'pa boshladi. Dadasining yelkasiga osilib erkalandi. Ko'pdan sog'intirgan bola ota-onaning yuragidagi gina-kudratni bir dam bo'lsa ham nari quvib yubordi.

Nigora baxtiyor edi. Uning egnida yashnab turgan nikoh liboslari o'ziga biram yarashibdiki.

Nigora chiroyli qiz edi. Ota-ona topganlarini shu qizga sarflashardi. Ayniqsa u bo'yga yetib, qomati to'lisha boshlagan paytlarda kiyinib ko'chaga chiqqanda Ganjiravon yigitlari esdan og'ib qolishardi. Uning qo'shiqlari, uning jarangdor kulgilari, bo'yi basti, keksa tollar soya tashlagan anhor bo'ylarida xayolchan kezishlari Ganjiravonga biram yarashardi, biram yarashardi, Qishloq yigitlari atayin tegajog'lik qilib uning oldidan "Men seni ko'rdim yana Ganjiravon ko'chasida", deb qo'shiq aytib o'tishardi. Nigora ham ularning hazillariga hazil bilan javob qaytarardi. Nigora tug'ilib o'sgan qishlog'ining shaydo yigitlarini hasratda qoldirib kimni topdiykin? Ona ana shu to'g'rida o'yarladi.

Kuyov kirdi. U nihoyatda chiroyli, qora qosh, gavadasi quyilgandek, qirra burun, jingalak soch yigit edi. Egnidagi tugmasi chala qadalgan yo'l-yo'l yashil pijamasi o'ziga juda yarashib tushgan edi. U odob bilan qayin otasiga, qayin onasiga salom berdi. Keyin ularni narigi uyga taklif qildi.

Vahobjon bilan Manzura beixtiyor o'rinlaridan turishdi. Ular bu zinadan tushib u zinaga ko'tarilishar ekan, Vahobjonda kuyovga allaqanday mehr uyg'ongandek bo'ldi. Ammo bu tuyg'u yasatilgan uyga kirishganda o'zi ham ma'nosiga tushunib yetmagan allaqanday hislar bilan aralashib ketgandek bo'ldi. Nigoraning uyi boyagi uy hashamidan o'n chandon afzal edi. Vahobjon oltmish yoshga kirgan bo'lsa, shu olis umr davomida ko'rish u yoqda tursin, xayoliga ham keltirmagan buyumlar bor edi bu uyda. Hatto derazalarning yuqoridagi ko'zlariga rangli shishalar solingan edi.

Nigoraning yuzida, ko'zida: erim yoqdimi, degan ma'no porlab turardi. Tashqarida qayin otaning zardali tovushi eshitilardi. Kuyov kulib derazadan hovliga qaradi.

- Kechirasizlar, boboyning yasama tishlari yo'qolib qolibdi, topolmay xunob bo'lyaptilar,- u Nigoraga yuzlandi,- ish bo'lmasa choy olib kelmaysizmi?

Nigora chiqib ketdi. Kuyov kecha to'yning juda yaxshi o'tganligi, araqning o'zidan yetmish shisha ketganini, mehmonlar kabobga to'yib qolib mantiga qaramaganlari, mast bo'lmagan odam qolmaganini gapirardi.

- Bizning boboy ham mast bo'lib qolganlaridan bilavering to'yning qanaqa bo'lganini. Axir u kishini uncha-munchaga mast qilib bo'lmaydi-ya.

Vahobjonga bu uydagi buyumlardan tortib odamlarigacha begona, kuyov bo'lsa ko'ziga allaqanday bachkana, yoqimsiz bo'lib

ko'rindi. Qani endi vaqt o'tmagan, to'y bo'lmagan bo'lganda u albatta qizining qo'lidan yetaklab chiqib ketardi. Na chora, bo'lar ish bo'lgan. Undan tashqari o'z yo'lini o'zi topadigan yoshga yetgan qizining taqdiriga u qanday qilib hokimlik qila oladi.

Ikki shisha konKjyak ko'tarib quda kirdi. Uning egnida yangi to'n, boshida to'rt karjli surma rang do'ppi.

- Endi, quda aybga buyurmaysiz-da, bolalarimizning baxtli bo'lishiga andek tanavvul qilamiz-da! Ikromjon, ryumkalarni ol. Endi sen ichma. Kechagiga o'xshab dovdirab yurma.

Derazadan isitilgan manti uzatishdi. Vahobjon ichmadi. Ota-bola bir shishani bo'shatishgandan keyin Vahobjon uzr so'rab o'rnidan turdi.

- Meni aybga buyurmanglar, qiladigan ishlarim bor edi. Onasi mayli qolsin. Ertaga bir xabar olarman.

Kayf qilib olgan quda uncha qarshilik ko'rsatmadi, kuyovning ko'zlari suzilib hadeganda tilla tishini ko'rsatib iljayaverdi. Ammo, quda aya yalinib esi ketdi.

Vahobjon tashqariga chiqib to'yib nafas olgandek bo'ldi. Sal nariroq borib birdan ko'ngli buzilib ketdi. Uning bu kayfiyati uyiga o't ketganda bolasi qolib o'zini qutqargan kishining ahvolini eslatar edi.

Vahobjon shu kuni kechgacha shahar ko'chalarida tentib yurdi. Mehmonxonaga kirib yotib yotolmadi, o'tirib o'tirolmadi. Yana ko'chaga chiqdi. Kech kirdi. Fontan atrofi odamlar bilan gavjum bo'ldi. Bola yetaklagan juvonlar, hassasiga tayangan keksalar shaffof tomchilarning salqinida beozor sayr qilishardi. Hamma shod. Hammaning yuzida allaqanday baxtning, quvonchning tabassumi porlaydi. Faqat Vahobjon tajang. Shahar chiroqlari siyraklashdi, fontan atrofi bo'shab qoldi. Oxiri ko'kka intilgan toshqin fontan ham asta-sekin yerga singandek tindi. Vahobjon mashaqqat bilan o'rnidan turib mehmonxonaga yo'l oldi.

Qattiq uxlab qolgan ekan, telefon tovushi uyg'otib yubordi. Boshqa nomer adashib tushib qolibdi. U qayta yotolmadi. Soatiga qarasa allapalla bo'lib qolibdi. Ko'chaga chiqdi. Qiznikiga borishga yuragi betlamay, mehmonxona ostonasida kunini kech qildi.

Qosh qoraygan mahalda Manzura keldi. U ham ma'yus edi. Er-xotin bir-biriga biron gap bilan ozor yetkazib qo'ymaslik uchun sun'iy iljayish bilan ichkariga kirishdi.

- Nigora qalay, xafa emasmi?- dedi Vahobjon.

- Binoyidek o'ynab-kulib yuribdi, Nega bormadingiz, xayrlashib ham kelmadingiz.

Vahobjon gap topolmay gardanini qashib qo'ydi.

- Biletni ertangi poezdga olaveraymi, yo bir-ikki kun turasanmi?- dedi Vahobjon. «B»Agar xo'p desang, shaharning u yoq-bu yog'ini ko'rsatay.

Manzura qizini tashlab ketishga ko'ngli bo'lmay, yuragining bir cheti uzilib qolayotgandek bo'lib turgan edi.

- Mayli, o'zingiz bilasiz,- deya uning o'ziga tashladi.

Bugun Vahobjon o'zi o'qitgan ganjiravonlik vrach bolani uchratgan edi. U uyiga taklif qilgan. Vahobjon vaqt bo'lsa, albatta borishligini aytgan edi. Shu topda va'dasi esiga tushdi.

Shu kecha na er, na xotin qudalaridan gap ochmadi. Ammo, tong otguncha to'lg'anib chiqdi. Ertalab ular endi nonushtaga tayyorlanib turishganda kimdir eshikni bezovta taqillatdi. Vahobjon shoshib ochsa, notanish bir kishi ko'zlari besaranjom bo'lib turibdi.

- Tez borarmishsizlar. Darrov, darrov...- u shunday dedi-yu, shoshilganicha ketib qoldi.

Er-xotin nima gapligiga tushunolmay apil-tapil yo'lga tushishdi.

Nigoraning hovlisi suv quygandek jimjit. Hovlidagi so'rida chol peshonasini ushlaganicha qimirlamay o'tiribdi. Vahobjonning yuragini birdan vahm bosdi, Nigoraga bir gap bo'lmadimikin! U otilganicha uyga intildi. Ichkaridan chiqib kelayotgan qudasi Hojar unga sovuq nazar tashlab o'tib ketdi. Nigora uyning o'rtasida qimirlamay turardi. U oyoq tovushini eshitib o'girildi, dadasini ko'rib ho'ngrab yig'lab yubordi. Manzura kirdi.

- Peshonam qursin, toleim qursin!

- Nima bo'ldi?- dedi Manzura hayajon bilan.

- Ikromjon akamni qamoqqa olib ketishdi. Hamma narsani xatlab ketishdi.

Hojar derazadan bosh suqdi.

- Kelinning oyog'i "qutlug'" keldi-da! Ha, qadami "yoqdi".

Vahobjon beixtiyor o'tirib qoldi. Atrofga g'amgin nazar tashladi. Uy jihozlari ko'ziga sovuq ko'rinib ketdi. Bu buyumlarning hammasi xatlangan, hammasining egasi boshqa, bular yurtning rizqidan yulib olingan narsalar. Bu uyda shu bitta Nigoragina halol edi. Yo'q, u ham o'g'irlangan, o'zi ham, baxti ham o'g'irlangan.

- Xafa bo'lma, qizim,- dedi Vahobjon,- ilojimiz qancha, begunoh bo'lsa chiqib qolar. Sabr qil.

Chol kirdi.

- Quda, bu ishning shundoq bo'lishini kim biluvdi, deysiz. Chaquvdan bo'ldi. Yomon odam ko'p. Bor bo'lsang ko'rolmaydi, yo'q bo'lsang berolmaydi. Endi bundoq qilsak.- U yonidan buklog'liq qog'oz chiqarib Nigoraga uzatdi. «B»Shu ro'yxatdagi narsalarni otamnikidan olib kelganman, o'zinniki deb sudga ariza yozsangiz.

Vahobjon qizning qo'lidan qog'ozni oldi. Ro'yxatda taxminan yangi pulda o'n besh ming so'mlik buyum yozilgan edi.

- Yo'q,- dedi qat'iy ohangda Vahobjon. - Bunaqa ishga qo'l urmaydi Nigora.

Chol boshini sarak-sarak qildi.

- O'zlaringizga qiyin bo'ladi, mayli, mayli. Hojar derazadan bosh suqdi.

- Ko'nishmayaptimi? Bu tagi past qishloqildan yaxshilik chiqadimi? Aylanay qudalar, xo'p deb qo'ya qolsanglar olam guliston bo'ladi-ya!

- Qo'ying, jinoyatlaringizga bizni sherik qilmanglar.

- Umid bilan quda bo'lgandik, mayli o'zlaring bilasizlar.

Nigora hatto rozi bo'lishga ham tayyor turganda, kampir yana gapga suqildi.

- Aylanay Nigoraxon, bu yer ham o'z uyingiz, bizni unutmanglar tez-tez kelib turasiz-a!

Nigoraning ko'zlari yalt etib ochilib ketdi. Kelinlik liboslari muzga aylanib badanini sovutib yuborgandek bo'ldi. Ko'zlariga g'azab to'lib atrofga jovdirab boqdi-yu, shaxt yurib narigi uyga chiqib ketdi. Bir ozdan keyin u o'z onasi tikkan o'sha oq krepdeshin ko'yilagini kiyib, studentlik chamadonchasini ko'tarib chiqdi. Dadasiga ma'yus boqib dedi:

- Meni kechiring, dadajon. O'zini o'zi o'g'riga tutqazib bergan, baxtini ham, o'zini ham o'g'irlatgan qizingizni kechiring.

Nigoraning ko'zidan yosh chiqmadi. U dadil gapirar edi.

Vahobjon bilan Manzura qizini bundan uch kun avval chiqib ketgan yotog'ida qoldirib, yana Ganjiravonga qaytib kelishdi. Nigora

uyiga endi ilgariydek tez-tez xat yozmas, to'g'risi nima deb yozishini bilmasdi. Yozganda ham sog'-salomatman deydigan nariga o'tmasdi. Oradan uch oy o'tganda Nigoradan to'rt varaq xat keldi. Xatda u Ikromning katta jinoyatchi ekanligi sudda ochilgani, o'zi o'n yilga kesilib, uy-joylari musodara qilinganini yozgan edi. Xatning oxirida u: ertaga davlat imtihonlari tugab, diplom qo'limga tegadi. Ganjiravonga qaytib borishga endi yuzim chidamaydi, Xorazmga yo'llanma berishlarini so'radim. Iltimosimni qaytarmasalar kerak, deпти.

Manzura: "Jon bolam, dadang qarib qoldi, bir hafta bo'ldi, pensiyaga chiqdi, Ganjiravonga kel, dadang o'rniga o'zing o'qituvchi bo'l. Jon bolam, yo'q dema", deb xat yozdi.

Tog' afsonasi

Mashina xo'p yaxshi narsa-yu, uning ham o'ziga yarasha nag'malari bor-da! Mashina olgan odamlarning xotinalari hazil aralash, bu mashina emas, kundoshim deyishar ekan. Sababi, er ishdan kelib ovqatga ham qaramay, mashinasining tagiga kirib ketganicha yarim kechada moyga qorishib chiqar, azonlab yana mashinaga unlab ketarkan.

Vahobjon rayvodxoza texnik. Uning ham o'ziga yarasha ko'rimsizgina "Moskvich"i bor. O'zi haydaydi. Eski mashina mingan odam yaxshi shofyor hisoblanadi. Ha deb buzilaverganidan keyin u yog'ini kavlaydi, bu yog'ini kavlaydi, xullas, ichida nimasi bo'lsa, barini bilib oladi. Yaxshiyamki, Vahobjon hali uylanmagan. Uylanganda, albatta xotini chidamasdi, yo meni deysan, yo mashinani deysan, deb turib olardi. Rost-da, u bo'sh qoldi deguncha mashinani kavlaydi. Uni gurillataverib qo'ni-qo'shnilarning joniga tegadi. Qo'shnilar, shu Vahobjon uylana qolsaydi, o'zidan tinchib ketarmidi, deyishadi. Ammo Vahobjonning hali-veri uylanadigan niyati yo'qqa o'xshaydi. O'zi mundoq birontasini topmaydi, qarindosh-urug'lar topganini yoqtirmaydi. Kampir oyisi nolib qolsa, hazilga oladi-da, yana mashina tagiga kirib ketadi. Oxiri jonidan bezor bo'lgan qo'shnilar kampirga chiqib yalinishadi: - O'g'lingiz mashinani kechasi garajga oborib qo'ysin. Uxlatmayotibdi.

Rayvodxoza garaji yo'q, qayoqda qoldiradi. Undan tashqari o'zingizga ma'lum. Vahobjonga kechalari ham u yoqni suv urib ketdi, bu yoqqa suv kerak, deb raislar telefon qilib turishadi. Shofyor olaylik, deyishsa qaysi shofyor bunaqa shaloq mashinaga - bunaqa bezovta ishga ko'nadi. Bitta-yarimta yanglishib kelib qolgan shofyorlar ham ikki kunga chidamay tashlab qochishadi. Xullas, bu ishga Vahobjonning o'zidan boshqasi to'g'ri kelmaydi.

Mana shu Vahobjon bahor toshqinida suv olib ketib, haligacha tuzatilmagan kanal to'g'onini tuzatirishga bir haftadan beri ovora edi. Shu paytgacha raislar shox bostirib, buyog'iga shag'al to'ktirib eplab kelishayotgan edi. Shu alpozda paxta sug'orib bo'ladimi, kim qancha suv olayotganini bilib bo'lmasa! Raislar bay-baylab vodxoza masalasini byuroga qo'yib qolishdi-ku. Ana, vodxoza boshlig'ining tipirchilab qolishini ko'ring. Ikki kunda nement ham topildi, bulKjdozer ham, beton plitalar ham topildi. Kechasiyu kunduzi ish. Kolxoza odam ham topib berishdi. Dorotdel yo'lga "o'tilmasin!" degan belgi qo'yib, mashina va avtobuslarni vaqtincha boshqa yo'ldan qatnaydigan qilib qo'ydi.

Soch-soqoli o'sib ketgan Vahobjon, projektor yonida turgan montyor bolaga baqiradi, shag'al to'kayotgan samosvalga chiroqni to'g'rila, kabelni tort, suv tegmasin, deb qichqiradi. Orqasiga tisarilib shag'alli mashinaga yo'l ko'rsatadi. Ish qizigandan qizib ketgan. Yoz kechalari shunaqa ishlashlik bo'ladi. Ayniqsa bu tomonlarning oqshomiga hech narsa teng kelolmaydi. Daryo shovullaydi, tog' orqasidan osmonga sut purkagandek bo'lib avval oy shu'lasi ko'rinadi, keyin o'zi salmoqlab osmonga ko'tariladi-da, tog' cho'qqisiga ayri minib turib qoladi. Biram chiroyli, biram yoqimli shabada esadi. Saraton dazmoldek qizdirgan toshlarni shu shabada puflab sovtadi. O't-o'lanlarni silkitadi. Jo'jasi hali uchirma bo'lmagan ona o'rdaklarning allaga o'xshash g'alati g'aqillashini uzoqlardan olib keladi. Kanalning beto'siq-beto'lqin suvi oydinga xuddi poyoni yo'q yaxlit oynadek yaltiraydi. Quloq boshida suv ochayotgan miroblarning tovushi eshitilib qoladi. Ayniqsa bittasi ezib-ezib ashula aytadi. Kechasi olisdan kelgan qo'shiq g'alati bo'larkan. Odanning tomir-tomiriga kirib ketaman deydi. Betonchi bola ham qo'shiqqa ishqivoz ekan. Ovozi biram do'rillagan. Qo'shiq so'zlarini poyma-poy qilib xonish qilib qoladi. Quruvchilar atayin uni mayna qilib "yana bo'lsin", "do'st", deb qo'yishadi. Yigit ham ularning "iltimosi"ni yerda qoldirmay ashulaga ashulani ulab ketadi.

Toshga yomg'ir kor qilurmi

Muttasil yoqqan bilan...

- Do'st, bu Navoiydanmi?

- Yo'g'e, Mashrabnikidir.

Qiyqiriq, kulgi.

Shu zaylda kulgi bilan, qo'shiq bilan ish davom etadi. Vahobjon u yoqdan-bu yoqqa zir yugurib, ishni jadal-latadi. Kattakon bak oldida choy damlangan tunuka choynakni cho'qqa qo'yib o'tirgan cholning yoniga tushib ketayotgan edi, uzoqdan mashina chirog'ini ko'rib to'xtadi. Mashina "o'tilmasin!" belgisi qo'yilgan muyulishdan o'tib, to'ppa-to'g'ri kelaverdi. Vahobjon ijrokomdan birov kelayotgan bo'lsa kerak, deb o'yladi. Tikilib qarasa, tangadek zangori chirog'i bor. Nechuk taksi mashinasi bu tomonlarga o'tdi ekan, deb yo'lga chiqdida, qo'lini ko'tarib uni to'xtatdi.

- Mumkin emas, belgini ko'rmadingizmi, qayting! Shofyor kabinadan bosh chiqarib, qo'lini ko'ksiga qo'yib uzr aytgandek bo'ldi.

- Ko'ktoshga ketayotgan bo'lsanglar, Xonimobod tomondan aylanib o'tasizlar.

Xonimoboddan aylanib o'tish uchun ortiqcha o'n to'qqiz kilometr yo'l yurish kerak. Har qanday odamga ham taksida borish jabr bo'ladi.

Shofer kabinadan tushdi. Ikki qo'lini beliga qo'yib u yoq-bu yoqqa qaradi-da, o'tib ketishning sira iloji yo'qligini bilgandan keyin noiloj orqa eshikni ochib, ichkariga qarab yelkasini qisdi.

- Iloji yo'q, opajon. Bu yog'i ko'p qolmadi. Piyoda yigirma minutda yetasiz. Xonimoboddan borsangiz qimmatga tushadi. Mayli, desangiz, yana o'zingiz bilasiz. Menga bari bir.

Mashinadan chamadon ko'targan bir ayol tushdi. Vahobjon qorong'ida uning yuzini aniq ko'rolmadi. Ayol shofyor bilai ancha vaqtgacha nimanidir gaplashib turib qoldi. Keyin mashina orqasiga qaytdi. Ayol bitta-bitta bosib Vahobjonning oldiga keldi.

Ko'ktoshga qaysi tomondan borishni so'radi. Tavba, ovozi tanish. Qaerda eshitgan bu tovushni? Shu payt shag'al to'kib bo'lgan samosval keskin burilgan edi, uning o'tkir chirog'ida ayolning basharasi bir dam yorishib ketdi.

Sochlari boshiga chamberak qilingan, lablariga bilinar-bilinmas qizil surtilgan, yigirma-yigirma ikki yoshlardagi kelishgan qiz. Vahobjon uni tanidi. Bu qizni u bir marta, atigi bir marta ko'rgan. U bilan yonma-yon o'tirib choy ichgan. Shu qizning o'zi unga choy quyib bergan. Ammo Vahobjon, to'g'risini aytganda, u quyib bergan choyni qiynalib ichgan: negaki bu qizning bir qo'lida odanning kalla suyagi bor edi. Vahobjon o'tgan yilning avgustida sirtqi institutga imtihon topshirgani Toshkentga tushgan edi.

KonsulKjatsiya o'tkazadigan o'qituvchining tobi qochib qolib, institutga kelolmay qolibdi. Dekan, Vahobjonga o'qituvchining

uyiga borishni maslahat bergan edi. Bordi. U Chilonzordagi katta ko'cha betidagi uyning ikkinchi qavatida yasharkan. Kirib gaplashdi. Bilmaganlarini so'rab oldi. O'qituvchi Vahobjonga imtihonga kirsangiz bo'ladi, deb maslahat berdi. U xursand bo'lib chiqsa mashinasining bir g'ildiragi shalpayib yotibdi, kamerining zolotnigini birov burab olib qo'yibdi. AsfalKjt yo'lkada "bosdimmi" o'ynayotgan qizchalar unga qarab turishardi. Ularning biri yaqin kelib shivirladi.

- Akbar minnarsangizni burab olib qo'ydi.

- Qanaqa Akbar?

- Hu anovi uyda turadi. Hozir qochib chiqib ketdi. Inobat opamlarning ukalari-da.

Vahobjonning juda jahli chiqib ketdi. Bu qanday gap! Zapas g'ildirak bo'lganda ham boshqa gap edi.

Vahobjon boyagi qiz ko'rsatgan uy eshigining tugmasini bosdi. Javob bo'lmadi. Yana qo'ng'iroq tugmasini bosgan edi ayol kishining: "Hoy Akbar, eshikni och, birov keldi", degan tovushi eshitildi. Ha, deganda eshik ochilavermadi. Anchadan keyin shippak tovushi yaqinlashdi-da, eshik qarsillab ochildi. Vahobjonning qarshisida odamning kalla suyagini ushlagan ko'hlik bir qiz turardi. Vahobjonning yuragi orqasiga tortib ketdi. Qiz qoshlarini kerib, kimda ishingiz bor edi, degandek hayron boqib turibdi.

- Akbarda ishim bor edi. Chaqirib bersangiz.

Qiz ermak qilayotgandek orqasiga qarab qichqirdi:

- Hoy Akbar, o'rtog'ing keldidar, bu yoqqa chiq.

Ichkaridan trusichan, olti yoshlardagi bir bola burnini tortib chiqdi. U Vahobjonni ko'rishi bilan to'xtadi, keyin Vahobjonning o'rtog'i birdan orqasiga tiraqaylab qochib qoldi. Qiz nima gapligiga tushuna olmay hayron. Vahobjon bo'lgan gapni aytib berdi. Qiz xijolat bo'lib, undan uzr so'radi-da, hozir o'sha buyumni olib beraman, deb orqasiga burildi. Keyin to'xtab qo'lidagi kalla suyagini Vahobjonning qo'lga tutqazdi.

- Hozir, hozir olib beraman.

Akbar vannaxonaning ichidan berkitib olgan ekan. Qiz yalindi.

Oxiri Akbar eshikni ochdi. Vahobjon qarasa u vannaga suv to'ldirib ming yamoq bo'lib ketgan avtokameraga nasos bilan yel berayotgan ekan.

- Bu o'lgurga cho'milishga kerak-da. Suzishga o'rganayotgannish. Qani, ber, kim o'rgatdi senga birovning narsasini olishni?!

- Magazinda yo'q-da, bo'lmasa olarmidim,- dedi Akbar burnini tortib.

Shunday dedi-yu, vannadagi ilmateshik kamera og'zidan zolotnikni chiqazib berdi. Vahobjon qizga rahmat aytib tashqari chiqdi.

Ust kiyimini yechib mashinaga domkrat qo'yib g'ildirakni ko'tardi, uni chiqarib olib boshqatdan yel bera boshladi. To u ishini bitqazguncha qora terga tushib ketdi. Ancha kech ham bo'lib qolgan edi. Uning qiynalayotganini balkondan ko'rib turgan qiz:

- Kirib yuvinib oling,- dedi.

Vahobjon bir so'z demay qaytib kirdi. Qiz yelkasida sochiq, qo'lida sovun bilan uni kutib turardi.

U yuziga sovun surtayotganida ham, oppoq, kraxmallangan sochiqqa artinayotganida ham bir o'y kallasidan ketmasdi.

"Qanday chiroyli qiz-a, ammo qo'lidagi odamning kalla suyagi nimasi".

- Choy damlab qo'ydim, ichib ola qoling, qorningiz ham ochgandir.

Vahobjon uzr aytsa ham qiz qo'ymadi. Choy quyib uzatdi. Bola bechora ichishini ham, ichmasini ham bilmay hayron edi. Ichdi-yu, yana boyagi kallani esladi. Oxiri u qizga rahmat aytib ketar ekan, Akbarga zolotnik keltirib berishga va'da qildi.

Ana shu voqeadan keyin Vahobjon qizni uchratmadi. Uyiga, Akbarga va'da qilgan narsani olib borganda qiz yo'q ekan. Mana oradan bir yil o'tdi. U o'sha qizni eslaganida nihoyatda ko'hlik bir qizning yuzi, ko'zi, kelishgan gavdasi ko'z oldiga kelardi-da, zum o'tmay, bu go'zallik o'mini tirjaygan kalla suyagi egallab olardi. Shuning uchun ham Vahobjon uni eslamaslikka tirishardi. Mana bugun daryo shovullagan, shag'allar qaldiragan tog' oqshomida ikkovi yana baqamti kelib o'tirishibdi. Qiz uni tanimagan bo'lsa kerak. Negaki Vahobjonning soch-soqoli o'sib ketgan, kiyimlari chang, tuproq edi.

Ularning har ikkovi bir-birlariga qarab ancha turib qolishgandan keyin Vahobjon gap boshladi:

- Ko'ktoshga ketyapman deng. U yerda qarindoshlaringiz bormi?

- Yo'q,- dedi qiz.- Ishga shu yoqqa tayin qilishdi. Rayzdrav ixtiyoriga...

Qizning ovozi biram yoqimli, biram jarangli. Vahobjon seskanib ketdi. Demak, bu qiz rayonga doktor bo'lib kelyapti. U doktorlikni bitirgan. Odamning kalla suyagini bekorga ko'tarib yurmagan ekan u...

- Meni taniyapsizmi?- dedi Vahobjon.

- Yo'g'a,- dedi qiz yelkasini qisib.

- Uyingizga borganman. Akbarning ketidan vannaga kirganim...

Vahobjonning gapi og'zida qoldi.

- A-a-a, o'sha sizmidingiz, buni qarang-a, tanimapman. Uyimizga yana bir kelgan ekansiz. Yo'qligimni qa-rang-a.

BulKjdozerchi Vahobjonni chaqirib qoldi, U qizga: "Hozir kelaman", deb chopganicha ketdi.

Alla mahal bo'lib qolgan edi. Vahobjon prorabga topshiriqlarni berib qizning oldiga qaytdi.

- Qani, mehmon ketdik. Ko'ktoshga o'zim oborib qo'yaman.

Qiz qarshilik ko'rsatmay "Moskvich" eshigini ochdi. yo'lga tushishdi. Oy xuddi mashina bilan yonma-yon ketayotganga o'xshaydi.

Soyadek bo'lib ko'rinayotgan tog' tizmalari biram ajoyib, biram ajoyib.

Vahobjon rulkJ boshqarib borarkan o'y o'ylardi.

"Qani endi shu qizga uylansam, menga tegarmikin? Tegmas, balki sevgani bordir".

Mashina motori bir-ikki yo'talib o'chdi. Vahobjon shoshib tushib kopotni ochdi. Ventilyatsiya tasmasi uzilib ketibdi. Zapasi yo'q.

Endi nima bo'ladi? Shu yerda tunab qolishdan boshqa iloj yo'q? Ularning ikkovi ham hafsasalari pir bo'lib toshga o'tirishdi.

- Qiziq bo'ldi-ku!- dedi Vahobjon xijolat chekib. Qiz indamadi. U azamat tog' tizmalariga, ho' ko'rinib turgan uchli qoyaga jig'a

bo'lib qo'nib turgan baldoqdek oyga jimgina qarab o'tirardi.

- Bilasizmi, men hech toqqa chiqmaganman. Buni qarang, kechasi, ayniqsa oydinga juda g'alati bo'larkan. Biram yaxshiki.

Qizning tovushidan sovuqqotganligi shundoqqina bilinib turardi. Vahobjon mashinani ochib old suyanchig'ini tushirib ketidagisiga yondostirib qo'ydi.

- Siz kirib bir oz mizg'ib oling.

Qiz avvaliga ko'nmay turdi. Keyin sovuqdan titrab ichkariga kirib ketdi. Vahobjon radioni sekinlab burab qo'ydi.

Tong o'ngirida yoqimli kuy oqar, kichkinagina, ko'rimsiz mashina ichida esa husni bir dunyo bo'lib bir qiz uxlardi.

Vahobjon uning atrofida papiros chekib aylanib yurdi.

Bu unga xuddi azaliy toshlar gerdaygan tog' etagida tug'ilayotgan yangi doston, yangi afsonaga o'xshardi. Kim biladi, balki Vahobjon afsonavor bu oqshomda o'z baxtini, muhabbatini qo'riqlayotgandir, Zora shunday bo'lsa!

Rahmat, azizlarim!

Buvaydadan avtobusga chiqishim bilanoq Muazzamga ko'zim tushib qoldi. U tirsagini derazaga qo'yib xayol surib borardi. Boshida rangi ko'tarilgan sarg'ish kosinka, egnida oddiygina shtapelKj ko'ylak. Sochini nari-beri o'rib orqasiga tashlab qo'yaqolgan. Muazzamni hech shu ahvolda ko'rmagan edim. U studentlar ichida eng yaxshi modalarni tanlab kiyardi, sochini bo'lsa kuniga har xil prichyoska qilmasa ko'ngli joyiga tushmasdi. Uning o'ndan ortiq sumkachalari bo'lguchi edi. Hozir u og'ziga qog'oz yopib ip bilan bog'langan shisha banka, kostryulka, olma solingan to'r savatni tizzasiga qo'yib o'tiribdi. Muazzam shu ahvolda ham chiroyli edi.

Uning yoniga borishni ham, bormaslikni ham bilmay, ikkilanib turib qoldim. Axir ko'rmaganimga ikki yildan oshdi. Uning ustiga Muazzam meni jinidan yomon ko'rardi. Studentlikda har ish o'tadi, hozir o'sha ishlarni o'ylasam badanidan sovuq ter chiqib ketadi.

Kursdoshlarimiz orasida Muazzamning ishqida kuymagani yo'q desam mubolag'a bo'lmas. Men-ku jinnidan battar edim. Shu uchun kuniga soqol qirardim, yuvilaverib asli rangi qanaqaligi bilinmay ketgan shimimga kuniga dazmol bosardim. Ammo u menga qaramasdi. Men bo'lsam hadeb atrofida aylanishaverardim. Keyin bilsam, u frontdan duduq bo'lib kelgan Odil degan bola bilan kinoga borib yurar ekan. Juda diqqatim oshib ketdi. Shu bevafo dunyoda yashab nima qildim, deb o'zimni pichoqlamoqchi ham bo'ldim. Oxirgi marta o'zimga kuch yig'ib, yotog'ining eshigini shartta ochib kirdimu, bilagidan ushlab: Muazzam, seni yaxshi ko'raman, sensiz yashayolmayman, dedim. U hiringlab kuldi.

- Mensiz bemalol yashayverasiz,- dedi Muazzam ko'zimni baqraytirib turib.

- O'zimni osib qo'yaman,- dedim. Bilmadim o'shanda bu gapni baqirib aytdimmi yo pichirlab aytdimmi, esimda yo'q. Muazzam battar ermak qilib kuldi.

- Osolmaysiz, jon shirin. Agar osadigan bo'lsangiz, sport zalida arqon bor, o'sha yoqqa kirib osing!

Ko'zimga qon to'lib ketdi. Yotoq eshigini taraqlatib yopdimu, sport zaliga yugurdim. Darhaqiqat arqon bor ekan. Olib bir uchini bog'laydigan joy qidirayotganimda hushim joyiga keldi. Shoshma, o'zimni osishga-ku osaman. Undan keyin nima bo'ladi? Osilib yotgan o'ligimni ko'rganlar ham, osilib o'lganimni eshitganlar ham, "ahmoq ekan" deydi-ku. Albatta shunday deydi. O'zimni o'ldirib bo'pman! Men hali unga ko'rsatib qo'yaman.

Ammo nima qilib unga ko'rsatib qo'yishni o'ylab-o'ylab topolmadim. O'qishlar tugab, har qayoqqa tarqab ketdik hamki, unga ko'rsatib qo'yolmadim. Bolalarning aytishiga qaraganda, uning ko'ziga ko'rinmay qolgan paytlarimda, ulardan meni so'rarkan, ular ko'rmadik deyishsa: xudo rahmat qilsin, yaxshi bola edi... deb kularkan. Eshitib battar jahlim chiqardi.

Bu gaplarga ham ikki yil bo'пти. Vaqtning tez o'tishini qarang!

Mana, Muazzam bilan bir avtobusda o'tiribmiz. Uning ilgarigi olifalıkları qolmagan ko'rinadi. Nima bo'ldi? Nahotki shunday tam-tam qiz darrov boshqacha bo'lib qolgan bo'lsa? Yo erga tekkan bo'lsa, eri mundayroq odam chiqib qoldimikin? To'rvadagi narsalarni qayoqqa olib ketyapti? Boshiga biron kulfat tushdimikin? Balki unga narsa olib ketayotgandir? Sabrim chidamadi. Eski ginalarni unutib, oldiga borib o'tirdim. U meni ko'rishi bilan ko'pdan yo'qotgan kishisini topib olgandek ko'zlari yashnab ketdi. Shu mahal dilimdan bir gap o'tdi. Uning bu qarashini o'zimcha yo'yib, nega senga tegmadim, senga tekkanimda bu ahvolga tushmasdim, degan ma'noni anglabman. Ko'rishdik, hol-ahvol so'rashdik. Ishlarimni so'radi. Uylanganimni, xotinim vrach ekanini aytdim. U bilinar-bilinmas kulib qo'ygandek bo'ldi. Men undan ortiqcha gap so'ramadim. Nimani ham so'rayman. Ahvoli ma'lum bo'lib turibdi-ku. Turmushi yaxshi emasligi, erdan baxtsiz bo'lgani kiyim-boshidan, rangi ro'yidan bilinib turibdi.

Qo'qonda avtobusdan tushdik. Ostanovkada meni kutib turgan shofyorim rosa eshitadiganini eshitdi. G'ildirak yel chiqazib yuborganini aytsa ham quloq solmay so'kaverdim. Muazzamga o'zimning kimligimni ko'rsatib qo'yish uchun atayin shunday qildim. Mashinaga chiqa turib Muazzamga qo'l uchini berib xayrlashmoqchi bo'lgandim, u gapim bor, ketmay turing, deb qoldi.

Axa, dedim ichimda, menga yetkazgan ozorlarningning qasdini o'lyapman, deb ich-ichimdan sevinib ketdim.

- Sizni ko'rib qolganim yaxshi bo'ldi. Yuring, bir joyga borib kelamiz. Shofyorga javob berib yuboravering!

Rozi bo'ldim. Ikkovlashib piyoda ketdik.

- Yo'ldan qoldirganim uchun xafa bo'lmay-siz-da. Atayin shunday qildim. Odiljonni ko'rib kelasiz.

Yurishdan to'xtab qoldim. O'sha o'zim yomon ko'radigan Odilning oldiga boramanmi? Kallamni shartta kesib tashlasa ham bormasman.

- Yuravering, yuravering, sizni ko'rsa sevinib ketadi.

U qo'limdan ushlab sudradi. Beixtiyor yurib ketdim. Ancha joygacha indamay bordik. Muazzam yo'l chetida osilib turgan tol novdasidan ko'm-ko'k barglarini qisimlab sidirib oldi-da, ma'yus gapira boshladi.

- Bilaman, meni yomon ko'rasiz. Odiljonni bo'lsa ko'rarga ko'zingiz yo'q. Hech bo'lmasa birga o'qiganimizning hurmati bordir. Bilasizmi, xafa bo'langu, sizni hali ham uncha xush ko'rmayman. Ko'ngil xushlamagan, har bir odam dushman emas-ku!

Hayronman, nima demoqchi, nima qilmoqchi? Shunaqa tushunib bo'lmaydigan xayollar bilan shahar kasalxonasi yaqiniga kelib qolibmiz.

- Shu yerda birpas kutib tura turing. Hozir chiqaman.

U shunday dedi-yu, shoshib kasalxonaga darvozasiga kirib ketdi. Ancha hayallab qoldi. Poylab o'tirib, zerikib ketdim. Bu yerda men nima qilib o'tiribman, deb o'zimdan so'rayman. Meni yomon ko'radigan odamning ketidan nima qilib ergashib yuribman? Keta qolaymi? Shu o'tirishda Muazzamning meni xo'rlaganlari ko'zimga ko'rinaverdi. O'rnimdan turdim. Endi ketmoqchi bo'lib turgan edim, Muazzam chiqib qoldi. Uning ko'zlari qizargan, boshidagi kosinkasi sirg'alib yelkasiga tushib qolgan edi. U oldimga kelib nimadir demoqchi bo'ldi-yu, gapirolmay birdan ho'ngrab yig'lab yubordi. Nima deyishimni, nima qilishimni bilmay serrayib turib qoldim. Boya Odilning oldiga olib boraman degan edi. Demak, Odil kasalxonada. Nima bo'ldi? Tinchlikmikan? Odilning tanasida yorilgan bombaning parchasi bor, davolatmay yuribdi, deyishardi. Dardi o'shadir?

- Ketmoqchimisiz? Ketmang!- dedi Muazzam yalingan ohangda. - Ketib qolsangiz kim menga hamdam bo'ladi?

- Nima bo'ldi? Ayt?

Muazzam entikdi, jiqqa yosh to'la ko'zlarini javdiratib qaradi.

- Ertaga Odiljonning oyog'ini kesishmoqchi.

Titrab ketdim. Bugun Muazzamni ko'rganimdan beri kallamga kelgan qasos olish niyati, maqtanish, unga o'zimni ko'rsatib qo'yish niyatlarim birdan qayoqqadir uchib ketdi-yu, vujudimga hokimlik qilayotgan o'sha tuyg'ular o'rnini shafqat, odamiylik, hamdardlik egallab oldi.

- Oldiga kiring, yupating, darmon bo'ling. Maktabdoshini ko'rib tanasiga quvvat kiradi. yo'q demang!

Nahotki yo'q desam. Nahotki birgina boqishim, yonida bir dam turishim o'limni yengish uchun kuch bo'lsa-yu, yo'q desam. Men ham odamman.

Vrachlar meni Odilning oldiga kiritishmadi. Charchagan, operatsiya oldidan dam olsin, deyishdi. O'tirib xat yozdim. Qiziq-qiziq gaplardan yozdim. Universitetda qilgan qiziq-qiziq ishlarimizni, o'sha paytda aytgan latifalarimizni yozib kiritdim. Xat tagiga imzo qo'ydim. O'qib yurgan paytimizda devoriy gazetaga burnimni katta qilib urib chiqishgan edi. Esimda turgan ekan, xuddi o'shanday qilib surat chizib qo'ydim. O'zimga juda o'xshaydi.

Xatni olib, albatta, xursand bo'ladi. Bilaman. Bunaqa paytlarda bemorning xayolidagi dahshatli o'ylarni qochirish uchun shunday qilish kerak. Kulgi dahshatni quvadi. O'limni yengadi!

Muazzam bilan yana Buvaydaga qaytdim. Uni yol'iz qoldirgim kelmadi. Men ketsam, u qandoq qilib tong ottiradi? Shunday paytlarda yonida odam bo'lsa tirgovich bo'ladi.

U telefon stansiyasining orqasidagi kichkinagina hovlida turar ekan. Uy egasi - keksagina xotin bizni ko'rishi bilan tashvishlanib ayvonga tushdi. Muazzamning ko'zlari qizarganidan qo'rqib ketdi shekilli, menga savol nazari bilan qaradi.

- Tinchlikmi, Odiljonning ahvoli qalay?

Yaxshi gap bilan kampirni tinchlantirdim. Muazzam uyga kirib ketgancha qaytib chiqmadi. Uning uyida chiroq ham yonmadi. Kampir menga supaga joy qilib berdi. Yechinmay yonboshladim. Chelakda muzlagan suvdek nursizgina oy ko'tarildi. Kampir hamon g'imirsib, nimalardir qilib yuribdi. U mening uxlamaganimni bilib oldimga keldi.

- Yashirmang, mehmon, Odiljonning ahvoli qalay? В Ъ” dedi u shivirlab.

- Ertaga oyog'ini kesishmoqchi,- dedim xo'rsinib.

Kampir qimirlamay turib qoldi. Oy orqa tomondaligidan uning yuzi ko'rinmas, faqat sochlari kumushdek yiltirardi. U shu ko'yi ancha turib qolgandan keyin birdan tizzasiga urib oh urdi.

- Voy oydekkina bola-ya, voy shundoq guldek yigit-a! Voy esiz bola. Urushga qiron kelsin, urushni yer yutsin! Bu qirg'in kelgurdan yigirma yildayam qutulmasak...

- Sekin, sekin, aya! Nima qilasiz Muazzamning yuragiga vahima solib. Mana ko'rarsiz, ko'rmagandek bo'lib ketadi.

Kampir boshini sarak-sarak qilib, ayvonga qarab ketdi.

Uxlayolmadim. Xayol ming yoqqa olib ketadi. U yoqqa ag'darilaman, bu yoqqa ag'darilaman, ko'zim ilinmaydi. Bilib yotibman. Muazzam ham shu ahvolda. U dunyoda eng yaqin kishisi halokat yoqasida turgan shu daqiqalarda uning tanasiga jon bo'lib kirishga tayyor. U eri bilan baravar o'lim yo'lini to'sayotibdi. To'shakda yotgan bemor hayot uchun yol'iz o'zi kurashmayotganini bilib turibdi.

Do'st mehri, yor muhabbati har qanday ofatni daf qila olishini bilib turibdi.

Muz parchasidek oyni oppoq tong nafasi eritib yubordi-yu, azim teraklar uchidagi yaproqlar alvondek yaltiradi. Shu tarovatli tong payti maktabdoshimga umr tiladim:

- Yashashing kerak! Hali oldingda uzoq umr yo'li bor, hayotda hali haqqing ko'p, hayot jomini umring oxirigacha sipqor, azizim!

Yana kasalxona ostonasidamiz. Bu gal Muazzam bilan ikkovimizga oq xalat kiydirib ichkariga boshlashdi.

Uzun koridordan oyoq uchida entikib, entikib boryapmiz. Odilni tezroq ko'ra qolsam, operatsiyaga yotishi oldidan bir ikki qiziq-qiziq gaplar aytib ruhini ko'tarsam deyman.

Palataga kirdik. Burchakdagi karavotda Odil ko'kka boqib yotibdi. U nimanidir o'ylab, har zamon iljayib qo'yadi. Oxiri odam sharpasini sezib, boshini biz tomonga burdi-da, birdan ko'zlari yashnab ketdi.

Muazzam ildam yurib, uning tepasiga keldi. Hayajonini yashirib uning hol-ahvolini so'radi. Odil horg'in-hasta tovushda javob berdi.

- Burunboyning xati menga jon berdi. Suratini ko'rib, bir kulaman, xatini o'qib, bir kulaman. Oyog'imni qirtillatib kesishyapti hamki, kulgim qistaydi.

U menga qarab mamnunlik bilan iljaydi. Demak, shu kechayoq oyog'ini kesishibdi.

- Rahmat, Burunboy...

Muazzamning ko'zlaridan duv etib yosh to'kilib ketdi.

- Xafa bo'lma, Muazzam, omon qoldim-ku! Sizlar bo'lmasanglar o'lib ketadigan narsa edim. Operatsiyani ko'taradigan holim yo'q edi.

Vrach, bemorni charchatib qo'yasizlar deb, bizni chiqazib yubordi.

Tashqarida oftob yashnagandan yashnab ketgan. Tiniq beg'ubor osmonda bir gala kaptar nurga cho'milayotgandek goh sho'ng'iydi, goh parlariga qo'ngan nurni to'kib yubormoqchidek qanotlarini tinimsiz silkitadi.

Yana avtobus ostanovkasida to'xtadik. Muazzam chiroyli bir tabassum bilan qo'l berib xayrlashdi.

- Rahmat!

Boshimdan zar sochsalar, oyoqlarim ostiga poyonoz yozsalar, nurdan ko'ylak tikib kiydirsalar, baridan kechardim-u, shu bir og'iz so'z bilan qoldim.

Inson ko'ksidan toshib chiqqan, uning qalbida eng ezgu hislari-tuyg'ulari toblagan samimiy tashakkuridan qimmatliroq mukofot bormi odam bolasiga!

Kechikkan sevgi...

SekretarKj xotin barakning brezent eshigini ko'tarib ichkariga kirdi. Ismoiljon tikka turganicha alyumin krujkadan labini cho'chchaytirib qaynoq choy ho'plardi. SekretarKj stolga qog'oz qo'yib indamay chiqib ketayotgan edi, Ismoiljon uni to'xtatdi.

- Bu nima?

- Bashoratning arizasi. Ishdan bo'shatishingizny so'rab yozibdi.

- Nega o'zi kirmadi?

- Bilmasam.

U yelkasini qisib qo'ydi.

- O'zi kirsin!

SekretarKj chiqib ketdi.

Bashorat qurilishda desyatnik. O'zi uncha chiroyli bo'lmasa ham allaqaeri odamga juda yoqadi. Istarasi issiq deganlari shumikin? Ismoiljon shu to'g'on qurilishiga bosh injener bo'lib kelganda ham Bashorat shu yerda edi. Ular bir-birlari bilan juda ko'p gaplashishgan. Negadir Bashorat Ismoiljon bilan ochilib gaplashmasdi. Biroq nima aytadigan bo'lsa betiga qaramay yergami, botinkasining uchigami tikilib turib aytardi. Uning bu qilg'idan ko'pincha Ismoiljonning ensasi qotardi. Ammo Bashorat ishiga pishiq qiz. Buni qurilishdagilarning hammasi ham tan olishadi.

Brezent eshik ko'tarilib sekretarKj xotinning yuzi ko'rindi.

- Kirmasmish, qo'l qo'yib beraversin, deb aytdi.

Ismoiljon arizani olib yana o'qib chiqdi. Aytarli tuzuk-quruq gap yo'q. O'z ixtiyorim bilan depti. U qo'lga qalam olib arizaning chetiga yozmoqchi bo'ldi-yu, yana to'xtadi. Bu nima qilgani, meni pisand qilmayaptimi? Gaplashishni ham istamaydi.

- O'zi qaerda? B" dedi Ismoiljon hamon brezent eshikni paranjiga o'xshab boshiga tashlab turgan sekretarKj xotingga.

- Tashqarida o'tiribdi.

Ismoiljon xotinning ketidan chiqdi. Oyoq tovushini eshitib Bashorat o'rnidan turdi. Uning qovog'idan qor yog'ardi.

- Nima bo'ldi, nega bo'shaysan?

- Ketyapman, B" dedi u Ismoiljonning betiga qarab emas, yerga o'tirib etigini boshqatdan kiyayotgan ekskavatorchiga qarab.

- Ketishingga biron sabab bormi?

- Sabab yo'q. Shundoq. Boshqa qurilishga ketaman.

- Biron tasi xafa qildimi?

Bashorat bosh chayqadi.

- Arizamga qo'l qo'yib bering, gapni aylantirmang! Vassalom!

Ismoiljonning zardasi qaynab ketdi. Qurilish bosh injeneri bilan shunaqa gaplashadimi? Haddan oshib ketibdi-ku, bu qiz!

- Xo'p, hozir qo'l qo'yib beraman.

U shunday dedi-da, ichkariga kirib ketdi. Birpasdan keyin Bashoratni sekretarKj chaqirib buyruqni berdi. Bashorat buyruqqa qarab turib seskandi. Ko'zi tindi. Nahotki ikki yil ishlab mehnati singan joyni tashlab ketadi?

- Hisob-kitobni boshqarmaga borib qilasan,- dedi sekretarKj va boshini sarak-sarak qilib barakka kirib ketdi.

Bashorat yolg'iz qoldi. U bosh injenerning baragiga ma'yus qarab turdi-da, bitta-bitta qadam bosib yo'lga ketdi.

Ekskavatorlarning shovqini olamni to'ldirgan. Skreperlar qiyqillaydi. Elektr payvandi o'tobda shisha sinig'idek yaltiraydi.

Samosvallar har gal shag'al ag'darganda momaqaldirroqqa o'xshagan ovoz chiqadi. Beton qoruvchi mashina qaldir-quldir qilib quloqni bitiradi. Mashinalar hamma yoqni changga to'ldirib u yoqdan-bu yoqqa o'tib turibdi.

Bu shovqinlarga Bashorat ko'pdan ko'nikib ketgan. Endi qayoqqa boradi? Nima qilmoqchi o'zi? Buni o'zidan boshqa hech kim bilmaydi. Faqat shu yerdan ketsa bo'lgani. Qancha tez ketsa shuncha yaxshi.

Bashorat baxtini boshqa yerdan izlamoqchi. U bu yerdan baxtini topolmadi. Izzat-nafsi koyigan qiz shu shovqin-suronga to'lgan joydan ketyapti.

U ma'yus qadam tashlab do'ng oshganida qarshisida to'zon ko'tarib gazik kelardi. Bashorat darrov tanidi. Bu Ismoiljonning mashinasi, Bashorat qo'lini ko'tardi. Gazik to'xtadi. Hali egnidagi harbiy gimnastyorkasi eskirmagan shofyor bola kabinadan boshini chiqardi.

- Ha, opa, tinchlikmi? Qayoqqa ketyapsiz?

- Bitta xat yozib beraman, xo'jayiningga berib qo'yasan.

- Xo'p, xo'p, opa.

Bashorat chamadonchasidan daftarchani olib mashina kapotiga qo'yib nimadir yozdi, o'chirdi, yana yozdi. Yozganini yirtib tashladi. O'ylab turib boshqatdan tez-tez yozdida, buklab shofyor bolaga berdi.

- O'ziga ber!

Bola xatni yon cho'ntagiga solib qo'ydi. Mashina u yoqqa, Bashorat bu yoqqa ketdi.

IyulKj quyoshi adirga tegay-tegay deb turibdi. Yana bir intilsa adir orqasiga dumalab tushib ketadi. Atrof qorong'ilashadi. Qurilish maydonida sonsiz chiroqlar yonadi. Projektorlarning nurli barkashi do'ngdan do'ngga sakrab o'ynaydi. Elektr payvandning chaqini bir daqiqadayoq olis-olislarga yetadi-da, hamma yoqqa yashil nur purkab so'nadi.

Bashorat mana shu nurli, mana shu shovqinli hayot orasidan baxtini qidirgan edi. Uni topgan ham edi. U baxt deb diliga quvonch, ko'ngliga ishonch-ilinj tug'dirgan narsa baxti emas ekan. Ana shuning uchun ham u ketyapti.

Balog'at yoshiga yetib, dilida muhabbat hislari uyg'ongan qiz bolaning noumid bo'lishidan og'irroq narsa yo'q. Bo'lmasa kattadan kichigi qadrdon bo'lib qolgan joydan ketish osonmi? Qim biladi, hali ham bo'lsa iziga qaytgani durustmidi? Yangi joy, yangi odamlar, yangi muhabbat... osonmi? Umr - oqar suv. Huv etadi oqadi, ketadi.

Shu xayol uni bir daqiqa to'xtatdi. Qiz atrofga qaradi. Quyosh adirga yarim belidan botib turibdi. Azamat teraklarning uchi shamdek yonib ko'zni olmoqchi. Ufqda ikkita uzun-uzun kimxob kamardek bulut qimirlamay turibdi. Osmoni zaminda bitta laylak aylanyapti. Uning qanoti xuddi shamga o'xshab yonadi. Gohi-gohida u, xuddi shishadan yasalganga o'xshab ketadi.

Teraklar uchidagi shamlar o'chdi. Atrofni nim qorong'ilik bosdi. Faqat laylak chiroqqa o'xshab hamon porlaydi.

Qurilish shovqini ham eshitilmay qoldi. Uni dam-badam orqangga qayt, degandek eshitilib turgan bu tovushlar tingandan keyin Bashoratning oyoq olishi tezlashdi.

Qishloq yaqin qoldi. Uzoqda xonadonlarning chiroqlari miltirab ko'rindi.

Bashorat endi orqaga qaytish ilinjidan qutuldi.

Orqadan gurullab motor tovushi keldi. Zum o'tmay o'tkir nur uning soyasini o'zidan ellik metrcha nariga uloqtirib tashladi.

Bashorat o'girilib qaragan edi, yoruqdan ko'zi qamashdi. Mashina uning yonidan o'tib ketdi-da, sal nari borib yo'lning o'rtasida ko'ndalang turib oldi. Motor shovqini tindi. Chiroq ham o'chdi. Qorong'ilikda erkak kishining ovozi eshitildi.

- Bashorat!

Bu Ismoiljonning ovozi edi.

Bashorat titrab ketdi. O'sha! Qiz qalbiga tosh otgan, qiz ko'nglida uyg'ongan birinchi muhabbat hislarini pisand qilmagan kesak!

- Nega kelding? - dedi Bashorat titroq tovushda. Bu birinchi bor uni senlashi edi. - Tushuntirgani keldingmi?! Qurilishda obro'ying oshadi, shu yerdan ko'tarilib ketasan, deb aytgani keldingmi?! Bu gaplarni sendan ko'p eshitganman. Sen faqat shu gapni bilasan,

yog'ochsan, toshsan, kesaksan. Darding yo'q seni!

Bashorat ho'ngrab yig'lab yubordi. Ismoiljon nima qilishini bilmay qotib turardi.

Osmonda yulduz uchdi. Uning papiros tutunidek ingichka chizig'i qop-qora osmonda ancha turib qoldi. Oxiri u ham so'nib ketdi.

- Sizga nima bo'ldi, Bashorat? Sen uchun ketyapman deb xat berroribsiz?

- Sizlama meni. Bilmading-a, sezmadning-a! Yuragingda zarracha darding bo'lganda bilarding, sezarding!..

- Nimani bilaman, nimani sezaman?

- Axir tentak, bir yildan beri dardingda kuyib yonaman. Bir yildan beri meni uxlatmaysan. Bir yildan beri seni deb yashayapman.

Bilmaysan, sezmayman. Aminman, sezasan, nazar-pisand qilmaysan. Meni ermak qilish uchun atayin shunday qilasan.

- Voy, menga qara...

Ismoiljon shu gapdan keyin ancha jimib ketdi. Papiros chekdi. Gugurt chaqayotganda qo'li titrayotganini Bashorat ko'rmadi.

Yulduzlar birin-ketin ko'z ochaverdi. Ushatilgan nondek bo'lib oy ham chiqdi. Ammo Ismoiljondan hali ham sado chiqmasdi. Yuk mashinasi keldi. Yo'lda ko'ndalang turgan mashinadan o'tolmay signal berdi. Ismoiljonning hushi o'ziga kelib mashinasiga yugurdi.

U to mashinani chetga olguncha shofyordan rosa so'kish eshitdi. U gazigini chetga olaman deb orqa g'ildiragini ariqqa tushirib yubordi. U mashinani o'nglaguncha Bashorat chamadonchasini bag'riga bosganicha qimirlamay turaverdi. Oxiri Ismoiljon yana oldiga keldi.

- Kechir, meni Bashorat. Bilmabman. Bilsam nahotki senga shunaqa muomala qilardim. Men, o'lay agar, bilmabman. Axir o'zing o'yla, men o'zimni senga munosibmasman deb yurardim. Umrimde bir qizni sevmaganman, bunaqa ishlarni bilmaganman.

Sevishni bilmaganman. To'g'ri aytding, yog'ochman, kesakman. Sevishga, ishq qo'yishga vaqtim bo'lmagan. O'qishni bitirdimu shunaqa qurilishlardaman.

Bashorat ham titrab, qaqshab gapirardi.

- Nima kiysam sen ko'rgin deb kiyardim. Ammo sen tabelKj taxtasidagi Bashoratning norma bajarishiga qararding. Ishdan horib, charchab kelaman uxlamay ostonada yulduzlarga tikilib o'tiraman. Seni o'ylayman. So'ra, shu yulduzlardan so'ra. Ularni har kuni ko'raman. Har kuni gaplashaman. Shu yulduzlarning qaysi biri menkiligini bilolmayman xolos. Biron marta meni o'ylaganmisan? Ismoiljon gap topolmay g'udrandi.

- Menga qara, Bashorat, meni ko'p qiynama. Birpas o'zimga kelib olay. Oyog'imning tagida yer yo'qqa o'xshaydi, Ke, o'tiraylik. Manavi yerga o'tiraylik.

Ismoiljon Bashoratning qo'lidan ushlab tol tagiga olib o'tdi. Shundagina uning qo'li titrayotganini bildi. Qiz ko'ksida nimadir g'alayon qilardi. Bu u chekkan iztiroblarning mukofotimi, unga kechalari uyqu bermagan yigitning ko'ksida sevgi otashini yoqib intiqom olish tantanasimi, bilmasdi. Nima bo'lsa bo'lsin, Bashorat dilidagisini to'kib soldi. Agar shunday qilmaganda bir kun o'kinardi. Qachonlardir bir kun ilk muhabbat esga keladi. Esga kelganda ham galati hislar bilan, ajib xotiralar, eng ma'sum, eng beg'ubor tuyg'ular bilan aralashib keladi. O'shanda ilk muhabbat o'z bag'riga chaqiradi. Butun go'zalligi, butun jozibasini bilan, tiniqligi, beg'uborligi bilan chaqiradi. O'shanda muhabbat o'zining hech qachon qarimasligiga iqror qiladi.

Bir chiroyli, bir yoqimli shamol turdi. Tol shoxlari bir-biriga ayqash-uyqash bo'lib yerdagi oy tangalarini uchiradi, yondiradi, supuradi.

- Endi men gapiray. Kulmaysanmi, masxara qilmaysanmi. Jim o'tirsang aytaman.

- Gapir!

U iztirob bilan o'tgan bolaligini eslab ketdi. Go'dak diliga ozor bergan, murg'ak xotirada bir umr o'chmas iz qoldirgan ota qilmishini, o'z bolasining ko'krigidan itargan ona qilmishini alam bilan esiga oldi. O, u kunlar unutilib ketsa bo'lmasmidi?

Ismoiljon papiros chekdi. Tolning shovullashiga bir muddat quloq solib turgandan keyin titrab gap boshladi.

- Kimligimni bilib ol. Kimman, qanaqa odamman, bilib qo'yganing yaxshi. Sakkiz yasharimda dadam bilan ayam ajralib ketishdi.

O'shanda ayam bilan qolganman. Yarim yil o'tmay ayamning ko'ziga shumshuk bo'lib qoldim. Ikki gapining birida, baxtimni qora qilyapsan, orqamda ergashgan bolam bilan meni kim olardi, deydigan bo'lib qoldi. Bu gaplarga bola ekanman-da, tushunmaganman. Keyin ayam erga tegdi, o'gay dadam u yoqda qolib ayamning o'zi chiqishtirmadi. Dadamning oldiga bordim.

Uylangan ekan. U yerga ham sig'madim. Ko'chada qoldim. Ota-onam tirik bo'la turib detdomga kirishga jur'at qilolmadim.

Maktabda yotib qolib o'qidim. Birovlarning nonini yeb, birovlarning kiyimini kiyib katta bo'ldim. Institutda o'qib odam bo'lishni astoydil niyat qilgan edim. Niyatinga yetdim. Yotoqda yotib o'qidim. O'qigan maktabimning direktori juda yaxshi odam edi.

Maktabdan dars olib berdi. Ham o'qidim, ham o'qitdim. Yozgi kanikul paytlarda ham konstruktorlar byurosidan chertyoj ko'chirish ishini oldim. Diplom qo'lga tegdiyu ishga tushib ketdim. Sevgi ishlariga, o'yin-kulgiga vaqtim bo'lmagan. O'z tenglarimdek yayrab yashnamaganman.

Bashorat beixtiyor uning qo'llaridan ushladi. Ismoiljon gapirolmay entikdi. Saldan keyin o'zini o'nglab yana gapira boshladi.

- O'tgan yilning o'zida ikki marta sudga tushdim. Dadam sudga beribdi. Xotini o'lib ikki yosh bola bilan qolibdi. Yordam so'rab kelishga yuzi chidamay nafaqa undirish uchun sudga bergan ekan. Sud hukm qilib berdi. Sal o'tmay ayam sudga berdi. Eri qamalib ketgan ekan, o'gay bolalari chiqishtirmay uydan haydashibdi. Endi kerak bo'libman. Nafaqa undirdi. Negadir o'z onamga o'xshamaydi. Ko'rib yuragim jiz etmadi ham. Shahardan joy topib ko'chirib olib borib qo'ydim. Borib turaman, boramanu begona odamning oldiga borgandek bo'laman. Uylanib ro'zg'or qiladigan paytimda yana tashvish. O'gay ukalar, dadam, onam... O'zim qolib ularning tashvishi bilan bandman. Bolaligimni juvonmarg qilishgan edi. Endi katta bo'lganimda ham shular g'ov. Qani aytchi, qachon sevaman, kimni sevaman? Qaysi bir bechorani tashvishlarimga sherik qilaman?

Ularning ikkovi ham jim qolishdi. Ismoiljon ust-ustiga chekar, har chekkanida papirosning qip-qizil cho'g'i yuzini ojizgina yoritardi.

Bashorat o'ylardi. U haligacha Ismoiljonning to'ngligidan, o'ziga beparvoligidan koyinardi. U bechorani nimalar demadi? Kesak, dedi, tosh dedi. Bashorat yarimta oy atrofni arang yoritib turgan nim qorong'i sokin dala chetida o'tirib shu paytgacha diliga ham ozor, ham quvonch bergan yigitning ko'rgan kunlariga ich-ichidan achinib ketdi. Eng yaqin kishilari o'g'irlab ketgan shodligini, bolalik quvonchlarini qaytarib kelgisi, muhabbatga joy bermagan ko'ksini parmalab otash solgisi, qo'lidan yetaklab qo'shiqqa o'xshagan, nurga o'xshagan, allaqanday ajoyib ohanglarga o'xshagan muhabbat ko'chalariga boshlab ketgisi keldi. Qizlik g'ururini chetga surib qo'yib entikib-entikib gapirdi:

- Meni kim sevardi deding. Men sevaman. Qaysi bir bechorani tashvishimga sherik qilaman, deding. Men sherik bo'laman! Odam bolasining qalbida sevgigayam, g'azabgayam, g'am-tashvishgayam joy topiladi. Qalbga kirib olgan chinakam sevgi tashvishniyam, g'amniyam, g'azabniyam haydab chiqaradi. Shunaqa...

20 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

Bashorat o'ylardi. U haligacha Ismoiljonning to'ngligidan, o'ziga beparvoligidan koyinardi. U bechorani nimalar demadi? Kesak, dedi, tosh dedi. Bashorat yarimta oy atrofni arang yoritib turgan nim qorong'i sokin dala chetida o'tirib shu paytgacha diliga ham ozor, ham quvonch bergan yigitning ko'rgan kunlariga ich-ichidan achinib ketdi. Eng yaqin kishilari o'g'irlab ketgan shodligini, bolalik quvonchlarini qaytarib kelgisi, muhabbatga joy bermagan ko'ksini parmalab otash solgisi, qo'lidan yetaklab qo'shiqqa o'xshagan, nurga o'xshagan, allaqanday ajoyib ohanglarga o'xshagan muhabbat ko'chalariga boshlab ketgisi keldi. Qizlik g'ururini chetga surib qo'yib entikib-entikib gapirdi:

- Meni kim sevardi deding. Men sevaman. Qaysi bir bechorani tashvishimga sherik qilaman, deding. Men sherik bo'laman! Odam bolasining qalbida sevgigayam, g'azabgayam, g'am-tashvishgayam joy topiladi. Qalbga kirib olgan chinakam sevgi tashvishniyam, g'amniyam, g'azabniyam haydab chiqaradi. Shunaqa...

20 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

Yulduzlar hamon o'chib, yonadi, qiyshiq oy terak uchiga jig'a bo'lib, qo'nib turibdi.

Terak uchidan oy dumalab tushib ketdi. Tong otib kelardi.

Ismoiljon Bashoratning qo'lidan chamadonchani olib, mashina tomonga yurdi. Sal o'tmay motor gurulladi. Bashorat mashinaga intildi.

Yeru ko'kka nur purkab otayotgan shu tong Bashoratga izlagan baxtini topib bergandek edi.

Yeru ko'kka nur purkab otayotgan shu tong Ismoiljonga yo'qotgan shodliklarini qaytarib bergandek edi.

- Shu mening chinakam baxtimmikin? B' B' deb o'ylardi Bashorat.

- Shu mening chinakam shodligimmikin? - deb o'ylardi Ismoiljon.

Koshki edi...

Gul haqida hikoyalar

Bir tomchi suv

Nigora bir haftagina qishloqqa onasining oldiga borib keladigan bo'lib qoldi. Eri komandirovkada. Uy Olg'iz qoldi. Poezdga chiqib endi chamadonni o'rniga qo'yayotganida birdan bo'shshib ketdi.

Tuvakdagi gulga suv quyish esidan chiqibdi-ku.

Axir, Nigora uni qanday avaylardi. Kun ora suv quyib chamandek ochilib turgan gullarini hidlab, hidlab olardi. Nima bo'ladi endi?

Eri Kozimjon Kislovodskdan atayin samolyotda olib kelgan edi. Ikki yildan beri uni parvarish qilardi. Yozda hovliga opchiqib

ekar, kuz keldi deguncha yana tuvakka o'tqazib, uyning kungay tomondagi deraza rahiga qo'yardi. Nima bo'ladi endi?

Bitta gul uchun orqaga qaytsinmi? Qaytardi ham, ammo poezd joyidan qo'zg'alib, shitob bilan oldinga intilib ketyapti.

To qishloqqa yetguncha ham shu gul uning xayolidan ketmadi. Nazarida sarg'ayib so'layotgandek, qurib-qovjiragan barglari deraza oldiga to'kilib yotgandek...

U qishloqning qatqaloq ko'chalaridan ketarkan, biron uyning derazasida gul ko'rdimi, bo'ldi, xayoli yana uyiga uchib borar, qurib qolgan gul oldida ma'yus turgandek bo'lardi.

Nigora qaytayotganda qalin qor tushdi. Po'stiniga o'ranib poezdga chiqdi-yu, vagon oynasidan oppoq dalalarni ma'yus tomosha qilib keldi. Nihoyat uyi ostonasiga ham yetdi. Qanday qilib eshikka kalit solganini, qanday qilib deraza oldiga kelib qolganini o'zi ham bilmasdi.

Tuvakdagi gul hamon yashnab turardi. Uning ko'm-ko'k barglari tagidan yana kurtakchalar bo'rtib qolibdi.

Nigora ochilaman deb, turgan g'unchaga engashib dimog'ini tegizdi. Biram xushbo'y, biram xushbo'y!

U, bir hafta suvsiz qolgan bu gulning avvalgidek yashnab turishiga hayron edi.

Oftob deraza qirovini eritib har kuni bir tomchidan tuvakka sachratganidan Nigora bexabar edi.

Bir tomchi suvda qanchalar qudrat borligini u sira-sira xayoliga keltirolmasdi.

Bobo, bola, gul

Bobo eshigi oldidagi supada soatlab o'tirardi. O'tgan-ketganga choy tutib supachasiga taklif qilardi.

Bu bahor u supa yonboshiga kichkinagina gulzor qildi. Chiroyli jo'yakchalar tortib anvoyi gullar ekdi. Mana, bir tup atirgul g'unchaga ham kirdi. Ayniqsa bitta g'uncha ana ochilaman, mana ochilaman deb turibdi. Cholning ikki ko'zi shu g'unchada.

Tikilgan qozon qaynamas degandek uning ochilishi juda qiyin bo'ldi. Bobo unga tikilaverib ko'zlari toldi.

Bir kun ertalab odati bo'yicha sholchasini sudrab supaga chiqa biram chiroyli bo'lib ochilibdiki. Chol tishsiz og'zini ochganicha unga tikilib qoldi. Sholchani supaga tashlab gul tepasiga kelib engashdi. Kafti bilan uni beozor ko'tarib huzur qilib hidladi.

Boboning tabiati ravshan bo'lib ketdi, Sholchani supaga xotirjam yozib choy olib chiqqani kirib ketdi. U qaytib qo'lida choynak-piyola bilan chiqqanda gul bandida yo'q edi. U hayron bo'lib u yoq-bu yoqqa qarasa ko'channing narigi betida bir xotin aravachada o'tirgan ikki yoshlar chamasidagi bolasiga o'sha gulni beryapti.

Boboning g'azabi qaynab ketdi. Bu nimasi, kap-katta odam, bironing gulini uzgani uyalmaydimi? Bu yashnab turgan gul qanchadan-qancha kishilarning bahri-dilini ochardi.

Bola onasining qo'lidan gulni oldi-da, qip-qizil bargchalarini yulaverdi. Birpasda uning oppoq ko'ylaklari, ko'k tovar ko'rpachalari gul yaproqlariga to'ldi.

Bola oppoq qo'lchalari bilan shu yaproqchalarni birma-bir terib tiqmachoqdek tizzalariga sochar, qiyqirardi.

Bobo uning qiyqirishidan, gul barglarini sochib o'ynashidan zavqlanib ketdi. Boyagi jahlidan nom-nishon qolmadi. Qaytib supasiga o'tirdi. Gulning birinchi g'unchasi kuttirib ochiladi. Keyin biri ketidan biri ochilaveradi.

Bobo har gal ertalab chiqqanida gullarining yashnab ochilib turganini ko'rganida negadir o'sha bolani eslaydi. Uning yana kelib gul uzishini, do'mboq qo'llari bilan uni silkitishini istardi.

Uning nazarida

Erta bahorning endigina yerdan qor ketgan kunlari edi.

Shahar o'rtasidagi tug'ruqxona derazasi tagida bir xotin kichkina savatchada gunafsha ko'tarib turibdi. Bir yigitcha derazaga minib olib ko'zi yorigan xotini bilan gaplashyapti.

- Vaqti bo'ldi, hozir olib keladi, ko'rasiz, biram chiroyli, burnilari xuddi chimchilagandek, ko'zlari qop-qora...

Ona bolasini ta'riflashga so'z yetkizolmadi. Ota og'zining tanobi qochib iljayardi. Bolasini tezroq ko'ra qolishga shoshardi.

Nihoyat doya xotin bolasini olib kelib qo'lga berdi. Ona choyshabni yelkasiga tortib uni bag'riga bosdi-da, cho'p-cho'p o'pib oldi.

Bolaning burunlari yalpoq, peshonalari yog' surtgandek, ko'z o'rnida ikkita chiziq edi. Umuman bola yangi tug'ilganda shunaqa bo'ladi.

- Muni qarang, chiroyliligini qarang...

Ota derazadan sug'urilib tushib boyagi xotindan bir dasta binafsha oldi-da, xotiniga uzatdi. Xotin baxtiyor ko'zlarini unga mehr bilan tikib hidladi. Keyin binafsha dastasini bolaning dimog'iga tutdi. Bola g'ashi kelgandek lablarini qimtib qo'ydi. U shunday qilganda og'zi bir tarafga qiyshayib ketdi, ancha vaqtgacha urinib yig'ishtirib ololmadi.

- Voy, buni qarang, bilyapti, hidlashini qarang, voy tavba.

Bola hidlash u yoqda tursin, nima bo'layotganini ham bilmasdi.

- Mushtdakkina bola bahor kelganini bilyapti-ya, binafsha hidlayapti-ya...

Mana shu voqeaga sakkiz yil bo'lgan. O'sha bola bir chiroyli, bir kelishgan qiz bo'lgan. Har bahor kelganda binafsha ko'rsa onaning bahri-dili ochilib ketadi.

- Voy tavba, mushtdek vaqtida binafshani bilganini qarang, hali ko'zini ochmagandayoq binafsha hidlagan-a...

Bu voqea endi ona xotirasida bir umr qoldi, deyavering.

Abadiy gul

Avtobus cho'l o'rtasida to'xtab, suv almashtirib olishi kerak. Bu yerda hech kim yashamaydi. Yo'lovchi mashinalarning suv almashishiga atayin quduq qilingan. Quduqdan ikki metrcha narida bir tup atirgul ochilib turibdi. Uning yonidagi taxtachada shunday yozuv bor:

To mashina motori soviguncha u yoq-bu yoqqa qarab cho'l ni tomosha qilishadi va albatta gulga ko'zlari tushadi. Shunda taxtachadagi yozuvni ham o'qishadi. Birin-ketin piyolada suv oborib gul tagiga quya boshlashadi. Qarabsizki, hademay gul tagidagi chuqurcha suvga to'ladi.

Avtobus yana yo'lga chiqadi. Kimsasiz cho'l o'rtasida shu fayzsiz yerlarga jilva berib birgina gul qoladi. Yana avtobus ko'rinadi, kechga borib yana...

Cho'lning olovdek oftobi uning bargini qurit olmaydi. Tomirlariga jon berib turgan tuproqning namini havoga uchirolmaydi. Chunki bu yerdan kuniga uch marta odam o'tadi, uch marta shu gulga suv beradi.

Bu - abadiy so'lmas gul.

Jajji hikoyalar

Tansiq

Shahrimizga hali qirdan lola kelmagan edi.

Keksalar to'qson chiqdi-yu, oppon-soppon hali turibdi. Bitta qor o'tsin undan keyin hamal kiradi, deyishardi.

Ammo Chilonzor tomonda turadigan bir temiryo'lchi juvon ochiq mashinada bir dasta lola ko'tarib o'tdi.

Hammaning ko'zi uning qo'lidagi lolada. O'tgan ham, ketgan ham qaraydi. Mashina tez yurganidan shamol lolani shunday hilpiratadiki, oftobda u xuddi lov-lov yonayotganga o'xshaydi.

Shu payt shamol lolaning bittasini yulqib oldi-da, ko'cha o'rtasiga uloqtirdi.

Mashinalar katta tezlik bilan biri ketidan biri uchib bormoqda. Shofyorlar lolaga yetay deganda ruKj burib uning yonidan aylanib o'tib ketishadi.

Mana shu ahvolda kun choshgoh bo'ldi. Lola hali ham ko'cha o'rtasida cho'g'dek yonib turibdi. Mashinalar hamon uning yonidan aylanib o'tib ketishyapti.

Yo'lovchilar yuraklarini hovuchlab ishqilib mashina bosib, ezig'lab ketmasin-da, deb tashvish qilishadi.

Oxiri ko'chani tartibga solib turgan militsioner chidamadi. Ko'cha o'rtasiga tushdi.

Mashinalar biri ketidan biri tormoz berib to'xtashdi.

Postovoy ohista borib lolani oldida, furajkasi tagidan chakkasiga qistirib qo'ydi.

Mashinalar g'iz-g'iz o'tib turibdi. Shofyorlar, yo'lovchilar chorraxaga kelganda mashina derazasidan bosh chiqarib, militsioner chakkasidagi lolaga qarashadi. Ularning yuzida bir chiroyli tabassum porlaydi.

Shu kuni lola ochilganini butun shahar bildi.

Odamlar diliga bu yil bahor vaqtlroq kirgandek bo'ldi.

Bir umr...

Teatr maydonidagi sahn bahor kezlari juda gavjum bo'ladi.

Qari-qartang, yosh-yalang skameykalarga o'tirib olib o'zlarini oftobga tovlashadi. Kampirlar aravachalarda nevaralarini olib kelib, o'zlari ko'z oynak ustidan gazetani yalagudek qilib o'qishadi.

Men ham bo'sh paytlarimda shu yerda hordiq chiqarishni juda yaxshi ko'raman.

Bir kun kioskadan gazeta olib o'qib o'tirgan edim, yonimda hassasini skameykaga tirab bir xotin o'tirardi. Uning oldidagi havo rang aravachada nevarasi ipi tugmasiga bog'lab qo'yilgan qizil sharni ushlavololmay qiyqiradi. Kampir unga beparvo, o'tgan-ketganlarni tomosha qiladi.

- Nevarami?- dedim. Kampir o'grilib qaradi.

- Yo'q, aylanay, chevara. Chevara shirin bo'larkan. Onasi yosh. Dadasining o'zi bola. O'zim oyoqqa turg'izib bermasam eplasholarmidi.

- Hali yurmaydimi?

- Yurish qayoqda aylanay. Endi toy-toy turyapti.

Bilaman, bolalar juda ayyor bo'lishadi. Ko'taradigan odamni topishsa sira yerga oyoq qo'yishmaydi. Bu bola ham shunaqa qilayotgandir. Kampirning mehribonligidan foydalanayotgandir.

- Yurib ham ketardi, qish paytida bola yurishga erinadi. Mana oftob odamning yelkasini qizdirib qoldi. Endi yurib ketar.

Kampir shunday deb bolani aravachadan oldi. Ikki qo'ltig'idan ushlab yerga qo'ydi. Bola avvaliga tizzasini bukib tixirlik qilib turdi-da, keyin ikki oyog'ini yerga tiradi.

- Qani, amakinglarga bitta toy-toy turib bergin.

Kampir uni qo'yib yubordi. Bola xuddi havoda muallaq qolganidek omonat turib qoldi, keyin birdan oldinga sho'ng'ib ketdi. Shu sho'ng'iganda o'ng oyog'ini ko'tarib tashladi. Yiqilmadi. Keyin yana bir marta shunday qildi, mast odamdek gandarab yurib ketdi. To'rt-besh omonat qadam tashlab orqasi bilan o'tirib qoldi. Kampir yugurib borib uni ko'tardi. Bola endi aravaga o'tirgisi kelmay, yerga tushishga xarxasha qilaverdi. Kampir uni yerga qo'yishga majbur bo'ldi.

Shu alpozda bola uch-to'rt marta yurishga intildi. Oxiri pildirab besh-olti qadam bosadigan bo'lib qoldi. Kampir xursand.

Ularga qarab turib, o'ylab ketibman.

Bolaning oyog'i yerga tegdi. Birinchi qadami boshlandi.

Eh-he, bu odam hali hayotda qanchadan qancha yerlarni shu oyoq bilan bosib o'tadi. Umr bo'yi...

Haykal

Buxoroda qadim imoratlar ko'p.

Bu ko'hna shahar ko'chalarida xayolchan kezarkanman bir to'da sayyohlar boshi bulutga chulg'angan minoraga qarab turishganini ko'rdim. Ularga keksa bir ilmiy xodim minora tarixini tushuntiryapti. Quloq soldim.

- Yetti yuz yil bo'lgan bu minoraning qurilganiga.

Sayyohlar hayrat bilan yoqalarini ushlashdi.

Men bu xil yodgorliklarni ko'p ko'rganman. Armanistondagi to'rt ming yillik Dvin harobalari, Kegart qal'alarini, necha ming yillar muqaddam yozilib bizga yetib kelguncha toshga aylangan kitoblarni ko'rganman. Shularni odam yaratgan, ularda odam qo'lining izi bor.

Buxoro ko'chalarida kezarkanman juda ko'p xotiralar xayolimdan o'tadi. Asrlar qa'rida qolib ketgan jangu jadallarni ko'rgandek, qilich-qalqonlarning jarangini eshitgandek bo'laman.

Bularning barini tarix shamollari uchirib ketdi. Odamlarning xotiridan yulib ketdi.

Ammo ko'hna devorda qolgan besh barmoq izi hali ham ko'rinish turibdi. Bu ming yillar qa'rida yo'q bo'lib ketgan odam qo'lining izi. Shu azamat binoga g'isht tergan me'mor qo'lining izi.

Odam qo'ligina odamga abadiy haykal qo'yishiga ana o'shanda ishonganman.

Gugurt

Ishdan juda tabiatim ravshan qaytdim. Endi qo'limga gulqaychini olib ayvonga chiqqan edim, eshik taqillab qoldi.

- Aytganicha, esimdan chiqibdi,- dedi jiyanim. - Mirvali aka ikki marta o'g'lini chiqazdi. Uyida mehmonlar bor emish, chiqarmishsiz. Hoynahoy yana bola chiqazadi.

Eshikni ochsam, darhaqiqat, Mirvalining o'g'li. O'sha gap. Hozir chiqaman dedimu, o'ylanib qoldim. Chiqsam, albatta ichkilik bo'ladi. Chiqmasam, qiyomatlik qo'shni, xafa bo'ladi. Noiloj kiyinib Mirvalinikiga qarab ketdim.

- E, shunaqayam bo'ladimi, shu ham qo'shnichilikmi. Qiring uyga. Ishxonadan xo'jayinlar kelishgan.

Mirvali allaqaysi bazada ekspeditor. Demak, baza xodimlari kelishgan. Ular bilan qanday til topaman. Nimani gaplashaman. To

o'ylab bo'lgunimcha Mirvali qo'limdan sudrab ichkariga boshladi. Bir uy odam. Yuqorida, o'ng yuzida danakdek xoli bor o'rta yashar bir kishi kahrabo sopli pichoq bilan qazi to'g'rayapti. U qazini har yaproqlaganda, piyolani bo'shatgan kishining og'ziga o'zi solib qo'yadi. Xoldor kishi men bilan tirsagini tutib ko'rishdi.

- a'zamjon aka,- dedi Mirvali xoldor kishiga meni tanishtirib, - bu kishi kaminangizning yon qo'shnisi bo'ladilar. O'zimizning bola. Kirishimli.

Ko'pchilik bu gapdan keyin menga to'rdan, a'zamjon akaning yonidan joy berdi. O'tirdim. To nafasimni rostlagunimcha, piyola qo'limga kelib qoldi.

- Olasiz, olasiz. Mirvalining esonligiga.

Noiloj qoldim. Ko'zimni chirt yumib turib ichib yubordim. a'zamjon aka o'z qo'llari bilan og'zimga zakuska solib qo'yidilar.

Pastroqda o'tirgan, qo'lga uzuk taqqan yigitga a'zamjon aka ta'na qilib qo'yidilar.

- Bo'ldi, sen ichma, rulda o'tiradigan narsasan.

U yigit qo'lini ko'ksiga qo'yib: "Xo'p aka",- dedi-yu, piyolani olib, yana shimirdi. a'zamjon aka peshonasini tirishtirib: "Shunaqasan-da",- deb qo'ydi.

O'rta kabob keldi. a'zamjon aka o'z qo'li bilan ikki-ikki sixdan rasamadi bilan mehmonlarning likopchasiga qo'ydi.

Boya men kirganda, gap allaqanday artikul to'g'risida borardi. Kabob ustida uzilgan gap ulanib ketdi:

- O'zidan ko'rsin, necha marta aytganman, revizor bilan orani buzma, deb. Revizor xalqi topaman desa, har qanaqasidan ham ishkal topadi.

- Sunnatingiz haddidan oshib ketdi, o'zi. Ro'zg'origa ham savdoning pulidan oladi. Sotuvchining sho'ri, desangiz-chi,- dedi uzuk taqqan yigit.

Ularning gapiga quloq solib o'tirib, shu bazadan mol oladigan biron do'konda ishkal bo'lganini sezdim. Ularning xotirjam gaplashishidan, do'kon mudiri, eplashtirib tinchib ketishiga ham ishonib qo'ydim.

a'zamjon aka, hozir pora bilan ish bitkazish mumkin emasligi, pora bergan ham, pora olgan ham qiya bo'lib ketishini aytib qoldi.

Shunda bir gap esimga kelib, men ham suhbatga aralashib qoldim;

- Allaqaysi bir bazaning mudiri porani sanamasdan olarkan,- dedim. a'zamjon aka kabobni chaynamay lunjiga bosib turib basharamga qaradi:

- Xo'sh, qandoq qilib olarkan?

- O'zining har qaysi do'kon mudiriga kesib qo'ygan taksasi bor ekan. Ular mol olgani kelishganda papiros so'rarkan, papiros bersa, gugurt so'rarkan. Gugurtni chaqib yo qaytib berarkan, yo yoniga solib qo'yarkan. Yoniga solsa, o'sha do'kon mudirining ishi bitgani, qaytib bersa sho'ri qurigani ekan.

- Shunaqami? Birinchi eshitishim,- dedi a'zamjon aka.- Bunaqasini birinchi eshitishim.

- O'sha gugurt qutisida pul bo'larkan, cho'pini yondirayotganda ichiga qarab pulning bor-yo'qligini bilarkan. Pul bo'lsa, yoniga solarkan, bo'lmasa, qaytib berarkan.

a'zamjon aka og'zidagi go'shtni bir-ikki marta lunjida aylantirib yutolmadi, og'zidan olib xontaxaning tagiga tashladi.

- Birinchi eshitishim. Tavba, sizga kim aytdi?

O'lay agar, kimdan eshitganim esimda yo'q edi, shuning uchun ham tayinli bir gap aytolmadim.

Shundan keyin gap gapga qovushmadi. Suhbat muz bo'lib ketdi. Mehmonlar ichkilikka zo'r berishdi. Tilim qichib yana bitta qiziq voqeani ayta boshlagan ham edim-ki, a'zamjon aka jerkib berdi. U ancha kayf qilib qolgan edi.

- Uka, siz bu gapni bir yoqqa qo'yaturing, avval boyagi gapni ayting. Kim o'sha poraxo'r? Shuni ayting.

Nima deyishga hayronman. G'udirladim.

- Yo'q, ayting. Aytmaganingizga qo'ymayman. Isbot qiling. Shunaqa.

Nima bo'lyapti, a'zamjon aka nima deyapti, sira tushunolmasdim.

- Aytmaysiz shundaymi? Demak, qo'lingizda dalillaringiz yo'q. Gaplashamiz, tegishli joyda gaplashamiz. Gugurt qutisidagi pulni o'z ko'zingiz bilan ko'rganmisiz? Ushlab olganmisiz? Javob berasiz! Ha, shunaqa. Qachon, qaysi vaqtda, aytasiz. Kimdan, kimning oldida, aytasiz. Guvohlaringiz bormi?

Mehmonga chiqmay o'lay. O'z boshimga qanday baloni orttirib oldim. Nima qilardim hikoya aytib.

- Siz bilan tegishli joyda gaplashib qo'yaman. Bo'ynimga qo'yib bermasangiz, sharmandangizni chiqazaman. Bekorga benavat bo'ladigan paytlar o'tib ketgan.

Mirvali derazadan meni imlab chaqirdi. O'rnimdan turayotganimda, a'zamjon aka etagimdan tortib o'tqazib qo'ydi.

- O'tirasan. Ketadigan bo'lsang familiyangni aytib, keyin ketasan,- deb turib oldi.

Jahl bilan etagimni siltab turdim-u, chiqdim ketdim. Orqamdan u hamon javrar edi: - Bo'ynimga qo'yib bersin, isbot qilsin. Unaqa zamonlar o'tib ketgan.

Mirvali tashqariga chiqqanimda o'pkalangandek bo'ldi:

- Nima qilardingiz qo'shni, shu gapni aytib. Endi ziyofat ham tatimaydi.

- Nega u kishiga alam qiladi? Men butunlay o'zimga ham notanish odam to'g'risida gapiryapman-ku.

- E, sodda ekansiz-ku, qo'shni. Egasini topib gapirdingiz. Bu o'tirganlarning yonidagi gugurtlar endi cho'ntakdan chiqmaydi.

- Bo'lmasa, endi ketay, o'tirishinglarni buzmay,- dedim-da, eshikka qarab yura boshladim. Uydan hamon a'zamjon akaning ovozi kelardi:

- Familiyasi Xajjayip-a, gaplashib qo'yaman!

Chol kuyov bilan kampir kelin

ZAGS eshigi oldidagi skameykada beqasam to'n kiygan chol bilan krepjorjetdan ko'krak burma ko'ylak kiygan kampir o'tiribdi.

Cholning qo'lida bir dasta gul. Kampir rezinkasi oyog'ini qisib yuborgan shekilli, kapron paypoqni himarib, to'pig'iga tushirib olibdi. ZAGS eshigiga kirgan ham, chiqqan ham ularga qarab iljayib qo'yadi.

Navbat chol bilan kampirga keldi. Ikkovi qizil stol oldiga qo'yilgan stulga omonatgina o'tirishdi. Kampir ro'molga yuzini o'rab aksa urdi. Chol uni kishi bilmas bir turtdi. Kampir o'rnashib o'tirib oldi.

ZAGS mudirasi katta daftarni ochib cholga qaradi.

- Ismingiz, otangizning ismi, tug'ilgan yilingiz? Birinchi uylanishingizmi?

Chol hamma savolta javob berdi-yu, "Birinchi uylalanishingizmi", degan so'roqqa nima deyishini bilmay og'zini ochganicha turib qoldi.

- Javob bermadingiz-ku?- dedi mudira. Chol shoshib javob qildi.

- Shu birinchi uylanishim, bolam. Shundoq deb yoz.

- Yoshingiz yetmish ikkiga kirib, endi uylanyapsiz-mi?

- Yo'q bolam, avval uylanganman. Hakimjon boyvachcha o'g'lini sunnat qildirgan kuni uylanganman.

ZAGS mudirasi hayron qoldi.

- Hakimjon boyvachchangiz kim bo'ldi?

- Xo'jayinim-da. Hakimjon boyvachcha bilan bir onani emib katta bo'lganmiz. Otasi Ziyodulla ko'pos to'rt dahaga tanig'lik edi.

Shu Hakimjon tug'ilganda onasining ko'kragiga sut kelmay, bizning volidaga emizdirgan. Katta bo'lganda xizmat haqingiz uchun o'g'lingiz Irismatni uylab qo'yaman, deb va'da bergan. Ko'pos nomardlik qilib, katta bo'lganimizda Hakimjonni uylab, meni qirga molboqar qilib chiqarvordi. Hakimjon o'g'il ko'rdi. O'zi bu avlodning nasli toza emas ekan, kelinning ham ko'kragiga sut kelmay, bolani volidamizga emizdirdi. Shu bola katta bo'lib, sunnat qilinganda, men yigirma beshni urib qo'ygan edim. Jahlim chiqib Hakimning singlisini otga o'ngarib qochdim.

Kampir ro'mol orasidan gap qo'shdi.

- Dovdiramay o'ling. Ot emas, eshakda opqochgan edingiz.

- Esimda yo'q, esimda yo'q. Sen aralashma, - dedi chol.

- Xo'sh, nima qilgin deysiz? - deb so'radi mudira.

- Bizni nikohlab qo'y, bolam.

- Haligacha nikohinglar yo'qmidi?

- Eski nikohni domkom inobatga olmayapti. Kesak-qo'rg'ondagi Kofir qori nikohlagan edi. La'nati nikoh haqiga yangigina, atigi ikki marta boshlatilgan etigimni yechib olgan.

- Domkom nima deydi?

- E, bolam, tarixi uzoq bu gapning. Hukumat Chilonzordan yangi uy bergan edi. Domovoydan o'taman, deb domkomning oldiga tushsam, kampirimni o'tkazmadi. Buvim sizning xotiningizliklarini men qayoqdan bilaman, deydi. O'n to'rt nevara, sakkiz chevaramni yetaklab aldiga tushdim. Ko'nmaydi. Hujjat kerak, deydi. Qanaqa hujjat kerak, desam, zakska qog'ozini olib keling, deydi. Mana oldingga keldim. Bir balo qil.

ZAGS mudirasi kuldi.

- Bo'пти, ota, hozir to'g'rilab beraman. Endi, aybga buyurmaysiz, qoida shunaqa, so'roqlarimning bittasini ham qoldirmay javob byorasiz.

U kampirga murojaat qildi.

- Ismingiz nima, buvi?

- Quloqdan qolgan, qattiqroq gapir, bolam. Oti Xalcha edi. Qarib, bo'shashib qolganidan uni Xalta deb chaqiraman. Qaysi birini yozsang ham bizga bari bir.

- Xohlab tegyapsizmi, buvi?- dedi mudira qattiq tovushda.

Kampir cholga qarab mug'ombirona kulib qo'ydi.

- Oh, bolam, yoshligim qaytib kelsa bu sassiq cholga o'lsam ham tegmasdim. O'ttiz besh yil oldin meni urgan.

- Eski gapni qo'y,- dedi chol. - Do'xtir isparapkasi yo'q gapni gapirma. Xohlaydi, xohlamay qayoqqa borardi.

Kampir yana gapirdi:

- Hu, o'sha, qo'sha qaringlar, degan kofir qorini yer yutsin.

- Qarg'ama. Kofir qorini yer yutganiga o'ttiz yildan oshib ketdi. Ko'rdingmi, qizim, shu xotin bilan bezakun qirq ikki yildan beri yashayapman.

ZAGS mudirasi ularning gapiga qotib-qotib kulardi.

- Asli bu kampir yaxshilikni bilmaydigan narsa. Domovoydan ham bir amallab o'tkazardim. Bu yoqda boshqa gap ham chiqib qoldi. Hukumat menga oltmish so'm pensiya beradi. Shu kunda sal tobim aynib, yuribdi. O'lib-netib qolsam pensiyamni shu olsin, deb zakska qildiryapman. Zakska bo'lmasa bunga pensiyamni bermaydi.

Kampirning jahli chiqib ketdi.

- Pensiyanigizga zor emasman. Bitta jonimni nevara-chevaralarim boqib olar. O'ligim ko'chada qolmas.

- Ko'rdingizmi. Qulog'im kar deydi-yu, o'ziga kerakli gapni darrov eshitadi.

- Bunaqa gaplarni qo'yinglar. Odamlar kutib qolishdi. Xo'sh, xohlaysizlarmi?

Eshikda kutib qolgan betoqat kelin-kuyovlar ichkariga bostirib kirishdi. Chol bilan kampirning muomalalarini ko'rib, gurillab kulib yuborishdi.

- Xo'p, - dedi chol o'rnidan turarkan. - Hammasiga roziman. Ishni tezroq bitkaz, bolam.

Orqadagilardan biri gap qotdi.

- O'pishishmasa qog'ozni bermang.

- Iya, hali shunaqasi ham bormi? - dedi kampir hayron bo'lib.

- Ha, qoida shunaqa, - dedi mudira jiddiy.

Ular noiloj qolishdi. Chol kampirning yelkasiga qo'lini tashlab uni o'ziga qaratdi.

- O'ptirish ham esingdan chiqib ketgandir. Shoshma! Chol bir yutinib yengini shimardi-da kampirni o'pdi.

- Ha, xotinch, o'ptirishni senga-yu, o'pishni menga chiqazgan-da!

Kulgidan ZAGS derazalari zirillab ketdi.

Chiroqni o'chir

Majlis raisi tikuv fabrikasining direktori Azlarovga so'z berdi. Azlarov salmoqli qadamlar bilan bitta-bitta bosib minbar tomonga yo'l olgan edi, qornida bir nima uzilib ketgandek ikki bukchayib, arang minbarga yetib oldi.

O'rtoqlar!

U "o'rtoqlar"ni shunday qattiq aytdiki, oldidagi qog'oz og'zidan chiqqan shamoldan uchib polga tushdi. Qog'oz dokladning birinchi beti ekan shekilli, Azlarov boshqa gap aytolmay jahl bilan yana bir marta "o'rtoqlar" dedi.

Prezidiumdagilar poldan qog'ozni olib uning oldiga qo'yishdi.

Azlarov birinchi varaqdagi gaplarni tutilmay o'qib berdi. Ya'ni, fabrika kvartal ishlab chiqarishini muvaffaqiyat bilan yakunlagani, mahsulot sifati ko'tarilgani, hamma mollar a'lo navga o'tganini goh iljayib, goh pisanda qilib o'qib berdi. Birinchi varaqdagi gaplar tamom bo'ldi shekilli, ikkinchi varaqni ochmay sarosimaga tushib ancha turib qoldi. Nega u ikkinchi varaqni ochmaydi. Xuddi sandalda qo'lini isitayotgandek yuqoriga chiqarmaydi?

Azlarov shu kuyi uzoq sarosimada turgandan keyin qog'ozni tili bilan varaqlab ochdi-da, qolgan joyidan olib ketdi.

Uning bu ishidan zaldagilar kulishni ham, kulmaslikni ham bilmay, birov iljayib, birov og'zini ochmay yo'talib qo'yaqoldi. Ammo Azlarov to dokladi tugaguncha qolgan yetti bet qog'ozni ham tili bilan varaqlab ochdi.

Doklad qarsaklar bilan tamom bo'ldi.

Doklad-ku, tamom bo'ldi, nega endi Azlarov minbardan tushmaydi. Zalga qaraydi, javdiraydi, prezidiumga qaraydi, javdiraydi.

Nima bo'ldi?

Majlis raisi fabrika veterani - keksa ishchi Qosim otaga so'z berdi. Ammo Azlarov minbarni bo'shatmadi. Chol sahnada turib Azlarovga boshdan-oyoq bir qarab chiqdi-da, sahnaning bu chetiga o'tib, gapini boshladi.

- O'rtoqlar! Fabrikamiz kvartal planini oshirib bajargani rost. Dokladchi o'rtoq Azlarov mahsulot sifati haqida yolg'on gapirdi.

Tikkan kiyimlarimizning sifati rasvo. Men sizga fabrikamizda takilgan eng yaxshi kostyum shimlardan bittasini ko'rsataman.

Chol Azlarovta yuzlandi.

- O'rtoq direktor, sizning kostyumingiz maxsus zakaz bilan fabrikamizda tikilgan, bu yoqqa o'tib xalqqa bir ko'rsating. Ko'rib qoyil qolishsin.

Azlarov nimadir, deb g'uldiradi. Nima deganini birov tushunmadi.

- Ko'rsata olmaydi, hatto minbarning kamgagidan chiqolmaydi ham. Boya doklad yozilgan tezis qog'ozlarni tili bilan varaqlashiga nima sabab bilasizlarmi? O'zim aytib qo'yaqolay. Bitta "O'rtoqlar!" deb kuchangandayoq a'lo navli shimning tugmalari yerga to'kilib ketib, o'rtoq direktorniig ikki qo'li band bo'lib qolgan.

Chol zalga qarab kimnidir qidira boshladi. U axtargan odamini topib, xursand bo'lib ketdi.

- Hoy montyor bolam, chiroqni birpas o'chir, Azlarov uyiga borib boshqa shim kiyib kelsin.

Hali kulgi bosilmagan ham ediki, chiroq lip etib o'chdi. Chiroq yonganda Azlarov minbarda yo'q edi, Majlis raisi navbatdagi notiqqa so'z berdi.

Sobiq

Xoh ishonang, xoh ishonmang, birinchi kuniyoq to'qqiz tonna paxta teribman. Avvaliga o'zim ham hayron bo'lib qoldim. Tavba, shuncha paxtani o'zim terdimmi, yo birov qo'shib qo'ydimi? Ertasiga bir g'ayratga o'n g'ayrat bilan paxta terish mana bunaqa bo'ladi, deb ishga tushib ketdim. To'qqiz yarim bo'pti. O'sha kuni oblastdan, Toshkentdan muxbirlar bosib ketdi. Ovozimni lentaga yozib radiodan eshittirishdi. Televizorda ikki marta ko'rsatishdi. Hamma yoqni xat bosib ketdi. Bunaqa obro' kimning tushiga kiribdi deysiz. Ruhim tetik, bir gapirib o'n kulaman. Yo'talsam ham labbay, deb turishibdi. Raisimiz u yoqqa borsam u yoqqa, bu yoqqa borsam bu yoqqa ergashadi. Bechora meni yeru ko'kka ishonmaydi. Ikki gapning birida:

- O'zingni tut, katta-kichikning oldida sharmanda qilma. Sen bizning mash'alimizsan. Ha, shundoq, soqolingni kunda olib tur.

Dazmol bosilmagan shim kiyma, - deb nasihat qilib turadi.

Ikki kundan keyin gazetaning birinchi betida chakkamga paxta qistirib kulib turgan suratim chiqdi. O'sha kuni rais Berdali aka, yap-yangi "Volga"sini ishlab turgan joyimga yuboribdi. Tez yetib kelsin, deb tayinlabdi. Obbo, bir gap bo'lganga o'xshaydi, deb ishni tashlab idoraga qarab ketdim. Borsam rais ikki oyog'ini bir etikka tiqib, kutib turgan ekan.

- Keldingmi uka, tez bo'l. Kengashga ketasan. Poezd bileting tayyor, uyingga borib kiyinib olgin-u, yo'lga chiq.

Ketdim. Kengash ertasiga ochilar ekan, uch kun oblastda qolib ketdim. Kelgan kunimoq to'ppa-to'g'ri dalaga chiqib, endi mashinaga yetay deb qolgan edim, yana o'sha "Volga" kelib olib ketdi. Idora oldida, usti yopiq yuk mashinasi turibdi. Idoraga kirishim bilan yetti-sakkiz odam atrofimni o'rab olsa bo'ladimi. Kinochilar ekan. Paxta terishimni kinoga olamiz, deb atayin Toshkentdan kelishibdi. Raisning gapini qarang. Ummatalining mashinasida kinoga tushsin, o'sha tomonda paxta yaxshi ochilgan, kinoda chiroyli chiqadi deb turib oldi. Ummatalining yeriga qarab ketdik. Kinochilar o'larcha ezma, shoshmagan odam bo'lishar ekan, ikki kun ovora qilishsa bo'ladimi. Mana, chiqib qolsa ko'rarsizlar, qandoq qilib mashina haydashimdan tortib, peshonamdagi

terni qanaqa qilib, qaysi qo'l bilan sidirib olishimgacha apparatga olishdi.

Kinochilardan qutulib uyga holdan toyib keldim-u, kiyim-boshim bilan uxlab qopman. Ertalab raisning o'zi uyg'otdi.

- Tez bo'l, kutib qolishdi!

- Tag'in kinomi? Kecha tamom qilishgan edi-ku?

- Yo'q, boshqa gap. Rayonda yangi qurilgan madaniyat uyining ochilish marosimi bo'ladi. Ilg'or mexanizatorlardan bir kishi tabrik nutqi so'zlashi kerak. Sen gapirasan. Qani, ketdik.

Gapni ham, ammo-lekin, bopladim. Kunora nutq so'zlab turgandan keyin usta bo'lib ketarkansan. Rosa chapak bo'ldi. Ichkariga mehmonlar uchun joy qildirib qo'yishgan ekan. Artistlar bilan birga o'sha yoqqa kirdik. Rosa pivoxo'rlik bo'ldi.

Uyga kelib endi yotgan edim, eshik taqillab qoldi.

Chiqsam soch qo'ygan, ingichka mo'ylovli bir yigit turibdi. Yelkasida bir metrli faner sumka.

- Xizmat, uka, ishlari bormidi?

- Atayin o'zlarini yo'qlab keldim. Suratingizni ishlashim kerak. Vistavkaga qo'yiladi.

Undoq desam, bundoq dedi, bundoq desam, undoq dedi. Sira gapimga ko'nmaydi. Janjallashib raisning oldiga bordik. Rais koyib berdilar.

- Esing joyidami? Bu vistavkaga qo'yiladigan suratlarining ro'yxatini oblastdan tasdiqlashgan. Qani, darrov bo'l.

O'zingiz bilasiz, raisimizning gapini ikki qilib bo'lmaydi. Ishga tushib ketdik. Rassomi tushmagur hali yosh, tajribasi pishmagan ekan. Rosa to'qqiz kunda o'zimga o'xshatdi. Bu orada uyim xatga to'lib ketdi. Pioneerlar bilan uchrashuv, meditsina xodimlari bilan uchrashuv, mebelKj fabrikasi ilg'or ishchilari bilan uchrashuv... Albatta rais bularga o'zi bilib muomala qildi-yu, ammo, rayonimizdagi pojarniy komandasining keksa xodimi pensiyaga chiqayotgani sababli tabriklashni menga yuklab qo'ysa bo'ladimi. Bordim. Bularning tantanasi g'alati bo'larkan. Yolg'ondakamiga o't ketdi qilib, birdan gupir-gupir yugurib qolishdi. Biri suv sepayapti, biri bolta bilan eski yashiklarni parchalab tashlayapti. Rosa odam yig'ildi. Men uchinchi bo'lib so'zga chiqdim...

O'sha kuni shamollab qolgan ekanman. To'rt kun yotib oldim. Darmonim qurib ishga ketayotsam, rais qovoq-dimog'ini osiltirib samovarning so'risida o'tiribdi. Indamay o'tib ketish uyat. Odobdan emas. Qo'rqa-pisa salomlashdim. U meni ko'r-di-yu, ko'zlari yashnab ketdi.

- E, bormisan! Juda uzoq yotib olding-ku. Bu yoqda shuncha ish, shuncha joydan taklif. Sen bo'lsang arzimagan kasalni bahona qilib yotibsan. Allaqayoqdan atoqli polvon kelayotgan emish, vokzalga chiqib kutib oluvchilar ro'yxatining boshida sen turibsan. Shu bugun kech soat yettida poezd keladi. Kechikmay yetib bor. Mashinani tayinlab qo'yganman.

Bir nima dey desam, raisning fe'lidan qo'rqaman. Chidamadim. Oxiri yorildim:

- Axir, rais buva, bu yoqda shuncha...

Aytdim-ku, rais og'iz ochirgani qo'ymaydi deb, urishib berdi.

- Uncha-muncha odam qadam bosolmaydigan joylarga borayapsan. Noz qilma. Yigit kishining boshiga baxt bir qo'nadi. Qani tur, tayyorgarligingni ko'r! FizkulKjtura komitetidan telefon qilib quloq miyamni qoqib qo'limga berishdi. Uyaltirma-da, uka.

Xuddi soat yettida stansiyaga chiqdim. Koptok tepadiganlarning jamikisi gul ko'tarib kelgan, poezdning vagonlariga yugurishadi. Bir mahal qaragam oltinchi vagonning eshigidan bo'yi salkam bir terak keladigan ekskavator nusxa bir odam tushib kelyapti.

Tikilib qaragam, bir yili dom otdixga borganimda tarvuzni butun yutib o'yin ko'rsatgan polvon. Rayonimizga tosh otib o'ynashni ko'rsatgani kelgan ekan. To'rt kishi, to'rt kishi bo'lib yigirmata toshni sudrashib tushirib qo'ydik. Stansiya bufetida jindek hozirlik ko'rib qo'yishgan ekan, o'tirishdik. Polvonni tabrikladik. Yaxshi kutib olganimizdan sevingan polvon oxirida so'zga chiqib, olti kishilikni bir qilib kosaga quyib qadah ko'tardi. Hammamiz kayf qilib qolib, toshlar stansiyada qolib ketaveribdi. Qolsa qolavermaydimi, uni ko'taradigan mard qayoqda.

Mana, oktyabrKj oyi ham oxirlab qoldi. Mashina terimi tugay deb turibdi. Harna bo'lsa ozroq terib olay, deb dalaga chiqsam mashinam joyida turibdi. Bechorani biram chang bosibdiki, kimdir bo'r bilan yoniga: "Kolxozimizning sobiq voditeli falonchi mavsumda bir hafta dalaga chiqib, shu mashinada paxta tergan" deb yozib ketibdi. Juda alam qildi.

Bunaqa beodob gap yozgan odamni topib rosa ta'zirini berardimu, ishim tig'izroq edi-da. Axir bugun, yosh drujinachilar bilan rayon markazidagi somsapazlikni tekshirishimiz, kaloriyasini aniqlashimiz kerak.

Tuynuk

Badalbek yangi ichkuyov bo'lganidan hali qo'ni-qo'shnilarini tanimaydi. Bugun dam olish kuni, Badalbek nima qilishini bilmay hovlida aylanib yuribdi. Ko'chaga chiqay desa, qayoqqa boradi? Bitta yarimta o'rtog'ini boshlab kelay desa, hali qayin onasining fe'lini bilmaydi. U qo'lini orqasiga qilib aylanib yurarkan devor tepasidan bir g'isht qiya bo'lib tushib ketay-tushib ketay deb turganini ko'rib qoldi. Darrov shotini sudrab kelib devorga tiradi. Shotining bir pog'onasiga oyoq qo'yishi bilan kallasiga: qo'shnining xotini kishidan qochadigan bo'lsa, andeshalik ish bo'lmasmikim, degan o'y keldi.

U po'sht, deb devor tepasiga chiqdi-yu, qo'shni hovliga qaramay osilib qolgan g'ishtni oldi. Bir mahal:

- Hormang, qo'shni, - degan ovozni eshitib beixtiyor hovliga qaradi.

Mo'ylovdor bir yigit deraza moylayotgan ekan, qo'lidagi cho'tkasini bankaga tashlab devor tagiga keldi.

- Qani, bir tanishib qo'yaylik, pochcha, - dedi u ham shotichasini sudrab kelib devorga tirmashar ekan.

Ularning har ikkovi ham devordan bel bo'yi baravar ko'tarilib qo'l olib ko'rishishdi.

- Buni qaranga, qo'shni, yo'g'-e, pochcha, bitta shisha konKjyak qachondan beri egasini topolmay javonimning bir chekkasini xira qilib yotgandi. Egasi o'zingiz ekan-ku. Hozir olib chiqaman.

Qo'shni Badalbekning hay-haylashiga qaramay shotidan tushib uyga yugurdi. Birpasda shimining bir cho'ntagida shisha, bir cho'ntagida piyola bilan lapanglab chiqdi.

- Shoshmang, - dedi Badalbek ham bo'sh kelmay, - singlingiz antiqa varaqi qilgan edi, konKjyakka varaqidan boshqa zakuska o'taversin.

Badalbek bir taxsimcha qilib varaqi olib chiqdi.

Ikki qo'shni devorga bag'rilarini berib bir piyoladan otib gapga tushib ketishdi. Ikkinchi piyoladan keyin devorga minib olib, xotirjam uchinchi piyolani ichishdi.

Badalbekning qaynanasi qizini chaqirib, eringga ayt, yangi kuyov qo'ni-qo'shnilar oldida uyat emasmi, deb qoldi. Ichkuyovga go'rni bir nima deb bo'ladimi? Dunyoda ichkuyovdan nozik narsa yo'g'-a!

- Menga qarang, qo'shni, - dedi mo'ylov. - Asli bizga devorning keragi yo'q ekan.

26 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

Bu gap Badalbekka ham yog'dek yoqib tushdi.

- Mana shu gapingizga borman-da. Qo'shni oshi uzatadigan kichkinagina tuynuk ochib qo'ysak bo'larkan.

- Iya, iya, kichkina emas, durustroq, rasmana bir lagan osh o'tadigan tuynuk bo'lishi kerak.

Ikkovi maslahatlashib hozirning o'zida tuynuk ochadigan bo'lishdi. Qo'shni u tamondan, Badalbek bu tomondan tesha urib ishga tushib ketishdi. KonKjyak zo'r kelib birpasda tuynuk ochildi. Ammo mo'ljal to'g'ri bo'lmagan ekan, yonma-yon ikkita tuynuk ochilib qoldi. Qo'shni hazilga olib: bittasi zakuska uzatishga, deb hiringlab kuldi.

Tuynukning chetlarini somonli loy bilan chiroyli qilib suvab qo'yishdi. Tuynuk-ku chiroyli chiqdi-ya, ammo Badalbekning kuyovlik sarpolari rasvo bo'ldi. Xotini g'iring deyoimadi, ichkuyovga go'rni bir nima deb bo'ladimi!

KonKjyak konKjyakligini qildi-yu, Badalbek ayvonda uxlab qoldi. Bir narsa taraqlab uyg'otib yubordi. Boshini ko'tarib qarasa kimdir tunuka tomni taraqlatib yuribdi. Badalbek jahl bilan hovliga tushdi. Bir bola tomda kaptar quvib yuribdi.

- Hoy, qanaqa yaramas bolasan, tush tomndan. He axloqsiz!

Tuynukdan qo'shnining mo'ylovi ko'rindi.

- Pochcha, undoq demasinlar, bizzi erkatoya.

Badalbek indamay uyga kirib ketdi. Kechga yaqin qo'shnining so'kingani eshitildi.

- Hu egangga o'xshamay o'l!

Badalbek hayron bo'lib turgan edi, baraq mushuk tuynukdan jon holatda sakrab o'tib uning oyog'iga suykaldi.

- Hoy, qo'shni, unaqa demasinlar, mushuk hayvon, bilmagan-da!

Uch-to'rt kungacha ikkala qo'shni ne-ne umidlar bilan ochilgan qo'sh tuynukka yaqin kelolmay yurishdi. Ichkuyovchilik emasmi, Badalbek sal narsaga zarda qiladigan, sal narsaga arazlaydigan qiliq chiqazdi. Qaynonasi uning bu fe'lidan kuyinib nasihat qilgan edi Badalbek bobillab berdi. Xotin oraga tushib ishni katta qilib yubordi. Butun oila a'zolari uch kungacha bir-birlariga to'rsayib yurishdi. Ro'zg'orchilik emasmi, yana boyagi-boyagi bo'lib ketishdi. Bular-ku unutilib yuboriladi, ammo uydagi gap tuynukdan chiqib ketgan ekan og'izdan og'izga, quloqdan quloqqa o'rmalab o'tib moshdek gap tarvuzdek bo'lib uyga qaytib keldi. Badalbek qo'shninikiga emas ko'chaga tuynuk ochganini bilib qoldi. Qo'shni tushmagur bularnikidan tiq etib tovush chiqsa tuynuk tagiga kelib o'tirib olar ekan.

To'yga kelolmagan og'aynilaridan uch-to'rttasi Badalbekni tabriklash uchun sovg'aga magnitofon ko'tarib kelib qolishdi. Hovliga suv sepib, supaga joy qildirib, o'rtoqlarining oldiga dasturxon yozdi. Yigitlar magnitofonni qo'yib yuborishdi. Devor orqasidan qo'shnining yo'talganini Badalboy eshitmadi. Qo'shni qattiqroq yo'taldi. Badalbek yana eshitmadi. Oxiri qo'shni tuynukdan bosh chiqarib soat so'radi. Ammo Badalbek qo'shnining mehmonlar oldiga chiqqisi kelayotganidan bexabar bilagiga qarab: chorakam olti, deb qo'yaqoldi. Qo'shni birpasdan keyin yana tuynukdan bosh suqib, avtoruchkaning siyohi bormi, deb so'radi. Badalbek yo'q, dedi.

Mehmonlar o'yin-kulgi qilib o'tirishipti. Badalbek yelib yugurib xizmat qilib turibdi. Qo'shni eshikdan kirib mehmonlar bilan birma bir ko'rishib, telefon qilmoqchi edim, deb ayvonga o'tib ketdi. Ancha vaqtgacha kim bilandir cho'zilib gaplashdi. Hech kim uni dasturxonga taklif qilmaganidan, zarda bilan trubkani joyiga tashladiyu olifta yurish qilib chiqib ketdi. U chiqib ketganidan sal o'tmay devordan tutun yopirildi. Mehmonlar o'tirgan supa devor tagida bo'lganidan tutun buralib-buralib ularning ustiga yopirilardi. Birov yo'talib, birov ko'z yoshini artib nima bo'ldi, degandek Badalbekka qaradi. Badalbek bo'lsa jahl bilan tuynukka boshini suqdi. Qarasa qo'shni devor tagida katta samovarga ho'l o'tin tashlayapti.

- Hoy, qo'shni, insof kerak, samovarni sal narroqqa oling.

Qo'shni uning betiga qaramay to'ng'illadi.

- Endi o'z uyimda ham choy qaynatib icholmayman-mi?!

Badalbekning qaynonasi qo'shnining fe'lini bilarkan shekilli, ayvonga joy qilib mehmonlarni o'sha yoqqa taklif qildi. Magnitofon yana sayrab ketdi. Bir mahal tuynukdan qo'shnining xotini bosh suqdi.

- Hoy, insof degan narsa bormi? Bolamni uxlatolmayapman-ku. Anavi savilning ovozi o'chirsanglar-chi. Qanaqa betamiz ichkuyov ekan, bu!

Badalbekning zardasi qaynab shartta o'rnidan turdi-yu, tuynuk og'ziga samovar patnisni mixlab keldi. Qo'shni ham daranglatib bir baloni qoqib tashladi. Ertasiga ikkala qo'shni loyga qorishib bir-birining betiga qaramay tuynukni suvab qo'yishdi.

Ana shundan keyin qo'shnilar tinchib ketishdi. Yaqinda Badalbek eshigining oldidagi tolni sug'arayotganida mahalla komissiyasining muovini bir gap aytib qoldi. Qo'shni unga, sizga atab Yerevandan bir shisha antiqa konKjyak oldirib kelgan edim, manavi turqi sovuq qo'shni ichib qo'ydi, konKjyak ham qulog'ini ushlaganacha uvol ketdi deganmish. Badalbek ham bo'sh kelmadi.

- Yaxshi ham sizga buyurmagani, konKjyak emas, ichiga qant kuydirib solingan o'zimizning jaydari araq edi, b' b' dedi.

Ikki qo'shni yuz ko'rmas bo'lib ketishardi-yu ko'pchilik bo'lib, yana tuynukni ochib qo'yishdi. Qo'shni singlisini kuyovga chiqazayotgan edi, mahalla aktivlari o'rtaga tushib Badalbekning hovlisiga qozon qurishdi. O'sha tuynuk boshqatdan ochilib undan palov ham o'tdi. Mastava ham. To'y o'tib hali tuynuk bekilgani yo'q. Ishqilib ko'z tegmasin, oxiri baxayr bo'lsin, shu tuynuk bahona oling qo'shnim, bering, qo'shnim, bo'lib turibdi.

Ha aytganicha qo'shni uch-to'rt kishi bo'lib ot so'yib qazi qildirayotgan ekan, Badalbekka, siz ham sherik bo'ling, deb katta boshini kichik qilib atayin chiqibdi, Badalbek ham odam, bir gap aytdi.

- Telefonga qiynalyapsiz, ikkovimizniki bir nomer bo'la qolsin.

Qo'shni sevinganidash bitta konKjyagim bor, olib chiqaymi, deb qoldi.

Badalbek yo'q deyoimadi.

O'sha kuni ikki qo'shni bir-birini yalashdi, yulqashdi. Biri akamsan, dedi, biri ukamsan, dedi. Oxiri shu bo'ldiki, bunaqa ahil qo'shnilarga devordagi tuynuk torlik qilayotgani ma'lum bo'ldi.

Hikoyamni nima bilan tugatay? Ular shu xilda ahil bo'lib ketishdi desamu, ketidan bir ishkali chiqib qolsa nima qilaman?

O'liptimi, ishkali chiqmas.

* * *

Ushbu hikoya bitib nashriyotga olib ketayotganimda yangi gap eshitib qoldim.

Sher

Yoshlik paytlarimda Qo'zivyoy degan o'rtog'im bo'lguvchi edi. Buni qarang, shu ko'chadan o'tib keta turib o'shani ko'rgim kelib,

27 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

samovarga kirdimu surishtirdim.

- Qaysi Qo'zivoy, - deyishdi samovardagilar hayron bo'lishib.

- Mo'minjon akaning o'g'lida.

- E-ha, - dedi qulog'iga tanga qistirgan mo'ylovdor samovarchi. - Qo'zivoy demang, Shervoy deng. Shundoq bo'lib ketgan.

Hayron bo'ldim. Qo'zi qo'yning bolasi, yuvosh narsa bo'ladi. Mo'minjon aka ham, o'z otidan ma'lumki, qo'y og'zidan cho'p olmaydigan odam. Nega shu odamning ne umidlar bilan mo'mingina bo'lsin deb ism qo'ygan bolasi birdan sherga aylanib qoldi? Mening hayron bo'layotganimni sezgan samovarchi kulib gap qo'shdi.

- Qo'zivoyni sher emizgan. Sher boqqan.

U shundoq dediyu, samovarning tagiga cho'p tiqib, o'z ishiga ovora bo'lib ketdi. Undan boshqa gap so'rolmadim. Indamay chiqib ketayotgan edim katta tolning' tagiga bir taksi kelib to'xtadi. Undan qorin tashlagan, soqol mo'ylov qo'ygan bir kishi tushdi. Tikilib qaragam Qo'zivoy. Voy tavba, odam degan ham shunaqa to'lishib ketadimi. Qo'zivoyning ochiq ko'krigidan yoli buralib, buralib chiqib turibdi. Basharasi ham, ko'kragi ham xuddi sherga o'xshaydi. Sher deyishlari bejiz emasga o'xshab qoldi. O'xshaydi, o'lay agar o'xshaydi.

O'zimni tanitgan edim Qo'zivoy quchog'ini ochib kelib, bag'riga bosib ko'rishib ketdi. Voy bo'! Odam bolasida shunaqa kuch bo'ladimi? Qovurg'alarim qisirlab ketdi-ku! Sher deganicha bor. Sher, Sher!

- Sher bo'lib ketibsan-ku,- dedim belimni silab.

Bizning uchrashuvimizni kuzatib turgan samovarchi yana gap qotdi.

- Sherning normasini urib turgandan keyin sher bo'ladi-da!

Uning gapiga tushunolmadim.

Samovarga kirdik. Qo'zivoy xaltasidan bir bo'lak son go'shtini olib podnosga tashladi.

- Qovurma-povurma qilib tashla, oshnam kelib qoptilar. Qolganini bitta-yarimtaga pullarsan.

O'sha kuni kechgacha qolib ketdim. Qovurma juda antiqa bo'lgan ekan, gapning ochig'ini aytsam bunaqa shirin go'shtni umrimda yemagan edim.

- Menga qara, Qo'zi, qaerda ishlayapsan? Nima ish qilasan?

- So'rama, oshna, ishimning mazasi yo'q. Senga o'xshagan og'aynilarim katta-katta ishlarda turib, men bechora qayoqdagi past ishlarda yuribman. Hayvonot bog'iga zavxozman. Qayoqdagi hayvonlar orasida yuribman.

Unga rostdanam rahmim keldi. Bir o'ng kelib qolsa durustroq ishga o'tqazib qo'yishni niyat qilib qo'ydim. Rost-da, gavdasi ham, kuchi ham sherga teng keladigan bir qadrdomim hayvonlar orasida yursa, yaxshimi!

Oradan o'n kunlar chamasi o'tib bolalarni hayvonot bog'iga olib bordim.

Aylanib turli-tuman hayvonlarni tomosha qilib yuribmiz. Zambarg'altakka suyak-sayoqlarni solib g'ildiratib kelayotgan Qo'zivoyga ko'zim tushib qoldi. U g'altagini sher qamalagan qafasning oldiga kelib to'xtatdi.

Sher o'ladigan darajada ozib, cho'p bo'lib ketibdi. U Qo'zivoyga xo'mrayib qaradi-da, keyin yuzini teskari o'girib oldi.

Astoydil qaragam qafasdagi rostakam sher bir vaqtlar men bilgan Qo'zivoyga o'xshab qopti. Ipdak ingichka Qo'zivoy rasmona sherga aylanib ketibdi. Nazarimda Qo'zivoy qafasda-yu, sher bu yoqda turganga o'xshaydi.

Endi bildim. Samovarchi bilib aytgan ekan.

Qo'zivoy sherga beriladigan go'sht-yog'larni yeb o'zi sher bo'lib, sherni Qo'zivoy qilib qo'yibdi.

Tamom, davomi yo'q

Er-xotin baxtiyor edi.

Xotin lampochkaga bolasining paypog'ini kiydirib, tavonini yamab o'tirardi. Er divanga yonboshlab beozor mudrardi. Xotin erining mudrashini tarqatmoqchi bo'lib, biron gap o'ylab topaman deydi-yu, gap o'lgir kela qolmaydi. U o'ylab-o'ylab oxiri bir gap topgandek bo'ldi.

- Hoy, er, muncha mudraysiz? Mundoq erkaklarga o'xshab qiziq-qiziq gaplardan aytib kuldiringiz-chi.

Er bir ko'zini arang ochib esnadi-da, eshik g'ichillaganga o'xshash g'alati tovushda po'ng'illadi.

- Ha, qiz bolamiding-ki...

U shunday dedi-yu, yana ko'zini yumdi.

- Shoshmang, shoshmang, ko'zingizni oching. Mabodo o'n sakkiz yashar yigit bo'lib qolsangiz, nima qilardingiz? Yana o'zimga uylanarmidingiz?

Er ensasi qotgandek joyidan qo'zg'aldi. Erinchoqlik bilan divanga chordana qurib oldi-da, labining bir tomoni bilan iljaydi.

- Bu masalani durustroq o'ylab ko'rish kerak bo'ladi. Qani endi o'sha o'n sakkiz yoshim qaytib kelsa, o'zim bilardim-a, o'zim bilganim shuki, senga uylanmasdim, Voobshe, uylanmasligim ham mumkin.

Erning birdan faylasufligi tutib ketdi.

- Agar inson bolasiga ikki marta yashash imkoniyati berilsa, ko'p xato ishlar to'g'ri bo'lib ketardi. Mana, o'pkamning mazasi yo'q, bu nimadan, papirosdan. Birinchidan, shu qurib ketgurni chekmasdim. Mana, oshqozonimning mazasi yo'q. Nimadan, ichkilikdan. Ikkinchidan, shu aroq o'lgurni ichmasdim. Ko'rib turibsanki, asabimning mazasi yo'q, buning nimadanligini bilmaysan-a, bilmaysan. Bu sening javringdan. O'n sakkiz yoshga sirpanib qaytib tushib qolsam, eng birinchi qiladigan ishim senga uylanmaslik. Mabodo o'zingta uylanadigan bo'lsam, oldingga qo'yadigan shartlarimni bitta obshiy daftarga erinmay yozib chiqardim. Masalan, unda shunaqa shartlar bo'lardi:

"Dazmol bosishni bilasizmi, jonim? Piyoz to'g'ragan pichoqda qovun so'ymaysizmi? Tugma degan jonivorni qadashni bilasizmi? (Voobshe, tugmaning teshigi qaerdaligini bilasizmi?) Telefonning qulog'i sizdan bo'shaydimi? Ulama sochni udayam taqib yurmaysizmi? Biron joyga mehmonga boradigan bo'lsak, vaxliroq kiyinib olish qo'lingizdan keladimi? Biron yili kurort degan joydan qolasizmi? Mehmon kelsa hammadan oldin to'rga chiqib olib, ishni menga tashlab qo'ymaysizmi? Yopkan noningizdan qil chiqmaydimi? Majlisdan, yo'q, voobshe, kech kelganimda kostyumimning yoqasini hidlab ko'rmaysizmi? Xullas, meni tinch qo'yasizmi yo'qmi?.."

Mana shu shartlarga ko'nsang o'zingga uylanardim. Bo'lmasa kimga uylanishni, baraka topkur, o'zimga qo'yib ber!

Xotin xandon tashlab kuldi. Uning bu kulgisida alam bilan zaharxanda aralashga o'xshardi. Er yana tilga kirdi.

- Xo'sh, endi sen ayt. Mabodo, falakning gardishi aylanib, sen o'n sakkiz yashar qiz bola bo'lib qolsang yana o'zimga tegarmiding?

Bilaman, albatta o'zimga tegarding, mendaqa tayyor er, voobshe, mendaqa laqma er kosmosda ham, yerda ham topilmaydi. Endi

xotin tilga kirdi.

- Mabodo atom bombasini bir yelkamga, vodorod bombasini bir yelkamga osib qo'yib, shu Sotimxo'jaga tegmasang, hozir portlatvoraman desa, portlatvor-e, jonim rohat oladi, derdim.

Er ikki ko'zini soqqadek dum-dumaloq qilib, "voy-bo'y" deb yuborganini bilmay qoldi.

- Agar yaxshilikchasiga, shunga tegasanmi, deb so'rashsa oltita odamni guvoh qilib, uch tom kitobga sig'adigan shartlarni oldingizga ko'ndalang qilib qo'yardim. Shartlarim mana bundoq bo'lardi:

"Singlingizga meni yomonlamaysizmi? Kayf ustida bog'chadan o'zingizniki qolib birovning bolasini yetaklab kelmaysizmi?

Papiros kulini gilamga tashlamaysizmi? Echki go'shti bilan qo'y go'shtining farqini bilasizmi? Dugonalarim mehmonga kelganda to'rga chiqib, suyalib o'tirib olmayisizmi? Mast bo'lib qolib, meni tanimay, o'zimni o'zimga yomonlamaysizmi? Tish cho'tkasi bilan brezent botinkangizni tozalamaysizmi? Sakkizinchi martning nima ekanini bilasizmi? Majlisdan kelganingizda yon cho'ntagingizdan ikkita kino bileti chiqmaydimi? Maosh olganda paypoqqa pul bekitmaysizmi? Mensiz mehmonga borganingizda galstugingizni teskari taqib tong otarga yaqin kelmaysizmi?.."

Er "voydod", deb o'rnidan turib ketdi. Xotin yana davom ettirmoqchi edi, er qo'lini ko'ksiga qo'yib, tavba qildim, deganga o'xshash g'alati ko'z suzdi. Yo'q, xotin bo'sh kelmadi. Oxir er tiz cho'kib xotining etagini o'pdi.

- Jon xotin, o'rgilay xotin, endi bas qil. O'n sakkiz yoshga qaytib tushmay men o'lay. Voy-bo'... ichingda shuncha darding bormidi! Qo'y endi, kechqurun majlisga boradigan odamman, nastroenamni buzma.

Xotin ikki qo'lini beliga tirab engashdi:

- Nima, bugun dam olish kuni, qanaqa majlis bo'ladi?!

Er nima deyishini bilmay, ko'zlarini pipiratib turib qoldi.

Yuk

Kupega kirganimda pastki qavatning ikkalasi ham band edi. O'ng tomonda hassaga tayanib bir mo'ysafid, chap tomonda esa tugunchasini tizzasiga qo'yib homilador xotin o'tirardi. Xotin meni ko'rishi bilan o'rnidan turdi.

- Joyingizni olib qo'ymadimmi?

Mening joyim yuqorida edi. Uni tinchitib, chamadonchamni polkaga irg'itdim-da, o'zim ham bir sakrab chiqib oldim. Poezd jo'nashiga uchinchi qo'ng'iroq urilganda ikki qo'lida zildek chamadon ko'targan bo'yni yelkasiga tutashib ketgan bir kishi kirdi. U atrofga qaramay, to'ppa-to'g'ri xotinga yuzlandi.

- Joyni bo'shating, bu meniki.

Xotin iymanib o'rnidan turdi. Shu payt eshik oldi-da provodnik paydo bo'ldi.

- Grajdanin, siz yuqoriga chiqa qoling, bu odam, ko'rib turibsiz-ku, homiladorlar.

Bo'yni yo'g'on passajir istehzo bilan kuldi.

- Attang, bilet olayotganda kassirga qorinni ko'rsatmagan ekanman-da.

Xotinning lablari titrab, ko'z milklari namlandi. Bu beodob odamning qiliqlariga chidayolmagan chol o'z joyini bo'shatib, inqillab yuqoriga chiqdi. Xotin hijolat, chol tajang. Bo'yni yo'g'on bo'lsa pixillab, qornini qashiydi.

Men uning sovuq qiliqlariga qarab yotib, yoshlikdagi bir o'rtog'imni eslab ketdim. Bolaligimda Oppon degan bir o'rtog'im bo'lardi. Sira boshidan qasmoq arimasdi. Onasi uni cho'miltiradigan bo'lsa ertalabdan boshiga qatiq chaplab qo'yardi. Oppon ko'chaga chiqiboq boshidagi qatiqni barmog'i bilan sidirib yalab qo'yardi. Oppon bilan soyda mol boqardik. Sigirlarni o'tga haydab, yumronqoziqning iniga suv quyib o'ynardik. Oshnam do'ppisida suv tashir, men esa in og'zida yumronqoziqning chiqishini kutib o'tirardim. Bir gal oshnam juda uzoqlab ketdi. Kutib o'tirib zerikdim. Uni qidirib borsam, sigirimizning tagiga kirib, miq-miq emyapti.

Ikki oyoqli buzoqning badnafsligiga chiday olmagan sigir shatirlatib uning peshonasiga tepdi. Oshnam o'tga dumalab ketdi.

Bu bo'yni yo'g'on odamning qaeridir o'sha oshnamga o'xshab ketardi. Axir, oradan 30 yildan ortiq vaqt o'tdi. Unutgan bo'lishim mumkin. O'sha oshnamning o'ng peshonasida sigir tuyog'ining izi bor edi. Engashib qaradim. Yo tavba, o'zi. Beixtiyor qichqirib yubordim.

- Hoy, hoy, menga qara! Oppon emasmisan?

Oshnam bo'ynining yo'g'onligidan darrov qaray olmadi. Butun gavdasi bilan burildi. Qoshlarini kerib, yelkasini qisgandek bo'ldi. Yelkasi bilan bo'yni bir bo'lganidan qornining o'zi silkindi, xolos.

- Tanimayapman, birodar, o'zingizni taniting.

Cho'kkalab o'tirib oldim.

- Nahotki tanimayapsan?! Peshonangdagi tir-tiq...

Oppon endi tanidi.

- E, u gaplar o'tib ketgan.

- Qaerdasan? Nima ish qilyapsan?

Oppon bu savolga hali-beri javob bermoqchi emas edi. Oldiga yozib qo'ygan yaxna go'sht, shokolad, sarimsoq, piyoz, olmalarni bitta-bitta tanlab lunjiga tiqardi. Uning o'rniga chol javob qildi.

- Opponbek yog'liq ish topib olganlar. Tug'ruqxonada peredacha qabul qiladilar. Uncha-muncha suyunchi olib turadilar.

Chol Opponni gapirgani qo'ymay, qulfi-dili ochilib ketdi.

- Esingizdami, Opponbek, kelinimdan xabar olgani borganimda sizga yo'liqqan edim. Qog'ozga ham qaramay, javob qilgan edingiz. Keliningiz o'g'il tug'di, nevara muborak, deb besh so'mimni olgan edingiz. Shu gapdan keyin kelinim rosa ikki hafta o'tganda qiz tuqqan.

Oppon qirrali stakan labiga tuxum urib chaqdi-da, yaxshilab archib, lunjiga soldi. Keyin palag'da tovush bilan po'ng'illadi:

- Tuhmat.

- Axir, Oppon, jiyaning seni institutni bitirib, injener bo'ldi degan edi-ku.

U tuxumni yutib, ketidan og'ziga soladigan narsa qidirarkan, javob berdi:

- Yoningda bitta diploming bo'lsa biqiningdan teshib chiqmas, biron kuningga yarab qolar.

Kattagina bir stansiyaga yaqinlashar edik. Oppon shoshib-pishib yuklarini yig'ishtirib koridorga otildi. Kupeda undan yodgor bo'lib tuxum po'choqlari, sho'r baliqning dumi, g'ijimlangan qog'ozlar qoldi.

Chol afsuslangandek uh tortib qo'ydi.

- Xudo ko'rsatmasin, shunaqa odamlar hukumatga bir ish ko'rsatib qo'ysa bormi, tramvayga ham pul to'lamay qo'yadi. Shu toifa odamlar hamisha yurt mendan qarzdor deb biladi. Yurtdan qarzi bo'lsa bermaydi. Axir, nomard, yo'ling bir stansiyagina ekan, nima qilarding xotin kishini bezovta qilib?

Chol stol ustida tebranyotgan stakanga qarab nimanidir o'yladi.

- Poezd tezlab ketdimi deyman?

- Ha, - dedim, - boyagi og'ir yuk tushib qoldi. Parovoz yana tezlab ketadi endi.

Darhaqiqat, poezd uchar, provodnik bo'lsa Oppondan qolgan sarqitlarni qirtishlab so'kinardi.

Sag'ana

O'lik degan o'z izzati bilan kafaniga o'ralib, tobutda qimirlamay yotgani durust bo'larkan. Tobut yo'lakda, kafan g'assolning yelkasida. Ammo murda hovlida kelgan- ketganlarga qo'l qovushtirib, derazadan patnis uzatib, ko'ngil so'rganlarga, "bandalik ekan, qandoq qilay..." deb yursa juda xunuk ko'rinar ekan.

Mahalla qorovuli tong qorong'isida xonadonlarning eshigini taqillatib, Boqi Xalfa omonatini topshirdi, peshinga janoza o'qiladi, deb xabar berdi. Odamlar ertalab ishga ketish oldidan marhumning qarindoshlaridan birrov ko'ngil so'rab chiqaylik, deb yig'ilishdi, ammo eshik oldida Boqining bel boylab turganini ko'rib, hang-mang bo'lib qolishdi. O'lgan boshqa Boqi bo'lsa kerak, mahallada yana Boqi otli odam bormidi, deb o'ylanib qolishdi.

Bu mahallada shu Boqidan boshqa Boqi yo'q edi. "O'lgan" ham shu Boqining o'zginasi edi.

Boqi Xalfa - ancha toparmon-tutarmon kishilardan. Sibirga olma oboradi в Ъ pul topadi. Shisha banka yig'ib, yuvib sotadi - pul topadi. Choydan chiqqan zar qog'ozni qirqib, oynaga yopishtiradi, makkai-mukarramaning surati bu, deb sotadi - pul topadi. Xom yong'oq po'stlog'ini quritib elakdan o'tkazib, xining asiliga kepqoling, deb yana pul topadi. U yoqqa boradi - pul topadi, bu yoqqa keladi - pul topadi.

Yoshi ham payg'ambarga akalik qilsa bo'ladigan joyga borib qolgan. Shariatpanoh musulmonlar payg'ambar yoshidan nariyog'ini harom sanashadi. Xalfa ham harom yoshdan hazar qilib, tirik vaqtida janozasini o'qitib qo'yimoqchi bo'ldi.

- O'lib ketsam, zumrasha bolalar menga janoza o'qitarmidi, harakatimni qilib qo'yishim kerak...

Boqi shu niyatda katta qabristondan bir yarim murda sig'adigan joyni olib, taksida g'isht, sement tashitib, tirik odamning ham havasi keladigan qilib sag'ana qildirdi, patnisdek keladigan marmarga yarmi forscha, yarmi o'zimizning tilda nomini qo'shdirib bayt ham bittirib qo'ydi.

"Tuproq aro yotur munda, Soqi o'g'li Boqi murda.

Tavalludi 12... hijriy, vafoti 13... hijriy".

Sag'ana bitib, janozaga tayyorlik tamom bo'lgandan keyin, Boqi katta qozonda osh damlatib, yurtga yedirmoqchi bo'ldi. To'rt mahalladan odam aytili. Ikki qori biri olib, biri qo'yib, o'qib turibdi. Ayniqsa, Satang qori deganining ovozi bulbuldek ekan, qiroatini kelishtirilmasa ham patnis ashulaga o'xshatib sura orasida ikkita katta avj qo'shib aytarkan.

G'assol ko'pni ko'rgan, ish bilarmon kishi edi. U "murdani" chetga chaqirib:

- Boshpurtni topshirib, domovoydan o'chmagan bo'lsangiz, sizni yuvmayman, benovot bo'lishdan qo'rqaman, - deb qoldi.

Boqi Xalfa yonidan falonchi o'ldi, ko'mish mumkin, degan qog'ozni olib ko'rsatdi. Ana shundan keyin g'assol ikki chelak issiq suv olib, Boqini ichkari uyga boshlab kirdi. Uni yechintirib, taxtaga tortdi. Doka xalta bilan badanini obdon sovunlab yuvib, irimiga bosh-oyoq kafan aylantirib, yana yechib oldi.

Xalfa atir sovundek yiltirab chiqqanda mahallaning o'yinqaroq bolalari, savobdan quruq qolmaylik, deb o'choq oldida qittak-qittak qilishayotgan edi. Ular Boqini ko'rib bir-birlarini turtib qo'yishdi.

- Mulla amaki oydek chiroyli o'lik bo'ptilarmi...

Marosim tugadi. Janoza ham o'qildi. Murda armonda qolmasin, deb uni bir necha minut tobutga ham solib olishdi. Bo'sh tobutni yerdan ko'tarishayotganda boyagi mast yigitlardan biri:

- Mulla amaki qanaqa odam edilar?- deb qoldi. Bu gap go'rga qo'yiladigan paytda aytilguchi edi. Biroq shu topda mast odamning gapini chualashtirmaslik uchun:

- Durust odam edi, - deb qo'ya qolishdi.

Shu kuni xotinlar yo'lakda chuvvos solib tobut orqasidan sochlarini yulib qolishdi.

Hangomaning qizig'i keyin chiqdi. Boqi o'lishga o'lib qo'yib, tirik paytida ko'rmagan sho'rishlarga duchor bo'ldi. Murdaning uyda yotib yurganidan darak topgan uchastkavoy yo'q odam uyda turishga haqi yo'q, deb po'pisa qildi. Shundan keyin u kechasi devor panalab kelib, tomda yotib yurdi. Kuz kirib, tomga qirov tushib, yotish qiyin bo'lib qolgandan keyin ko'rpa-yostig'i bilan marmar viveskali dang'illama g'ishtin sag'anasiga ko'chib ketli.

U, qora kunimga yarab qolar, deb ikki ming so'm pulni omonat kassaga qo'ygan edi. Shu pul endi asqotib qoldi. Kassaga borgan edi, pasport so'radi. U o'lgani uchun pasport ko'rsatolmadi, o'lganman, deyishga qo'rqdi.

- E, esi yo'q murda, - deb peshanasiga shatirlatib bittani tushirdi.

Hozir Boqi Xalfa go'rkovning cho'zma-chalpagiga sherik bo'lib, uning ensasini qotirib yuribdi. Go'rkov ham anoyi emas ekan:

- Sizdaq tekinxo'r murdalarning ko'pini ko'rganmiz. Ishlagan tishlaydi. Cho'zma-chalpak haqiga lahabop qilib guvala quyib berasiz. Bo'lmasa sag'angizga boshqa o'lik qo'yvoraman, - deb to'polon qilib qoldi.

- Obbo! - dedi Xalfa. - Har bir bandai mo'min vaqtida, o'z ajali bilan o'lgani durust ekan.

Taqdirga tan bergan Boqi hozir belini boylab guvala quyyapti. Charchagan paytlarida qaddini rostlab, do'mbayib ketgan qabrlarga hasad bilan qarab qo'yadi. Kech kirishi bilan marmar lavha tagidagi teshikdan emaklab kirib ketadi. Go'rkov unga hazillashib:

- Joyingiz jannatda bo'lsin, xalfam, ertaga vaqtlitiroq chiqing! Guvaladan qarzingiz bor, - deb hiring-hiring kuladi.

Yelim

Hammom o'zi shunaqa joy, hammani onadan tug'ma qilib qo'yadi. Kim payg'ambaru, kim ummat - bilib bo'lmaydi. Odam bolasi kiyim bilan ekan.

Bu gaplarning ma'nisini Musaxon pochchadan so'rang. U kishini tanimassiz, ehtimol: bo'yi pastgina, qo'llari kaltagina odam. O'zi shu yaqin o'rtadagi raz'ezdlardan birida bufetchilik qiladi. Qilaman desang, kalta qo'l bilan ham ancha ish qilish mumkin ekan.

Kichkinagina bufetning orqasidan kalta qo'l bilan bola-chaqa boqib, orzu-havas ko'rib, uchastka tiklab, kelin tushirib, qiz chiqarib yuribdi-ku, bundan ortig'i kimga kerak!

Xo'sh desangiz, Musaxon pochcha yaqinda hammomga tushgan ekan. Yechinib issiq xonada mazza qilib terlabdi-da, sovuqxonaga kirib cho'mila boshlabdi. Boya aytdim-ku, qo'llari kalta deb. Kimning qo'li uzun kimning qo'li kaltaligini bilmoqchi bo'lsangiz, hammomga tushing, Mana, Musaxon pochchani nimaligi ham bilinib qoldi. Cho'milayapti-ku, orqasiga sovun tegmaydi. Ikki kuragining orasi mag'zava bo'lib turibdi. U to'sni boshiga kiyib, xonalarni aylanib chiqdi. Tanish yo'q. Bir o'rta yashar kishi Qorboboga o'xshab ko'pikka belanib o'tiribdi.

- Hoy uka, - dedi Musaxon pochcha, - orqamni ishqab qo'ysangiz-chi, baraka topkur.

U kishi boshidan suv quyib o'rmidan turdi. Musaxon pochcha engashib turdi, u boplab ishqab qo'ydi. Shundan keyin Musaxon pochcha yana to'sni boshiga kiyib, indamay ketaverdi. Ishqalagan kishi piching qildi:

- Ho mulla aka, rahmat qani?

Musaxon pochcha do'ng'illadi:

- Har bir to'qqiz pullik narsaga ham rahmat aytaversang, butun tirikchilikni yig'ishtirib qo'yib, rahmatdan bo'shamay qolasan. Shunga ham rahmatmi?

Musaxon pochcha shundan keyin boshidan uch-to'rt to's suvni shar-shar to'kdi-yu, kiyingani chiqib ketdi. O'sha kuni u atirsovundek yaltirab, qip-qizil bo'lib avtobusda raz'ezdga chiqib ketdi-da, bufetni ochdi. Odam yaxshi yuvinsa, toza kiyinsa, tabiati ravshan bo'ladi. Musaxon pochcha bugun bir gapirib o'n kuladi. Nazarida savdo ham yaxshi ketayotganga o'xshaydi. Xullas, Musaxon pochcha bugun dimog'ida eng kamida yetti-sakkiz qo'shiqni hirgoyi qilib, ishni tamom qildi. Tushgan pullarini sanab hamyonga urib, kundagi odati bo'yicha kech oltidagi skoriy bilan stansiyaga kelib pul topshirdi. Buxgalter "pochcha, yangi xo'jayin bilan tanishib chiqmaysizmi?" deb qoldi.

- Tanishamiz, tanishamiz. Quruq kirsak bo'laverarmikin? Bu galcha shundoq bo'lib tursin.

U shunday deb, labida ertalabdan qolgan tabassum bilan direktor kabinetining eshigini ochdi.

Ochdi-yu ostonadan na u yoqqa, na bu yoqqa o'tishini bilmay turib qoldi.

- Kelavering, kelavering, bemalol, - dedi direktor.

Musaxon pochcha bo'shashib oldinga yurdi. U tamom o'zini yo'qotib qo'ygan edi. Bu, direktor, ertalab hammomda Musaxon pochchani orqasini ishqab qo'ygan kishi edi. Direktor ham uni tanidi.

Musaxon pochcha qani nima bo'larkin deb, indamay boshini egib turaverdi... Oxiri direktorning o'zidan sado chiqdi:

- Siz ham bizning sistemada ishlaysizmi?

Bu nima degani? Bu sistemaga to'g'ri kelmaysan degani emasmi?

- Ha, endi, bola-chaqaning nasibasi ekan, qimirlab turibmiz.

- Juda soz, - dedi direktor salmoqlab.

Musaxon pochchani bo'ladigani bo'lib qoldi. Beixtiyor cho'ntagiga qo'l solib, bufetning kalitini ushladi:

- Jon uka, bir ahmoqlik qildim, kechiring. Meni quvmang. Sizdek odamga shunday itlik qildim, jazomni xudo bersin.

Direktor hayron bo'ldi:

- Siz menga nima gunoh qila qolgandingiz?

- Bugun ertalab, ertalab hammomda orqamni ishqab qo'ygandingiz.

Direktor kulib yubordi.

- E, o'sha kishi sizmidingiz? Butunlay esimdan chiqib ketgan ekan. Xo'sh, nima qilibdi?

- Rahmat aytish esimdan chiqqan ekan. Ataylab shuni aytgani keldim. Qulluq, qulluq, uka, martabangiz bundan ham baland bo'lsin. Endi bizga javobmi?

Direktorning ensasi qotib: "javob", dedi. Musaxon pochcha orqasi bilan yurib chiqib ketdi.

U chiqib ketgandan so'ng, direktor sekretarni chaqirib, bu odam kelsa ikkinchi oldimga kiritmang, deb tayinladi. Ammo Musaxon pochcha kunora kelib sekretarning bay-baylashiga qaramay kabinetga kirar, shundoq martabali odamga orqasini ishqalatgani uchun uzr aytib ketishni kanda qilmasdi.

Oxiri direktor bezor bo'lib ketdi. Qandoq qilsin. Iloji yo'q. Bu toifa odamlardan qochib qutulmasang boshqa yo'l bilan qutulib bo'larmidi. Yelim-ku, yelim ular.

Bir yuz yetmish sumlik xurrak

(Bir oblastKj teatridan reportaj)

Tomosha boshlanishiga hali o'n to'rt minut bor. Artistlar grim qilib bo'lishgan. Sahna orqasida qilich-qalqon taqqan, dubulg'a kiygan kishilar domino o'ynab o'tirishibdi. Bosh rolda chiqadigan atoqli artistka parda chetini ko'tarib zalga mo'raladi. Oldingi qatorda ikki kishi, o'rta qatorda besh kishi o'tiribdi. Hamon ko'chada tomoshabin chaqirayotgan to'rt karnay, besh surnay va olti chirmandaning shovqini eshitilib turibdi. Atoqli artistka etagini sudrab direktor kabinetiga keldi.

- Bo'ladimi?

- Bo'lish-bo'lmasligini ixtiyorimizda qolgan o'n ikki minut hal qiladi.

Direktor shunday dedi-yu, bosh administratorga yuzlandi.

- Sbor qancha?

- O'n sakkiz so'm.

- Qoidada qanday?

- Sbor o'n to'qqiz so'mdan, tomoshabin o'n beshtadan ohsa spektaklKj ko'rsatilaveradi.

- Bo'lmasa tomoshani qoldiramiz.

- Haqqimiz yo'q. Qoidada spektaklKj boshlanish minutida tomoshabin o'n beshtaga yetmasagina qoldiriladi. Yana sabr qilamiz.

Direktor darg'azab bo'ldi.

- Bitta odamni kutib o'tiramizmi? Bordi-yu o'sha o'n beshinchi tomoshabin kelib qolsa sho'rimiz quriydi-ku.

Bir hisoblab ko'ring, o'sha bitta tomoshabin bizga necha so'mga tushadi.

Bosh administrator stolga bag'rini berib o'tirdi-da, qo'lga qalam-qog'oz olib hisoblab ketdi.

- Bugungi tomoshaga qirq olti odam qatnashadi. Sakkiz sahna ishchisi, bir rejissyor, bir rejissyor yordamchisi, elektr ustasi, ikki grimchi, sahna mashinisti, kostyumchi, bir pojarniy, suflyor, sartarosh, to'qqiz chalg'uvchi, bir dirijyor, ikki shofyor, to'rt kontrolyor, bosh rassom, badiiy rahbar, jami sakson besh kishi qatnashar ekan.

Direktor barmoqlarini bukib, nimalarnidir sanay boshladi.

- Elektr energiyasini hisoblamadingiz. Boz ustiga uch uborshitsa. Tomosha davomida ikkita vaza sinishi kerak, - direktor artistkaga qaradi.- Undan tashqari sizning oshig'ingiz uchinchi ko'rinishda ko'ylagini yirtib tashlaydi. O'n olti marta o'q uziladi. Ana shularni bir cho'tga solib ko'ring-chi, bugungi tomoshaga qancha xarajat bo'larkin? Maoshlar ham hisobga kirsin. Endi ikkovlab hisoblab ketishdi. Bunaqa hodisa ilgarilari ham bo'lib turar ekan, shekilli, hisob birpasda chiqdi. Bosh administrator boshini ko'tardi.

- Bugungi tomoshamizga bir yuz sakson to'qqiz so'mu yetmish to'rt tiyin xarj bo'lar ekan.

- Daromad-chi?

- O'n to'qqiz so'm. Ana shu o'n to'qqiz so'mni chiqarib tashlasak bir yuz yetmish so'mu yetmish to'rt tiyin zarar qilarkanmiz.

U gapni tugatmagan ham ediki, uch marta chiroq o'chib tomosha boshlanishidan darak berdi. Direktor bilan bosh administrator zalga qarab yugurishdi.

- Xayriyat, o'n to'rt kishi - dedi direktor hovliqib, - qoldiring!

Uning yonida turgan kontrolyor shoshib gapga aralashdi.

- Bufetda yana bitta tomoshabin o'tiribdi. Uning gapi tugamay o'rta yashar bir kishi kirib, o'z o'rnini qidira boshladi.

Tarvuzi qo'ltig'idan tushgan direktor teatrga bir yuz yetmish so'mu yetmish to'rt tiyin zarar keltiradigan shu tomoshabinning yoqasidan bo'g'ib, ko'chaga opchiqib tashlagudek unga o'qraydi.

- Menga qarang, - dedi u administratorga. - Yalining, yolvoring, mayli uch-to'rt so'm xarj bo'lsa ham mayli. Bufetga opkirib u-bu olib bering. Biletini topshirib, pulini qaytarib olsin.

- Ko'narmikin?

- Ko'ndiring. Ko'nmasa kabinetimga chaqiring, ikki kishilashib yalinamiz.

Administrator ming tavoze bilan o'n beshinchi tomoshabinning oldiga bordi. Unga kamoli ehtirom bilan salom berdi. Dilidagi gaplarni astoydil tushuntirib to'kdi. O'n beshinchi tushmagur bir so'zli o'jar odam ekan. Ko'nmadi.

- Aka, shu tomoshani ko'ramiz, deb atayin uzoqdan kelganmiz. Ko'ramiz.

- Jon aka, teatrga rahmingiz kelsin. Artistlarga rahmingiz kelsin. Bola-chaqangizning rohatini ko'ring-u, tomoshamizni ko'rmang.

- Ko'ramiz, ko'rmay ketmaymiz.

Administrator boshqa yo'l bilan unga ta'sir o'tkazmoqchi bo'ldi.

- Shu ham tomosha bo'ptimi, aka. Undan ko'ra direktor kabinetiga kirib pivoxo'rlik qilamiz. Direktorimizning o'zlari eriydilar.

- Bo'lmaydi. Tomosha ko'rgani kelganmiz.

Bu orada qolgan o'n to'rt betoqat tomoshabin chapakchalib, parda ochilishini talab qila boshladi. Administrator noiloj direktor kabinetiga kirib bo'lgan voqeani aytib berdi. Endi u ham noiloj edi. Nihoyat tomosha boshlandi.

Sahnada qirqdan ortiq odam u yoqdan bu yoqqa yugurib multiqbozlik qilyapti. O'lganlar o'lib, qolganlar qochyapti. Orkestr tinmay g'at-g'ut, gumbir-gumbir qilib turibdi. O'rtada boyagi taniqli artistka sochini yulib faryod chekyapti...

Antrakt boshlandi. O'n beshinchi qaysar tomoshabin bufetga chiqib ikki shisha limonadni urib kelib, yana o'z joyiga o'tirdi.

U ikki qo'lini chalishtirib sahnaga qarab o'tiraverdi, rolKj o'ynayotganlar ora-sira unga qarab qovoqlarini solib qo'yishardi. U esa hamon beparvo. Administrator qorong'ida timiskilanib yana uning oldiga keldi.

- Qo'ying endi, uyingizga borib uxlasangiz-chi, Nima qilasiz bizni qiynab. Uyqungiz kelib ko'zlaringiz qisilib ketyapti.

- Nima dedingiz? Uyingga borib uxla deysizmi? Qishloqdan kelganman.

- Qaysar, qaysar, bir yuz yetmish so'mu yetmish to'rt tiyinga tushiryapti-ya!

Sahnada hamon gumbur-gumbur. Zalda atigi bittagina odam, u ham bo'lsa bilinar-bilinmas xurрак otyapti.

Gap

Hamma gap gapda.

Soliya amma qorani oq deb ishontira oladi. Oqni qora qilib ko'rsatish unga bir qultum suvni yutgandek gap.

Kelinini yomonlaganda:

- Ha, ishlab nima topardi. Yarim oylik moyanasiga sakkizta dirdov qo'y ham kelmaydi.

O'g'lini maqtaganda:

- Yarim oylik moyanasiga sakkizta bo'rdoqi tovuq keladi.

Kuyovini maqtaganda:

- Kuyovimning ichganidan bo'shagan shishalariga ikki oila bemalol ro'zg'or tebratsa bo'ladi.

Akasini maqtaganda:

- Ishqilib topib kelmasa hamki, erkaklik uyning fayzi boshqacha bo'ladi-da.

Qudasini yomonlaganda:

- Biram bachkana, biram bachkana, kalavotda yotishiga balo bormi?

Qizini maqtaganda:

- Shu kenja qizim ham opalariga o'xshab nozikkina chiqdi. Yursa hovli to'lib ketadi. Avtomobili yo'q odam ostonamga sovchi yuborib, ovora bo'lmay qo'yaqol-sin.

O'zini gapirganda:

- Yoshligimdayam shunaqa kelishimlikkina edim, uncha chiroylik emasdim-ku, lekin istaram o'lgur issiq.

Xullas, kim qanaqaligini bilmoqchi bo'lsa Soliya ammani oyna qilib qarasin. O'zini "tochniy" ko'radi.

Adresi: Ko'kcha, Qatiq bozori.

Chuchvara

Majlisda unga:

- Sen bola, chuchvarani xom sanab yuribsan. Shoshma hali, jo'jani kuzda sanaymiz. Bu qanaqasi, sirkang suv ko'tarmaydigan bo'lib qopti, - deyishdi.

Xoliqning tepa sochi tik bo'lib ketdi. U uch yildan beri paxta brigadasida boshliq. Brigadaga o'tishdan avval parranda fermasida, undan keyin uzumchilik zvenosida edi. Paxtaga o'tib hech kimga gap bermay qo'ygan. Chopiq ham, sug'orish ham rasvo. Ana shuning uchun uni bugun taxtaga tortib, rosa tanqid qilishdi. Ammo umrida tuzukkina tanqid yemagan Xoliq bu gaplarni shaxsiyatdan deb tushunib, o'rnidan turib ketdi.

- Endi menga navbat! Mening sha'nimga juda ko'p nojo'ya gaplarni aytdinglar. Hammasiga javob tayyor: chunonchi, sirkasi suv ko'tarmaydi, dedinglar. Nimaga shama qilyapganlaringni bilaman. Uzunchilik zvenosida ishlaganimda sirka solganman. Lekin, men uni chug'urchiq cho'qigan g'ujumlardan solganman. U suv ko'taradimi, yo'qmi - O'zim bilaman. Ikkinchi masalaga o'taylik: jo'jani kuzda sanaymiz, dedinglar. Bundan ikki yil oldin parranda fermasini uchma-uch qilib topshirganman. Jo'jasi ham, xo'rozi ham to'ppa-to'g'ri chiqqan. Endi uchinchi masala: chuchvarani xom sanadi, deysizlar. Mana shu gap menga og'ir botdi. Qani aytinglar-chi, mening chuchvara sanayotganimni kim ko'riпти? Kimning uyiga kirib chuchvaraga qo'l tegizibman? Voobshe, men chuchvara yemayman.

Xoliq asosiy masalani chetga surib, gapni chuchvara tarafga buradi.

Uning ezmaligi me'dasiga tekkan agronom dung'illadi:

- E, chuchvarang qursin, paxtadan gapir!

- Yo'q, - dedi Xoliq qat'iy, - men chuchvara masalasini biryog'lik qilmasdan boshqa gapga o'tmayman!

O'tirganlar baravardan uh tortib yuborishdi.

XURRAK

Odamning qanaqaligi safarda bilinadi.

Kalonxo'jaev o'rinbosar tanlashga juda usta odam. Mana, Mo'minov degan mo'mingina odamni o'ziga o'rinbosar qilib oldi.

Bechora Mo'minov musichaning o'zi. Kalonxo'jaev qo'ng'iroq bosib chaqirganda egilib, g'ildirakka o'xshab g'ildirab kiradi-da, uning gaplarini churq etmay eshitib, koptokka o'xshab yana dumalab chiqib ketadi.

Umuman Kalonxo'jaev o'rinbosardan yolchib qoldi. Bugun ular safarga - komandirovkaga chiqishdi. Mo'minov qo'sh chemodan ko'tarib Kalonxo'jaevning orqasidan mehmonxona nomeriga kirdi. Choy opkeldi, handalak opkeldi.

Kalonxo'jaevning jahli chiqdi. Mo'minovning yelkasidan turtib uyg'otdi. U bechora momaqaldiroqdek bir-ikki qaldirab, xurraging oxirini katta avj bilan tushirib, boshini ko'tardi.

- Nima gap, xo'jayin, choymi? Hozir.

- E, xurрак ham evi bilan-da!

- Xo'p, xo'jayin, bu yog'i evi bilan bo'ladi.

U bu gapni shunday ishonirib aytdiki, boshqa gapga o'rin qolmay Kalonxo'jaev yana yotdi.

Uyqu shirin narsa. Uyqu nozik kishiga pashsha g'ing'illasa ham bo'ldi - uxlolmaydi. Kalonxo'jaev deganimiz esa, yostig'iga qirov tushsa ham ovozi eshitadigan odam. Mana u ko'zini yumdi. Yumdi-yu, yuragi o'ynab ketdi. Kimdir derazadan bomba tashladi.

Bomba yomon portlarkan. Derazalar zirilladi, eshikning qulfi buzilib, ochilib ketdi. Kalonxo'jaev dod, deb o'rnidan turdi. Yo'q, hamma yoq tinch. Mo'minov bitta, ammo kelishtirib kalta xurрак tortgan ekan.

Kalonxo'jaev qayta yotolmadi. Stulga o'tirib, mudray boshladi. Birdan pulemyotbozlik boshlanib qoldi. Bu ovozing o'chkr pulemyotning lentasi nega tamom bo'lmaydi-ya! Ko'zini ochib qaray desa, Kalonxo'jaevda qani yurak. U arang bir ko'zini ochib qaragan edi, pulemyot-mulimiyot yo'q. Mo'minov labini titratib xurрак otyapti. Qalonxo'jaev g'azab bilan qo'lga qog'oz, qalam oldi-da, nimalarnidir yozdi. Keyin Mo'minovning tepasiga kelib yelkasidan turti.

Mo'minov erinib ko'zini ochdi. Kalonxo'jaevni ko'rib:

- Choymi, xo'jayin! БЪ” dedi.

Kalonxo'jaev qog'ozni qo'lga tutqazdi. Mo'minov xatni chiroqqa solib o'qisa, buyruq:

"... ishni eplolmagani uchun vazifasidan bo'shatilsin!

B Kalonxo'jaev..."

Iqror

Rahmonali ko'ngli poshsho bo'lib kelardi. Bugun ham xotinini dog'da qoldirib, o'sha joyga bordi. Maishat kechagidan ham zo'r bo'ldi. Bugun xotiniga nima bahona qilsa ekan? U uyga yaqinlashgan sari bahona topishga shoshardi. Shunga ham bahonami?

Kechagi majlisning davomi bo'ldi, deb qo'yaqoladi-da!

Taksi ularning eshigi oldiga kelib to'xtashi bilan orqama-orqa yana bir taksi keldi. Undan ro'molga o'ralgan bir ayol tushdi.

Rahmonalining yuragi orqasiga tortib ketdi. Bu uning xotini Zarofat edi. Obbo, poylab borganga o'xshaydi. Bilgan, qaerdaligini, kimning uyidaligini bilgan. Ikkala taksi ham qorong'u ko'chani yoritib orqaga qaytishdi. Rahmonali yuragi betlamay bo'shshib so'radi:

- Zarofmisan?

Zarofat javob o'rniga ho'ngrab yig'lab yubordi.

Rahmonalining badaniga tiroq kirdi. Oyog'i qaltiradi. Endi nima qilsaykin? Tonsinmi? Ko'zini baqraytirib turib-a?

Zarofat piq-piq yig'laganicha uning yonidan o'tib eshikka kalit solib ochdi. Er-xotin oldinma-ketin hovliga kirishdi.

Rahmonalining kallasi mokiday ishlardi-yu, befoyda edi. Nima desaykin? Tonib bo'lmaydi. Boshqa bahonaning iloji yo'q.

Hammasini ko'rgan. Bilgan. Qiyomat qiladi. Har holda hovlida gap boshlasa, to'polon bo'lib, qo'ni-qo'shnilar eshitishi mumkin.

Nima bo'lsa ham uyga kirib gaplashish kerak. Uning ko'nglini olish kerak. Xotinlarni yaxshi gap bilan yo'lga solsa bo'ladi. Qani, bir urinib ko'rsin.

Rahmonali shu o'ylar bilan ichkariga kirdi. Xotini stolga boshini qo'yib hamok piqillab yig'lardi.

Bu ahvolda uni hech narsaga ko'ndirib bo'lmaydi, deb dilidan o'tkazdi Rahmonali. To'g'risini aytib, tavba qilish kerak. Bundan boshqa yo'l yo'q! Rahmonali jur'atsizlik bilan xotining tepasiga keldi.

- Xotin, nima desamikin? Nima bo'lganini o'zing bilib turibsan. Ahmoqlik qildim. Nima qilay, egilgan boshni qilich kesmaydi.

Zarofat yalt etib unga qaradi. Rahmonalining yuragi jig' etib ketdi. Muz parchasini yutvorgandek ancha vaqtgacha o'ziga kelolmay entikib turib qoldi.

- Bunaqa qarama-da, aybimni bo'yninga olyapman-ku, tag'in nima deysan. Shu ikki bolaning hurmati, endi bunday qilmayman.

Kechagi majlis ham yolg'on edi. Kecha ham hali o'zing ko'rgan joyga borgan edim. Uning qosh-ko'zlariga uchibman. Shirin so'zlariga uchibman. Ayb o'zimda, bola-chaqalik kap-katta odam begona xotinga aylanishib yuribman...

Zarofat yana unga qaradi. Endi uning ko'zlaridan o't chaqnardi. Rahmonali bu qarashlarga tob berolmadi. Butun vujudi karaxt bo'lib qotib turardi. U ko'zlarini chirt yumganicha, yana gapirdi.

- Istasang, ikkinchi bunday qilmaslikka raspiska beraman. Ko'r ekanman, qadringni bilmagan ekanman. Mayli, ur, uraqol meni, tep, orqamga tep, roziman, mendaqa yaramas erning jazosi shu.

Zarofat uning gaplariga chidolmay narigi uyga chiqib ketdi. Orqasidan Rahmonali ergashib kirdi.

- Endi qo'ygin, jon xotin, erkak boshimni xam qilib to'g'risini aytyapman. Nahotki kechirmasang. Endi u xotinning basharasiga ham qaramayman. Tamom. Poy-lab boribsanda-a, hammasini ko'ribsanda-a, shunchaki, ko'ngli uchun bordim. Turgan-bitgani bo'yoq.

- Nari turing, yaqin kelmang! Essiz odamgarchilik.

Rahmonali tiz cho'kdi:

- Oyog'imdan o'p desang o'paman. Orqamdan emaklab yur desang emaklab yuraman, meni kechirsang bo'lgani. Endi ishdan bir sekund ham kechikmay uyga kelaman. Ko'rasan, bundan buyon moyanamga ham baraka kiradi. Aytdi dersan. U yaramas xotinga endi hech narsa olib bermayman.

Zarofat o'girilib qaragan edi, Rahmonali orqasida, oyog'ining tagida tiz cho'kib, ko'zlarini pir-piratib turibdi. Zarofatning rahmi kelib ketdi. Bir zumda kallasidan: qilmishiga pushaymon bo'lib turibdi-ku, hammasini aytib beryapti-ku, mayli bu galcha kechira qolay, degan o'y o'tdi.

- Turing o'rningizdan. Uyat kerak. Bu galcha kechirdim, ikkinchi shunaqa ish qilsangiz, ostonaga qadam qo'ymay o'sha yoqdan daf bo'ling.

Rahmonaliga jon kirdi. Xotining oyog'idan, bilaklaridan, yelkalaridan yig'lab-yig'lab o'pdi.

- Muni qara-ya, boribsan-a, ko'ribsan-a.

Zarofat piqillab kulib yubordi:

- Hech qayoqqa borganim yo'q. Sizni kutib o'tirib uxlab qopman. Tush ko'rsam, siz o'lib qopsiz. Idorangizdagilar qabristonda miting qilib ko'mib qo'yishdi. Uyg'onib ketib biram ko'nglim g'ash bo'ldiki, yotib yotolmadim, o'tirib o'tirolmadim. Xayolimda sizga bir nima bo'lgandek, yo avtobus, yo tramvay urib ketgandek bo'laverdi. Idorangizga bormoqchi bo'lib taksiga chiqayotsam, o'zingiz kelib qoldingiz. Men bu yoqda qandoq tashvishlar qilib yuribman-u, siz bo'lsangiz...

- Bo'ldi, bo'ldi, bu yog'ini gapirma. Gapni tamom qildik-ku. Aylantirma.

Rahmonali yechina turib, e ahmoq deb, peshonasiga bitta urdi.

Bu hangoma er-xotinning orasida qolib ketdi. Ammo Rahmonali ertalab ishga ketayotganida xotining qo'lidan o'pib, ishdan kelganida peshonasidan o'pishini eshitganlar nima gapligini bilolmay hayron.

Bordi-yu, olgan maoshining tiyin-tiyinigacha sanab xotining qo'lga berishini eshitsalar, nima deyisharkin?

Har qalay, uydagi gapning ko'chaga chiqmagani durust bo'ldi. Rahmonali bu sirni mendan boshqa kishiga aytmagan. Men ham haligacha sir saqlab yuribman.

Xomtalash

"Kambag'al bo'lsang ko'chib boq, boyvachcha bo'lsang o'lib boq" degan gapda hikmat ko'p ekan. Bu hikmatning ma'nisi kechqurun bilindi. Mahallaning so'fisi marhumning bevasini ayvonga chaqirib, qolgan marosimlarni qandoq o'tkazish to'g'risida yo'l-yo'riq ko'rsata boshladi.

- Yanga, bir o'lim hammamizning ham boshimizda bor. O'lgan o'ldi. Qolganga qiyin. Endi shundoq qilsangiz: yettisiga bir qo'y so'yasiz. Olti mahalladan odam aytiladi. Alalxusus, yigirmasida ham shundoq bo'ladi. Har shanba kuni mahalla qariyalarini chaqirib, osh-tuz qilib duoyi-fotihani uzmayisiz. To qirq kungacha arvoch chirqillab, uy atrofida aylanib yuradi. Ha, shundoq. Kampir ko'zlarini pipiratib nima deyishini bilmay turardi. Uning eri unchalik oshib-toshib ketmagan, ro'zg'origa yarasha pul topib kelgan odam edi. O'lgandan keyin bunaqa xarjlarni sira xayoliga keltirmagan. Kampirni vahm bosdi. Bir yilgacha bu tariqa xarjlarga pulni qaydan oladi. Rasm-rusmi qilmasa ayb bo'ladi. Yurt nima deydi? Arvoch eshik oldida chirqillab yurgan bo'lsa. So'fi yana gap boshladi.

- Yanga, marhumning qarindosh-urug'lari ko'p edi. Akasi, ukasi, singillari, jiyanlari. Bu hovli marhumning otasidan qolgan. Hovlida shu sag'irlarning mahri bor. Ana, eshik oldida turishipti. Shu gap janjalga qolmay, issig'ida hovliga narx qo'yib merosxo'rlarning mahri belgilab qo'ysak.

Eshik oldida turgan mahrtalablar quloqlarini ding qilib ayvon tarafga qarashdi. Hammasining egnida qimmatbaho kiyimlar, qo'llarida tilla soat, oyoqlarida xirom etik, uchi nayza tufli. Biri qorin tashlagan, birining bo'yni yiltiragan, biri brilliant ko'zli uzuk taqqan...

Beva kampirning egnida qora ko'ylak, boshida ham motam munosabati bilan bo'yalgan shtapelKj ro'mol. Oyog'ida tak charmi ikki marta yangilangan kavush. Uning holatidan, nihoyatda tang ahvolda qolgani bilinib turardi. Oxiri u jur'atsizgina qilib gapirdi.

- Bu, axir, o'likni talash emasmi? Bu uy o'lgur ertami-indin buzilib ketadi. Nimasini talashishadi. Bir yilgacha marosimlarni o'tkazaman, deb qoqqanda qozig'im, osganda xurmacham qolmaydi. Jigar bo'lsa, aka bo'lsa, uka bo'lsa, singil bo'lsa, mundoq yonimga kirib xarjlarni sal yengillatishsin-da.

Bo'yni yiltiragan mahrxo'r tilla tishini yaltiratib gap qotdi.

- Kelin aya, sarfni ayamay qilavering. Hovli sotilgandan keyin mahr hisobidan raschyotini to'g'rilaymiz. Bu yog'iga xotirjam bo'lavering.

- Ha, shundoq bo'laversin, - dedi qorin tashlagan mahrtalab. - Ammo, lekin, xarjni unchalik katta qilib yubormang. Mahr taqsimida uncha-muncha qo'limizga ham tegadigan bo'lsin.

Marvarid shodali zirak taqqan, ponbarxat ko'ylagining yengini shimarib bolasiga holvaytar yedirayotgan mahrxo'r xotin gap qotdi:

- Qandoq xarj bo'lsa akalarim, ukalarim hisobidan bo'lsin, xotin boshim bilan nega men qilarkanman. Mening mahrimni bechiqim qilib berasizlar.

Beva kampirning ko'zlarida yosh yiltiradi.

- Qandoq qilaman? Bu xarjlarni qayoqdan olaman?

So'fi o'ylab turib juda ham "ma'noli" bir gap aytdi.

- Hoziroq hovliga baho qo'yish kerak. Ana shu baho hisobidan birovdan pul ko'tariladi.

Bo'yni yiltiragani bu gapni ma'qulladi.

- Shundoq bo'lgani ma'qul. Masalan, men hovli hisobidan qarz berib turishim mumkin. Ammo uch-to'rt kishining guvohligida. Shu payt eshikdan ikki xotin kirdi. Boya mahri bechiqim olaman deyayotgan xotin o'rmidan tura solib kelgan xotirlarning bo'yniga osildi.

- Jigarimdan ayrilib qoldimo...

Sandiq to'la sariq gul
Taqsam ado bo'lmaydi.
Jigarimning dardini
Aytsam ado bo'lmaydi.
Voy akaginam qandoq odam edi-ya, shundoq mehribonimdan ajraldim...
U yig'ini tugatib, yana orqaga qaytdi. So'fining oldiga kelib:
- Har kimning mahrini o'z qo'lga berasiz, - dedi.
- Xo'p, opa, xo'p. Narxi ochildi. Ukangiz qarz berib turadigan bo'ldilar.
Xotirjam bo'lgan xotin yana ovozini baland qo'yib yig'i boshladi.
Uzun-uzun arg'amchi
Yo'lda yotsa maylimi.
Shundoq aziz jigarim
Go'rda yotsa maylimi.
Akaginamdan ayrilib qoldimo-o-o...
Ham eridan, ham hovli-joyidan ayrilgan kampir ko'zidan milt-milt yosh oqizib, qimirlamay turardi.

Mening do'stim Babbaev!

Ne'mat Boboev bilan bir hovlida turamiz. U yoshlikdan tepkilashib katta bo'lgan og'aynim bo'ladi. Chilonzordan uy olganimizda ham ikkovimiz bir joyga tushib qolganmiz. U uchinchi qavatda, men ikkinchi qavatdaman. Kechqurunlari hovlida domino o'ynaymiz. Termosda choy damlab tushib rosa choyxorlik qilamiz. Ne'mat qurmagur juda odamjon narsa. Har gapiga maqol, matal qo'shib gapiradi. U shundoq mehribon, shundoq mehribon...

Mana shu eng yaqin og'aynim bir kun pastga pijama kiyib bir qo'lida termos, bir qo'lida piyola bilan tushdi.

- Qalay, ishlar joyidami? - dedim kursidan unga joy ko'rsatib.

- Aslida yuztadan otib tashlasak ham bo'ladigan.

Uning gapiga tushunolmay hayron bo'lib turgan edim, o'zi yorila qoldi.

- Sababi shuki, bugun ministrlikdan buyruq oldim. Ya'ni sizlarning zavodlaringa direktor bo'ldim.

Haqiqatan ham bunaqa yangilik uchun yuzta emas, ikki yuztadan otsak ham bemalol bo'laveradi. Ammo biz bunaqa qilmadik.

Men do'stimni astoydil tabrikladim. To'g'risi, ilgari direktorimiz sal qo'poldo'zroq edi. Men necha yildan beri zavodda injener bo'lsam unga bironta taklifimni o'tkazolgan emasman. Bu to'g'rida Ne'matga ko'p gapirganman. Ne'mat bu gaplarni eshitganda kuyib yonib ketardi. Direktorimizni byurokrat, laqma, prinsipi yo'q, qo'pol va yana allanimalar deb so'kardi. Uning direktor bo'lib kelishiga suyinganimning sababi ham shu-da! Har qalay u tushungan odam. Ixtiroimdan xabardor. Chertyojimning ko'p joylarini o'zi bilan maslahatlashganman. U doimo: "Agar shu ixtiro amalga ohsa, zavod yiliga kamida ikki yuz ming iqtisod qiladi" deb meni ishontirardi. Mana, Ne'matning o'zi direktor. Ura!..

Ertalab ishga u vaqtl ketib qolgan ekan. Qo'shnilarning aytishiga qaraganda u havo rang "Volga"da ketibdi. Hay, men ham zavodga yetib keldim.

Smena oxirlashib qolgan edi. Telefonda sekretarKj qiz meni direktor chaqirayotganini aytib qoldi. Bordim. Eshikni ochib kirishim bilan Ne'mat basharamga qarab:

- Sizda madaniyat degan narsa bormi? - deb qolsa bo'ladimi.

Hayron bo'lib eshik bilan uning stoli oralig'ida to'xtab qoldim.

- Sekretardan, kirsam mumkinmi, deb so'rash kerak.

- Jinni bo'ldingmi, Ne'mat.

- Men sizga Ne'mat emasman, o'rtoq Babbaev bo'laman, o'rtoq Xajjayip.

Indamadim. O'zi stol oynasini bir oz chertib o'tirib gap boshladi.

- O'rtoq Xajjayip, sizni chaqirtirishimning sababi shuki, biz siz bilan bevosita zavod xo'jaligiga javobgar kishilarmiz. Ishlab chiqarishni minimumdan maksimumga ko'tarishda komandirlik qilishimiz lozim.

E, attang, dedim ichimda. Har gapiga maqol, matal qo'shib gapiradigan, bir og'iz gapi bilan odamning ichiga kirib ketadigan bola tamom bo'pti-ku!

- Menga qara, qo'y bu olifta gaplarni. To'ppa-to'g'ri, odamga o'xshab gapiraver.

Ne'matning ko'zlari dum-dumaloq bo'lib ketdi. Aftidan u rahbar xodim, albatta jiddiy gapirishi shart, kulish, hazil qilish rahbar obro'sini to'kadi, deb o'ylasa kerak, qo'rqib ketdi. Yana o'zim gap boshladim.

- Albatta mening chertyojim masalasida chaqirgan bo'lsang kerak. Shuni endi amalga oshirsak, bo'lar, a?

Ne'mat ranglari oqarib angrayib turardi. Gapim tamom bo'lishi bilan boshini sarak-sarak qildi.

- Bu yerdagilar ham, eski direktor ham ikkovimizning o'rtoq ekanligimizni yaxshi bilishadi. Agar loyihangni amalga oshiradigan bo'lsam, albatta: o'z o'rtog'ini qo'llayapti deyishadi. Umuman bu loyiha bizga to'g'ri kelmaydi.

- Xo'sh, nega to'g'ri kelmas ekan.

- Birinchidan, bu dastgohni yasash uchun bir necha odam ovora bo'ladi. Quyuv sexi ham, yig'uv sexi ham planni bajarolmay sudralayotgan ekan, uning ustiga plandan tashqari xonaki qilib sening dastgohingni yuklasak ularga javr bo'ladi.

- Besh olti kun javr bo'lgani bilan bu yog'iga kollektivimizning qo'lidan og'ir ishni oladi-ku.

- U keyingi gap. Naqdi kerak bizga. Bor dastgohlarimiz binoyidek kunimizga yarab turipti.

Shunday tutaqib ketdimki, o'rnimdan turib qolganimni o'zim bilmabman.

- Hoy, menga qara. O'zing emasming, shu dastgoh bitsa zavod yiliga ikki yuz ming iqtisod qiladi, degan. O'zing emasming, eski direktorni byurokrat, landavur, prinsipi yo'q laqma degan...

Ne'mat qo'llarini ikki tomonga yozdi.

- Tashqaridan qaraganda hammamiz ham shunaqa deymiz. Javobgarlik bo'yimizga tushganda o'ylab qolamiz.

- O'z og'aynisining ishini amalga oshiryapti deyishlaridan qo'rqaman, deysan. Nima, shaxsiy ishimga qarashyapsanmi. Hamma ham oshna bo'lsa, butun kollektiv bir og'ayni bo'lsa, qandoq yaxshi.

Ne'mat o'rnidan turib ketdi.

- Bas qiling, o'rtoq Xajjayip, gap tamom!

- Xo'p, - dedim - kechirasiz o'rtoq Babbaev.

Chiqib ketdim.

Qechqurun Ne'mat yana termos ko'tarib tushdi. Men uning oldiga borib, mumkinmi, o'tirsam, o'rtoq Babaev, dedim.

- Otimni aytsang o'lasanmi. O'tiraver, - dedi.

- Axir boya zavodda kabinetningda...

Ne'mat iljaydi.

- U zavod, bu ko'cha, uy. Xo'sh sog'liging yaxshimi, g'alati tarvuz olib keldim, xolodilKjnikka tiqib qo'yibman, hozir chiqib qotiramiz.

Yo tavba. Shu yoshga kirib bir umr birga bo'lgan og'aynimning qanaqaligini bilmagan ekanman. Shuncha vaqtdan beri odamning jonidek bo'lgan yigit orqasi stulga tegdi-yu boshqacha bo'ldi, qo'ydi-ya.

Shu kecha rosa domino o'ynadik, men uni yutaverib to'rt marta stol tagidan emaklatib o'tkazdim. Peshonasiga echkining suratini yopishtirdim. Hamma o'yinlarimiz samimiy, beg'araz o'tdi. Ammo...

Ammo ertasiga ishga borganimda u yana boshqacha bo'lib qolibdi. Nuqul o'rtoq Xajjayip deydi. Otini aytsam chirsillab, o'rtoq Babbaev degin deb ko'rsatma beradi.

Xotinboz chumchuq

Bir jurnalda "Xotinboz chumchuq" degan hikoya bosildi.

Hikoyada nimalar deyilganini bu yoqqa qo'yib, uni kim yozganidan gaplashaylik.

Choyxonachi Alimat buva uvali-juvali chol. Nevaralari shunday ko'pki, nomlarini adashtirib Solini Vali, Valini Soli deb yanglishib yuradi. Alimat buva nevaralariga qaysi ertakni aytsa, buni aytgansiz, deb janjal qilishadi. U o'ylab, ichidan to'qib ertak aytadigan bo'lib qolgan. Ayniqsa ertakka to'yamaydigan bitta Kenjavoy degan nevarasi ham bor. Choy ustida xam, osh ustida ham:

- Buva, davay, ertak aytib bering, - deb harxasha qilaveradi.

Chol dunyodagi jamiki ertaklarni aytib bo'lgan. Yangisini to'qib charchagan. U oxiri o'ylab-o'ylab ertak to'qidi, ya'ni:

- Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bitta chumchuq bor ekan...

Oradan ancha vaqt o'tib, nima ham bo'ldi-yu, bir jurnalda o'sha "Chumchuq" lop etib chiqib qoldi. Chol mundoq qarasa, o'zi to'qigan ertak hikoya bo'lib chiqibdi. Hikoyachaning tepasiga Kenja Alimatov, deb yozib qo'yipti. Kenja - Alimat otaning o'sha zumrasha nevarasi, endi o'n to'rt yoshga kirgan. Samovardagilar "Xotinboz chumchuq"ni rosa cho'zg'ilab o'qib chiqishdi.

Hay, bu ham o'tdi. "Xotinboz chumchuq" odamlarning esidan ham chiqib ketdi. Ammo oradan bir oy o'tar-o'tmas gazetada

"Xotinboz chumchuq" sarlavhasi ostida maqola chiqdi. Gazeta qo'lma-qo'l bo'lib ketdi. O'qigan ham o'qidi, o'qimagan ham o'qidi.

Maqola shunday boshlanardi:

"Yozuvchi Kenja Alimat o'zining "Xotinboz chumchuq" asari orqali oramizdagi xotinbozlarni satira o'ti bilan kuydirishga uringan va uni muvaffaqiyatli hal qila olgan.

Asarda yozuvchining katta hayot tajribasi borligi yaqqol sezilib turibdi. Uning ko'zi o'tkir, fikri tiniq. Ayniqsa tili o'ynoq va jozibador. Tabiat manzaralarini juda usta rassomdek noziklik bilan chizadi.

Avtor hayotni o'z ko'zi bilan ko'radi. Undai ma'lum darajada falsafiy xulosalar ham chiqaza oladi. Hayot tajribasi, klassiklarni qunt bilan o'rganishi, o'zidan oldin shu mavzuga qo'l urgan yetuk avtorlarning asarlaridan ijodiy foydalanishi avtor mahoratiga o'z ta'sirini o'tkazgan.

Ayniqsa, asar oxiridagi xotinboz chumchuqning boshqa chumchuqlar orasida fosh bo'lib, o'z xotini tomonidan ushlab olinish kartinasi nihoyatda yorqin, o'quvchining u yoki bu esida qoladigan darajada aniq tasvirlanishi muvaffaqiyatni ta'minlagan...

O'quvchi xotinboz chumchuqning proobrazini ko'z oldiga keltirib turadi. Undan jirkanadi, nafatlanadi, g'azablanadi, v. b.

Xotinboz chumchuq Kant aytgandek, men bor - olam bor, deb o'ylaydi.

Avtor chumchuq qiyofasini yaratishda novatorlik yo'lidan boradi. Personajini individuallashtiradi. Xarakter yaratadi. Misollarga murojaat qilamiz:

"Uning ikkita qanoti bor, bir tumshuq, ikkinchi oyog'i mavjud".

Qarang! Naqadar tiniq, aniq, ajoyib, noyob portret.

Kenja Alimat chumchuq ini orqali salbiy chumchuqlarning xususiy mulkchiligini alamli satrlarda fosh qiladi.

...Keksa tol poyalari orasida o'ziga xos xashaklardan haromxo'rlik bilan yig'ilgan uya...

Yuqoridagi misollar avtor mahoratini belgilovchi omillar sifatida bizni quvontiradi. Yana misol...

"Xotinboz chumchuq gulzor oldida bir oyog'ida romashka ushlab, tumshug'i bilan uning barglarini bittalab yulyapti:

- "Keladi, kelmaydi, keladi..."

Ana gulzor tomondan olifta patli satang chumchuq paydo bo'ldi.

Xotinboz chumchuqning yuragi o'ynadi. Shoshib uning istiqboliga chiqdi".

Bunday tasvirlar asarda ko'p.

Ammo asar bir qator kamchiliklardan ham xoli emas.

Ayniqsa kompozitsion tarqoqlik seziladi. (Chumchuqlar har yoqqa tarqab uchib yurishadi.)

Xotinboz chumchuqning chirqillashi jibilajibonning sayrashini eslatib qo'yyapti. Satang chumchuq Qarqunoqning xuddi o'zginasi.

Asar syujeti ko'proq ocherkni eslatadi.

Avtor bundan buyon chumchuqlar orasida ko'proq bo'lsa, ularning hayotini o'rgansa, tili, odatlarini qunt bilan kuzatsa, faqat yutadi, yana ijod cho'qqilariga parvoz qiladi.

Umuman olganda "Xotinboz chumchuq" keng kitobxon ommasining o'sib borayotgan didini, talablarani qondira oladigan ajoyib sermazzmun asardir.

Biz talantli Kenja Alimatdan ariq bo'ylaridan sovun o'g'irlaydigan Zag'izg'on, uzumlarimizni cho'qib ketadigan Chug'urchiq, gilolarimizni yeb qo'yadigan Tutxo'rak singari parrandalar haqida polotnolar kutishga haqlidirmiz..."

Ana shu maqola bosilib chiqqan kuni ertakchi chol Alimat buvaning zumrasha nevarasi, ya'ni "hayotdan falsafiy xulosalar chiqarib oladigan yozuvchi Kenja Alimat" tomida o'z tengi bolalar bilan kaptar quvib yurardi.

Musicha

Agar Jumavoyning bolasi ikkita bo'lganda bunchalik kuymasmi. O'zi odam bo'lib, yeb ko'rish u yoqda tursin, yalab ko'rmagan

taomlar bilan boqqan, bobokalonlari izvosh u yoqda tursin, qo'qon aravaga tusholmay zor qaqshab ketishiga qaramay, "Volga"da allalab katta qilgan, dom otdixlarni ravo ko'rmay kurortlarga yuborib o'ynatgan, peshonasidagi shu bittayu-bitta bolasini militsiya qamab qo'ysa, bunga qandoq qilib chidash mumkin?!

Jumaboyning xotini bo'lsa, o'tirgani joy topolmaydi.

- Par yosti oborsam olarmikin. Bolaginamga mol go'shti yoqmasdi. U yerda limon choy berisharmikin? Kechasi uyg'onib sovuq choy so'raydigan odati bor edi. Voy dod, endi nima bo'ladi?

Jumavoy xotiniga qarab mo'ltiraydi. Xotini ikki qo'lini beliga tirab, unga zug'im qiladi:

- O'tiraverasizmi?! Mundoq otalarga o'xshab harakat qilsangiz-chi!

- O'ylayapman, chorasini o'ylayapman. Mahalladan bir xarakteristika olish kerak, maktabiga borib, komsorgdan ham bitta xarakteristika so'raymiz. yo'q deyishmas.

Jumavoy shoshib, ko'chaga chiqib ketdi. Xayriyat mahalla komissiyasining raisi choyxonada domino o'ynab o'tirgan ekan. Bo'lgan gapni shundoq-shundoq bo'ldi, deb tushuntirdi.

- Yomon urgan ekanmi? - dedi u Jumavoyga qarab.

- Kayfda bo'lgan gap, shuni ayb demasa ham bo'lardi. Kaltak yegan odamning burni sal shikast topibdi. Teshigi butun, bemaol nafas olsa bo'ladi.

- O'nisi-chi? - dedi mahalla komissiyasi.

- Unisi sal mundog'roq, bir poy qulog'i yarmigacha yirtilgan. Doktorlar tikib beradi. Soch o'stirsa, ko'rinmay ketadi. Eshitaman desa, bitta quloq bilan ham har qancha gapni eshitsa bo'ladi.

Komissiya raisi idorani ochib, xarakteristika yozishga tushdi. Jumavoy rais ushlagan ruchka bitta harf yozsa, bitta, ikkita harf yozsa, ikkita, ishqilib izma iz o'qib boraverdi.

"...mahallada musicha sho'xlik qilsa qiladiki, Jo'ravoy sho'xlik qilmaydi, hech kimning derzasini sindirmagan, hech qaysi to'yda to'polon qilmagan, mahallada hamma, bola bo'lsa Jo'ravoydek bo'lsin, deb niyat qiladi..."

Xarakteristika bitdi. Komissiya raisi qog'ozni Jumaboyga uzatar ekan, ma'noli iljayib qo'ydi. Jumavoy bunaqa iljayishlarning ma'nisiga yetadi.

- Erkatoy omon-eson qutulib chiqsa, ziyofat boshida o'zlari turadilar, - deb uni xotirjam qildi.

Er-xotin xalloslab Jo'ravoy o'qiydigan texnikumga qarab chopishdi. Xayriyat komsomol komitetining sekretari endi idorasiga kiraman, deb turgan ekan. Unga yalinishdi, yolvorishdi, xullas eritishdi.

- Jon uka, u qilmapti, biz qipmiz. U emas, biz benavot. Shuni bir balo qiling. Bir varaq qog'ozni bizdan ayamang.

SekretarKj hali yosh, umrida unga birovning ishi tushmagan, xomgina yigit ekan, bularning nolasidan yig'lavoray dedi. Ikki ko'zida jiqqa yosh bilan qo'lga ruchkani oldi-yu, yaxshilab xarakteristika yozib berdi.

Tashqariga chiqib, er-xotin mamnun, bir-birlariga qarab olishdi.

- Xotin, endi mundoq qilsak, sen anavu qulog'i yirtilgan bolaning uyiga borib, ko'z yoshi qil, da'vosidan kechmaguncha yig'layver, ko'z yoshi toshni ham eritadi. Men anavu burni g'ajilganiga boray, o'shanisi oyog'ini tirab turibdi. Ko'nmasa o'zini benavot qilamiz.

Er-xotin ikki tomonga ajralishdi.

Oxiri shu bo'ldiki, ikki kundan keyin Jo'ravoy chiqib keldi. Shu kuni kechqurun Jumavoy katta ziyofat qildi.

Ziyofatga kelganlar:

1) Odilov Fozil To'raevich, mahalla komissiyasining raisi, 1913 yilda tug'ilgan.

2) Qobilov R. D. Texnikum komsorgi, 1943 yilda tug'ilgan.

3) Ziyoev Rahim Isaevich, uchastkavoy, 1933 yilda tug'ilgan.

4) Ahrorov Mannop (pasporti yo'q, tug'ilgan yili noma'lum, bekor).

Ziyofat juda quyuq bo'ldi, konKjyaktan besh shisha, aroqdan ikki shisha ichildi. Jo'ravoy andak kayf qilib qoldi.

Jo'ravoydan kaltak yeganlar:

(Yuqoridagi ro'yxatga qaralsin)

"Tez yordam" mashinasida olib ketilganlar.

(Ro'yxatning birinchi va ikkinchi raqamlariga qaralsin.)

Jo'ravoyni o'sha kuniyoq, ertalab chiqib kelgan joyiga oborib qo'yishdi. Ahvoli yaxshi. Qon bosimi qanoatlanarli. Uyqusi me'yorida. Ishtahasi durust. O'zini juda yaxshi sezyapti.

Ziyofat paytida kaltak yeganlarning sog'lig'i haqida hali aniq ma'lumotlar olingani yo'q. Chunki ro'yxatning birinchi raqamida ismi zikr etilgan kishi o'ziga kelmagan. Ukol qilish va qon quyish davom etmoqda.

Sud

Sarguzasht

Saraton kunlarining birida

Saratonning jazirasi avjga chiqqan, quyosh osmondan nur emas olov to'kayotgandek.

Yotoqda mendan boshqa hech kim yo'q. Hamyotoqlarim salqin parklarda dars tayyorlagani, ba'zilar konsulkjtatsiyaga ketishgan.

Sal kamxarjroq bo'lganimdan nonga kunim qolib, issiq yotoqda dimiqib dars tayyorlayapman, kunning issig'i hatto boshimdagi do'ppimni ham kuydirayotganga o'xshaydi. Miyamga o'lay agar bir nima kirsam. O'qiganim kalamga kirmay, sochlarim orasida qolib ketayotganga o'xshaydi.

Saratonning jazosi ko'kchoy deganlar. Choyakni ko'tarib pastga tushdim. Ko'chaning narigi betidagi choyxonaga o'tmoqchi bo'lib avtobus o'tib ketishini kutib turibman. Birdan qayrag'och tagidagi skameykada yonboshlab yotgan bir kishiga ko'zim tushdiy, orqamga qaytdim. Yoshi oltmishlarga borib qolgan bir kishi boshini skameykadan osiltirib yotibdi. Avvaliga uni uxlab qolgan gumon qilgan edim. Yaqiniga borsam uxlaganga o'xshamaydi. Yerda eskitirib ketgan bir charm portfelKj. Portfelning qopqog'i ochilib qolgan. Yerda bir-ikkita o'n so'mlik sochilib yotibdi. Shoshib uni uyg'ota boshladim. Boshini ko'tarib to'g'rilab yotqizib qo'ydim. Chol hamon uyg'onmas edi.

Birdan ko'nglimga shayton kirdi. O'yim buzildi. Shoshib atrofga qaradim, hech kim yo'q. Cholning yarim ochiq ko'zlarida nazarimda nur so'ngandek edi. Ajib bir chaqqonlik bilan portfelni oldimu qo'ynimga tiqqanimcha yotoqqa qarab chopdim.

To'rtinchi qavatga qanday chiqqanimni bilmayman. Yotoqqa kirdimu portfelni to'shagim tagiga tiqib ustiga o'tirib oldim. Yuragim

shunday dukillab urardi-ki devor soatning tukillashiga o'xshab o'zimga ham eshilib turibdi.

Nima qilishimni bilmay yana o'rnimdan turdim. Deraza oldiga kelib pastga qaradim. Chol hamon o'sha holicha qimirlamay yotibdi.

Xayolimga, o'rtoqlarim kelib qolsa nima qilaman, yo bo'lmasa qochayotganimni birov ko'rgan bo'lsa qidirib kirsam nima qilaman, degan o'y keldi. To'shak tagiga qol suqib yana portfelni oldim pechka dek qizib yotgan cherdakka chiqa boshladim. Emaklab borib uyilib yotgan uvadalar orasiga portfelni tiqib, qaytib tushdim. Yotoq eshigini ochishim bilan yana o'zimni derazaga urdim. Endi cholning tepasiga odam yig'ilgan. Gullarga qarab yuradigan bog'bon amaki qo'lidagi piyoladan uning yuziga suv sepyapti. Darrov derazadan nari ketdim. Tashqariga chiqishga ham, yotoqda yolg'iz qolishga ham qo'rqaman.

Bir soat o'tdimi, ikki soat o'tdimi bilmayman. Shuncha vaqt qimirlamay tik turganimni ikki tizzamda darmon qolmaganidan bildim.

Qilib qo'ygan ishning dahshatini mana shu o'tgan vaqt ichida bilib qoldim. Peshonamga shatillatib tushirdim.

- Nima qilib qo'ydim? O'g'ri bo'lib qoldimmi?

Shart o'rnimdan turdim cherdakka chiqdim. Uvada orasidan portfelni olib yana yotoqqa tushdim. Uni pastga, to'dalanib turgan kishilar tepasidan irg'itmoqchi bo'lib derazadan qaradim.

Endi skameyka oldida hech kim yo'q. Tez yordam mashinasi shitob bilan chorrxani kesib o'tib ketdi. Tamom! Bo'shashib yana karavotimga o'tirdim. Portfelni ochdim. Bir dasta pul. VedomostKj. Pulni sanadim. Bir ming ikki yuz o'n olti so'm. Yana allaqancha tanga-chaqa. Vedomostga ko'z tashladim. O'n yettinchi maktab o'qituvchilarining o'tpuska puli.

Koridorda oyoq tovushlari eshila boshladi. Qo'rqib portfelni yana to'shak tagiga tiqdim qimirlamay o'tiraverdim. Eshik ochilib Sayfi bilan Umar kirdi. Ular basharamga qarab hayron bo'lib qolishdi.

- Nima bo'ldi? Tobing yo'qmi? Ranging oqarib ketibdi.

Ulargam nima deb javob berganim hozir esimda yo'q. Sayfi choynakdan suv topolmay stakanda ilib qolgan choyni og'zimga tutdi.

- Ich, ich, og'ayni. Oftob urgan bo'lmasin tag'in.

Choyni ichmay qaytardim.

- Bunaqa o'zingni qiynab dars tayyorlama-da. Dam olib, kallani mundoq shamollatib tayyorlash kerak. O'zingni urintirib qo'yibsan, oshna, - dedi Sayfi. - Pastdan qaynoq choy opchiqib beraymi?

Sayfi tunika choynakni qo'lga oldi. Shu topda mening birdan-bir dushmanim bo'lib shu choynak yiltirab turardi.

- Yo'q, - dedim qat'iy qilib. - Choy ichmaymai. Oftobda sal ko'proq yurib qo'ygan ekanman. Boshim aylandi. Salda tuzalib qolaman.

Ular birpas hayron bo'lib turishgandan keyin kitob daftarlarini tumbochkaga qo'yib yana chiqib ketishdi. Yana yolg'iz qoldim. Bu xilda o'tiraversam qiynalib ketadiganga o'xshayman. Asta o'rnimdan turib boshimga shuncha kulfatlar solgan portfelni to'shak tagida yolg'iz qoldirib chiqib ketdim.

Bog'bon amaki gullar tagini ketmonlab yurgan ekan. Menga bir qaradiyu, indamay ishini qilaverdi.

Yuragim shuv etib ketdi. Nega unday qildi? Ilgarilari har ko'rganda gulqaychisini beliga qistirib ahvolimni so'rardi. Mening musofirligimni, qarashadigan hech kimim yo'qligini bilib nevarasi tushlik olib kelganda, albatta, chaqirtirib tushardi. Birga tushlik qilardik. Nechuk bu gal menga bu xil sovuq qaradi? Yo qilmishimni ko'zimdan bilib oldimi? Yo bo'lmasa portfelKj olib qochganimni ko'rganmidi? Qo'rqib ketdim. Indamay boshimni egib o'tib ketaverdim.

Sal nari borib sekin orqamga qaradim. U hamon o'z ishi bilan band. Ketmonini nazarimda jahl bilan yerga urayotganga o'xshardi. Orqamga qaytdim. Yaqin kelib salom berdim. Chol boshini ko'tarib salomimga sovuqqina alik oldi-da, ketmonini marzada qoldirib, chetga chiqdi. Nos chekdi.

- Sal xafaroq ko'rinasiz? - dedim uni sinamoqchi bo'lib.

- Noinsof, noinsof ko'p, bolam. Kuppa kunduzi bir bechorani shilib ketishdi. Agar o'sha yaramas qo'limga tushgandami, shu ketmon bilan kallasini majaqlab tashlardim.

Tanamga sal jon kirgandek bo'ldi. Xayriyat, chol bilmagan ekan. Holdan toyib uning yoniga o'tirdim. Bog'bon amaki o'zidan-o'zi xunobi oshib gapirardi.

- Necha marta aytganman, pensiyaga chiq, deb. Yo'q, ko'nmadi. Yuragi o'zi ma'lum narsa. Hoy do'stim, endi bas, ishlama, dedim, qani endi bu o'jarni ko'ndirib bo'lsa. Mana, nima bo'ldi? Bir ming ikki yuz so'm-a. Qoshki o'ziniki bo'lsa. Xalqniki, muallimlarniki-ya!

Chol boshini sarak-sarak qilib bo'lgan voqeani gapirib berdi.

- Bankadan pul olib kelayotgan ekan. Issiqda yuragi besaranjom bo'lib qopti. Tramvaydan tushibdi-yu, Mardonni oldida birpas o'tirib dam olay deb mening oldimga arang yetib kepti. Aksiga olib men o'lgur qovun olgani ketgan edim. Qovun yemay zaharni yesam bo'lmasmidim. Boyaqish meni kutib o'tirib ko'ngli bexud bo'lib qopti. Pul to'la papkasini bir noinsof ko'tarib ketibdi. Olgan odamga buyurmasin. Kafaniga, o'limiga yarasin shu pul.

Chol o'g'rini astoydil qarg'ardi. Uning har bir gapi yuragimni teshib ketyapti. Uning gaplari qulog'imga emas, badanimga o'q bo'lib sanchilardi.

Pulni olib tushib bog'bon amakimning qo'lga bersammikan? Nima deb beraman? Men olgan edim, desam keyin yomon bo'lmasmikan? Topib olgandim, deyaymi? Yo'q, bo'lmaydi. Ko'zimga tergov, sud, qamoq ko'rinib ketdi.

Yaxshisi yopig'lik qozon yopig'ligicha qolavelsin. Olganimni hech kim ko'rmapti-ku nimadan qo'rqaman. Biroq bog'bon amakimning qarg'ishi, ko'ngli behuzur bo'lib qolgan kassir cholning yarim ochiq nursiz ko'zlari ichimni timdaldardi.

Chol o'rnidan turib yana gullar orasiga kirib ketdi. Bir o'zim qoldim. Nima qilishimni bilmayman. Asta turdim boshim oqqan tarafga qarab keta boshladim.

Ancha kech kirib qolgan. Ishdan qaytayotgan kishilar trotuarlarni to'ldirgan. Kallamga hech narsa kirmaydi. Odamlarga turtinib-surtinib ketyapman. Qornim ochmi, to'qmi bilmayman. Kim menga qarasa turgan joyimda qotib qolaman. Qochishga payt poylayman.

Ba'zan qilib qo'ygan xatomni tuzatish qiyin ekanini anglab o'zimcha rejalar tuzaman.

Yangi kostyum olsam. Endi yotoqda turib nima qilaman. Kvartira olib ko'chib ketaman. Soat olaman. Tilla soat olsam ham bo'ladi.

Yangi etik olish kerak. Uylanib olsammikin?

Shunday shirin orzularimni bo'lib cholning yarim ochiq nursiz ko'zlari ko'rinib ketadi.

Uning holi nima kechadi? Yuragi yomon ekan, o'lib qolsa nima qilaman? O'qituvchilar nima qilishadi?

Shu payt ko'zim magazinining yaltiragan vitrinasisiga tushib qoldi. Bu yuvelir magazin edi. Tilla soatlar, billur idishlar ko'zni qamashtiradi. Beixtiyor ichkariga kirib qopman. Shunday badavlat edimki, bu do'kondagi eng qimmatbaho buyumlarni xarid qilishga ham qurbim yetardi. Shoshilmay rosa aylandim. Qay xil soatni olishimni mo'ljallab qo'ydim. Oyna tagida ustiga tilla suvi yurtlangan kumush papirosdon turipti. Ana shuni ham olish kerak. Bu papirosdonga qahrabo mushtuk yarashadi. Albatta olaman. Nimaga qo'l uzatsam yetadigandek edi. Rosti ham shunday. Endi eng yaxshi restoranda ovqatlanaman. Bundan buyon stipendiya kutib o'tirish yo'q. Jag'imga qoplama qilib tilla tish quydirsam ham bo'ladi.

Ana shunday niyatlar bilan magazindan chiqdim. Ertaga bugun o'ylagan, niyat qilgan narsalarimni olaman. Ertaga mening hayotim yangicha boshlanadi.

Men baxtiyor edim. Ilgari hech qachon o'ylab ko'rmagan, hatto xayolimga kelmagan narsalar to'g'risida o'ylayman. Qadam tashlashim ham, atrofqa qarashim ham boshqacha edi. Men yerni bosib ketayotganim yo'q. Yer meni ko'tarib borayotganga o'xshaydi.

Hushtak tovushidan cho'chib ketdim. U yoq-bu yoqqa qaradim. Mo'ylovdor bir militsioner lunjini to'ldirib hushtak chalardi. Unga qarasam jahl bilan meni imlab chaqiryapti.

Kallamdagi xayollar, shirin orzular shu topdayoq qayoqqadir g'oyib bo'ldi. O'zligimni yo'qotib murdaga aylandim. O'limga o'z oyog'i bilan ketayotgandek unga qarab yura boshladim. Birdan, qochsammikin, deb o'yladimu, shu topdayoq orqamga burilib tiraqaylab qocha boshladim. Yana hushtak ovozi quloqlarimni teshgudek bo'ldi. Qarshimdan kelayotgan baquvvat bir yigit oyog'imdan chalib yubordi. Munkib ketdimu, yiqilmadim. Zum o'tmay militsioner yetib keldi.

Tamom bo'ldim!

Sud, dahshatli qora kursi. Hukm!

Militsioner o'ng qo'lini chakkasiga qo'yib chest berdi.

- Grajdanin siz...

G'uldirab qoldim.

- Men, men bilmasdan... - boshqa gap aytolmadim.

- Siz, - shoshilmay salmoqlab gapirardi. - Siz nega ko'cha qoidasini buzasiz? Oz bo'lmasa mashina urib ketay dedi-ku...

U boshqa nimalar dedi bilmayman. Entikaman xolos.

Atrofnii odam o'rab olgan edi. Militsioner to'shtraf kvitansiyasini yozib bo'lguncha sal o'zimni o'nglab oldim.

Yotoqqa qarab ketyapman. Yurayotganim yo'q. Sudralayapman. a'zoyi badanimda jon asorati yo'q. Murdaga o'xshayman.

Nazarimda kaltak yegandek butun vujudim zirqirab og'riydi.

To to'rtinchi qavatga chiqquncha ikki marta zinada o'tirib dam oldim.

Sayfi bilan Umar shaqillatib domino o'ynashayotgan ekan, ularga ham qaramay o'rnimga cho'zildimu ko'zimni yumdim. Ammo to'shak tagidagi portfelKj belimga botib uxlagani qo'ymasdi. U yoqqa ag'darilaman, bu yoqqa ag'darilaman, bo'lmaydi. Meni shunchalar notinch qilayotgan portfelni olib ulotqirgim keldi. Iloji yo'q-da!

Shunchalar charchashimga qaramay uxlayolmadim. Endi ko'zim ilinganda tushimga yarim ochiq nursiz ko'z kiradi, uyg'onib ketaman. Yana ko'zim ilinishi bilan o'zimni tergovchi oldida ko'raman, yana uyg'onaman.

Bir mahal qattiq uxlab qolgan ekanman. Nima bo'ldi-yu, bog'bon amaki qaydandir paydo bo'ldi. Belimdan azot ko'tarib derazadan ulotqirdi. Pastga shitob bilan tushib ketyapman. Pastda katta gulxan. Mana hozir olovning qoq o'rtasiga tushaman. Yonayotgan olov emasmish. Pul to'la portfelKj emish. PortfelKj ustiga belim bilan tushdim. Dod deb ko'zimni ochib yubordim.

Sayfi bilan Umar ham qattiq uxlab qolishgan ekan. Xayriyat alaxsiraganimni, dod deganimni bilishmadi.

Belimga botayotgan portfelni tortib yastiq tagiga bostirdim-da yana ko'zimni yumdim. Bu gal qattiq uxlab qopman. Hech qanaqa tush ko'rmadim.

Qo'lbola kosmonavt

Juda qattiq uxlab qolgan ekanman. Allanarsaning portlashidan uyg'onib ketdim. Ko'zimni ochsam Sayfi elektrplitaga choy qo'yaman deb ag'darib yuboripti. Plita spirallari bir-biriga tegib zamikanie bo'lib, yotoq koridoridagi probkani kuydirib yuboripti. To kiyinib olgunimcha komendant kirib shovqin ko'tardi.

- Yotoqqa o't qo'yvorib tinchisizlarmi? Bundan keyin kimda kim plita qo'ysa mendan xafa bo'lmasin. Pojarniyga o'zim tutib beraman.

Sayfi undan uzr so'rab elektrni tuzatib qo'yishni bo'yniga oldi.

- Kerakmas, - dedi komendant. - Elektrdan ham zarur ish bor. Qani bo'linglar. Pastda mashina kutib turipti. Qurilishga hasharga borasizlar. Bugun texnikum bo'yicha jami studentlar yotoq qurilishiga hasharga boradi. Qani, tez-tez. Elektrni montyor chaqirib o'zim tuzattirib qo'yaman.

Komendant qistalang qilib hammamizni pastga haydab tushdi. To avtobusga chiqib jo'nab ketgunimizcha turib oldi.

Shahar chetida texnikumimiz uchun yangi bino, yotoq qurilayotgan edi. Bundan ilgarilari ham ba'zan hasharga borib turardik. Qurilish ishlari cho'zilib ketib sentyabrda o'qish boshlanguncha asosiy korpusning bitmay qolish xavfi tug'ilganidan direksiya keyingi paytlarda xasharga zo'r bergan edi.

Student xalqi g'alati xalq bo'ladi. Och bo'lsa ham ashula aytadi, to'q bo'lsa ham ashula aytadi.

Bir avtobus bola ovozinig boricha qo'shiq aytib ketyapmiz. Men ham yotoqda uncha-muncha xirgoyi qilib turardim. Quvnoq, g'am-tashvish nimaligini bilmaydigan o'rtoqlarimga qo'shilib ashula aytib ketyapman. O'rtoqlarim avjini sen aytasan, deb qolishdi. Yo'q demadim. Endi katta avjga chiqqan ham edimki, xayolimga lop etib yastiq tagidagi portfelKj kelib g'iq etib to'xtab qoldim.

Sayfi ovozinig boricha qichqirdi.

- Patefonning tanobi uzilib ketdimi?

- E, olsang-chi!

- Ha, qani, - degan ovozlar ko'tarildi.

Harchand ovoz chiqaraman deyman, qani ovoz chiqsa. Hiqillayman xolos.

Kimdir zarda bilan dedi:

- E, bor-e. Umar, o'zing ol.

Hamma ashula aytayapti. Bitta men aralasholmayman. Yuragimda ot chopiyapti. Shuncha pul yastiq tagida yotibdi. Uning ustiga komendant montyor olib kirgan bo'lsa, bordi-yu ko'zi tushib qolsa, nima bo'ladi? O'ldim!

To qurilish bo'layotgan joyga yetgunimizcha bo'ladiganim bo'ldi.

Tengqurlarim orasida baquvvati men. Shuniig uchun ham meni zambil ko'tarishga qo'yishdi. Qizlar g'isht solib berib turadigan bo'lishdi.

Ishga kelganda o'g'il bolalardan ko'ra qizlar durust. Qizlarning joni qirqta, degan gapga shu yerda ishonib qo'ydim. Menga bir minut dam berishmaydi. Uchinchi qavatga pillapoyadan g'isht to'la zambil ko'tarib chiqish osonmi? Qaytib tushishimiz bilan darrov to'ldirib qo'yishadi. Yana likonglab yuqoriga o'rmalab ketamiz. Umar ozg'in, chillakdak yigit bo'lsa ham juda chayir. Shundoq issiq kunda terlamaydi ham. Ha, jindek dam olaylik, desam ko'nmaydi. Qizlarni oldida sharmanda bo'lamiz, deb orqamdan pildirab ko'tarib ketaveradi. Jindakkina orom olsam edi. Yotoqda qolgan pulimni o'ylardim. Umar ham, Sayfi ham, qizlar ham nima g'amda ekanimni bilishmaydi-da, ularga bu gapni aytib bo'larmidi?

Qo'llarim qavarib ketdi. Oxirgi g'ishtni yuqoriga opchiqib tushdik. Yana mashina kelguncha birpas dam olmoqchi bo'lib o'tirdik. To'g'risi shu dam bahonasida juftakni rostlab qolmoqchi edim. Shu niyat bilan bolalarga qanday bahona topsam ekan deb o'ylab o'tirgan edim. Men o'tirgan beton supacha sekin-sekin lapanglay boshladi. Avvaliga Umarmi, Sayfimi, tegajog'lik qilib qimirlatayotgan bo'lsa kerak deb indamay o'ylab o'tiraverdim. Qarasam, supacha osmonga chiqib ketyapti. Qo'rqib ketdim, qo'rqqanimni qizlardan yashirib iljayib turaverdim. Qeyin bilsam, beton armaturaning ustida o'tirgan ekanman. Ko'tarma kran meni ham armaturaga qo'shib ko'tarib chiqib ketyapti. To' o'zimni o'nqlab olgunimcha to'rtinchi qavatning tomi ro'parasiga opchiqib qimirlamay qoldi. Betonning bir tarafi ko'tarilgan bo'lganidan kranchi meni ko'rmay qolipti.

Pastda qolganlar qiyqirib kulishadi. Men bo'lsam jonimni hovuchlab kran zanjirini mahkam ushlab olganman. G'iqillab turgan kranning ovozi o'chdi.

To'rtinchi qavat devorida turgan xotin qo'lidagi bayroqchasini silkitdi. Kranchi butkasidan bosh chiqarib:

- Tok yo'q. Obed payti bo'lganidan tokni uzib qo'yishdi, - deb qichqirdi.

Obbo! Rasvo bo'ldi. Yana qancha vaqt osmonda muallaq turishimni bilmayman. Bu padar la'nati tok qachon ulanadi. Kran zanjiri uzilib ketsaya! Yerdan meni otashkurakda ham qirib olib bo'lmaydi. Faqat ko'ylagimning tugmasigina butun qolishi mumkin.

Agar men urf-odatlarga ishonsam, tirik qolish uchun portfeldagi pullarni sadaqa qilib yuborardim. Qayoqdan ham qurilishga keldim. Mana, pastda hamma o'rtoqlarim tushlik qilishyapti. Umar kattakon qovunni tilimlab qizlarga uzatyapti. Sayfi bo'lsa hadeb tilini chiqarib meni ermak qiladi. Shu topda hazilga balo bormi? Echkiga jon qayg'i, qassobga moy qayg'i.

Nima bilandir o'zimni alaxsitmasam bo'lmaydiganga o'xshaydi. Pastga qarasam ko'zim tinib ketyapti. Yuqoriga qarasam ingichka simga besh tonnalik men o'tirgan beton ilinib turipti.

Ko'zimni chirt yumib oldim. Durustroq, ko'ngilni ko'taradigan narsalarni o'ylash kerak. Nimani o'ylasamikin?

Nimani o'ylasam ham ko'zimga portfelKj ko'rinadi. Yaxshisi yana shuni o'ylab qo'yaqolay.

O'zimcha bir ming ikki yuz so'mga nimalar olishimni o'ylayman. Xayolda shahar magazinlarini aylanib chiqaman. Ilgari ko'rganda ko'zni o'ynatadigan buyumlarni nazar-pisand qilmay qo'yganman. O'zimcha, nima balo, do'konlarda durust mol yo'q, deb savdo ministridan nolib qo'yaman, rost-da, puling bo'lsa-yu, bo'yingga loyiq qorako'l palKjto topolmasang.

Xotin-qizlardan jahlim chiqadi. Dunyoda qandoqki yaxshi mato bo'lsa xotin-qizlarga. Biz sho'ring qurg'ur erkaklarning kiyimlari bir xil. Qora, ko'k, kul rang, jigar rang, vassalom. Mototsiklning yaxshisi necha pul turarkin? Velosiped minishga uyalaman.

Ko'rganlar nima deydi?

Shirin xayollardan mast bo'lib sekin ko'zimni ochaman. Ko'zimni ochamanu, osmonu falakda muallaq turganimni ko'rib xafa bo'lib ketaman. Pastda chap qo'li bilan boshidagi do'ppisini ushlab Sayfi hazil qiladi.

- Hoy, kosmonavt papiros chekma, havoning quyuy qatlamida kuyib ketasan.

Uning bu bema'ni hazili uchun boplab bir so'kay deyman-u, qizlar oldida aytishga istixola qilib indamayman. Tishlarimni g'ichirlataman. Hali shoshmay tur.

Shu alpozda oyog'im yerga, boshim osmonga tegmay o'tirdim.

Xayriyat tok keldi. Kranchi beton bilan qo'shib meni ham to'rtinchi qavatning devoriga qo'ndirdi. Gandiraklab o'lar holatda pastga tushdim. Umar shapkasini buklab mikrofonga o'xshatdi-da, og'zimga tutdi.

- Diqqat, diqqat, kosmodromdan gapiramiz, Mikrofonimiz qo'lbola kosmonavtning og'ziga to'g'rilangan. O'rtoq kosmonavt, uchish qanday o'tdi?

Jahlim chiqib ketdi.

- Bor-e, aravangni tort, - deb yubordim.

Shu orada to'rtta samosval oldinma ketin g'isht to'kib ketdi. Sayfi yana zambilni ro'para qildi.

- Insofing bormi? Hali tushlik ham qilganim yo'g'a.

- Birato'lasi kechki ovqatga qo'shib yeysan. Qani ko'tar!

Zarda bilan uni itarib yubordim-da, nari ketdim. Umar mehribonchilik qilib mening tarafimni oldi.

- Ko'p qiynama. Ovqatini yeb olsin.

Taxtdan omonatgina tiklangan barakka kirib sovub qolgan shavlani yeya boshladim. Ovqat yeyapmanku, xayolim qochishda. Ha, qochish kerak!

Shavla ham chala qoldi. Barakning orqasiga o'tib vodoprovoddan suv ichmoqchi bo'lib taxtalar oralab ko'chaga chiqib ketdim.

Yo'l bo'yida bugun kuni bilan bizga g'isht tashigan samosval turardi. Shofyor yigit maykachan bo'lib olgan, qora moyga qorishib ketgan qo'llari bilan hadeb peshona terlarini sidiraverganidan apti-basharasi qopqora bo'lib ketibdi. U meni ko'rib iljaygan edi oppoq tishlari yaltirab ketdi. Uning bu ko'rinishi fotosuratning negativini eslatardi.

- Vox. Seni qaysi shamol uchirdi, uka? Beri kel!

Menda nima ishi bor ekan deb oldiga bordim.

- Uka g'ildirakka mix kirib yelini chiqazvordi. Prorabga necha marta aytaman, havozadan bo'shagan taxtalarni yo'lga tashlanmasin, deb. Shu bugun ikki marta balonim teshildi. Kel, uka, yangi kamera qo'ydim. Yel urishib yubor.

E, bor-e, deb ketib qolmoqchi edim. Shofyor shunday ishonch bilan, xuddi ukasiga ish buyurayotgandek qilib gapirgan ediki, beixtiyor nasos tutqichiga qo'l yuborganimni bilmay qolibman.

Ikkalamiz galma-galdan yel berib balonni shishirib oldik. Shunga ham salkam bir soat ketdi. G'ildirakni o'qqa joylayotganimizda u yana oppoq tishlarini yaltiratib mamnun jilmaydi.

- Rahmat uka. Yaxshi bola ekansan. Qani endi hamma ham senga o'xshagan insofli bo'lsa. Bitta yaramas tog'amning portfelini o'g'irlab ketibdi. Kasalxonaga borib ko'rib keldik. Yuragi yomon edi, o'lib qolishiga sal qoldi. Bo'ldi, rahmat uka.

Shofyor bu gapi bilan g'ildirakka emas, mening ichimga yel bergandek bo'ldi. Yorilib ketay dedim. U bilan xayrlashmay yo'lga chiqdim.

Kuni bilan surgan xayollarim havoga uchdi-ketdi. Shoferning birgina gapi meni shuncha rohatlardan mahrum qildi. O'zimni o'zim qarg'ay boshladim.

Qayoqdan ham shu pul o'lgurni ola qolgandim. Shu pul deb tinchimni yo'qotdim. Hozir boramanu, portfelKj-mortfeli bilan anhorga uloqtiraman. Shunday qilsam tinchiymanmi?

Shoshma, dedim o'zimga o'zim. Egasiga qaytib berishning-ku iloji yo'q ekan. Suvga oqizishdan nima foyda. Yo'q bo'ladi, ketadi. Yaxshisi bekor ketkizmaslik kerak.

Ha deb chol nima bo'ldi, endi u nima qiladi deb tashvish qilavermasligim kerak. Bo'lar ish bo'ldi. Qarib qolgan odamni sud qilisharmidi.

Tamom! Pul endi meniki!

Tiqilinch tramvaylarga osilib yotoqqa keldim. Darvoza oldida komendant papiros chekib turgan ekan. U meni ko'rishi bilan he yo'q, be yo'q familiyamni surishtirib qoldi.

- Familiyang Tursunov, a?

Nima deb javob qilishimni bilmay esankiradim.

- Karmisan? Soqovmisan? Nega indamaysan? Familiyang Tursunovmid?

Sekingina ha, deb javob qildim.

- O'qituvchilar xonasiga kir. Seni militsiya leytenanti kutib o'tiripti.

Jon-ponim chiqib ketay dedi. Yuray desam oyog'im qimirlamaydi. Gapiray desam tilim aylanmaydi. Ko'zimga dunyo ostin-ustun bo'lib ketdi. Hamma narsa teskari ko'rinadi. Komendantning boshi yerda, oyog'i osmonda, to'xtab turgan mashina xuddi to'ntarilib qolgan toshbaqaga o'xshaydi. Maydondagi fontan osmondan yerga qarab suv purkayotgandek.

- Nega qimirlamay turib qolding. Kir ichkariga.

Komendantning ham ovozi tomdan tushayotgandek bo'ldi.

Zo'r mashaqqat bilan oyog'imni ko'tardim. Brezent tuflim cho'yandan quyilgandek biram og'irki, ko'tarib bo'lmaydi.

Hay, bir amallab ichkariga kirdim. Koridorga yetganda, sal hushim joyiga tushib nima qilsam ekan, degan gap kallamga keldi.

To'xtadim. Qochib qolaymi? Hali bu savolga javob topib ulgurmagan ham edimki, komendant orqamdan yetib keldi.

- Kiraver, kir!

Oldinma-ketin ichkariga kirdik. Stol oldida telefon trubkasini qulog'iga qo'yib militsiya ofitseri turipti. U menga boshdan oyoq xo'mrayib qarab qo'ydi-da, gapini davom ettiraverdi.

- Topamiz, topamiz, o'rtoq nachalKjnik. Hali mening qo'limdan bironta jinoyatchi qochib qutulmagan. Albatta topaman. Topdim deyavering. Xo'p-xo'p.

U maqtangannamo bir kerishib, trubkani joyiga qo'ydi. Keyin menga sinovchan nazar tashladi. Biram ko'zi o'tkir ekanki.

Qaraganni teshaman deydi.

- Familiyang Tursunov-a? Bilamiz. Hammasini bilamiz.

Qo'lga tushdim, dedim ichimda.

- Xo'sh, o'zing ayt. Nima qilaylik. Ayt. Aytaver.

Bu odam hammasini bilarkan. Tonsammikin? Bordi-yu guvohlari bo'lsa. Yaxshisi to'ppa-to'g'risini aytib afv qilishlarini so'raymi? Hayronman.

- Sheriklaring qani?

- Sheriklarim yo'q, - dedim.

- Iya, - dedi ofitser qoshlarini kerib, - Halitdan yolg'on gapiryapsanmi?

Bo'lar ish bo'ldi. Bor gapni aytaveraman.

- Bir o'zimman. Sheriklarim yo'q.

U cho'ntagidan qog'oz chiqazib hamyotoqlarimni birma-bir aytib chiqdi.

- Bular kim bo'ladi?

- Kursdosh hamyotoqlarim.

- Men ham ana shularni so'rayapman. Menga qara, bola. Qechadan boshlab sen, sheriklaring, bildingmi, sheriklaring bilan, - u labini tishlab ancha vaqt turib qoldi. - Drujinachilar safiga qabul qilindinglar, Tushundingmi, Tursunov? Ertaga kechqurun kelib mashg'ulot o'tkazaman. Eng avval samboni o'rgataman. Bo'пти. O'rtoqlaringga aytib qo'y. Kechqurun kino-pinoga quyon bo'lib qolishmasin.

Leytenant qachon chiqib ketdi, xayrlashdimmi, xayrlashmadimmi, bilmayman.

Esimni o'nglab koridorga chopib chiqdim-da, o'qdek otilib to'rtinchi qavatga ko'tarildim. Yotog'imiz eshigi ochiq. Kimdir karavotdagi ko'rpa to'shaklarimni yig'ib qo'yipti. Qo'rqib ketdim. Jon holatda to'shakni yozib yostiq tagini qaradim. Hayriyat, portfelKj joyida turipti. Allaqaysi karavot tagidan pol yuvayotgan yotoq navbatchisining ovozi eshitildi.

- O'ringni men yig'ib qo'ydim. Montyor shnurni yangiladi. Ko'rpanga ohak to'kilmasin deb shunday qildim.

Portfelga birovning ko'zi tushmasin deb yastiq jildi orasiga tiqivordim.

Qurilishdan qaytgan hamyotoqlarimning gangir-gungir tovushini eshitib darrov yastiq jildining tugmalarini sola boshladim.

Xayolimda bir gap. Portfel-ku turipti. Ichidagi omonmikin?

To'qqiz kilogrammli tarvuz

Shuncha pul kissangda tursayu imillab soqol olsang. Yo'q, shoshilish kerak. Bir joyda qimirlamay turish puli yo'q odamlarning ishiga o'xshab ketdi. Shoshib betimni yuvdimu ko'chaga otildim. Bugun menga eng ajoyib, lazzat baxsh etadigan kun. Shoshilish kerak. Shahar magazinlarida shamoldek yelib ko'zga nima ko'rinsa xarid qilaverish kerak.

To'rt qavat imorat zinasidan yurib emas, uchib tushdim. Yo'lda uchragan og'aynilarim ko'zimga juda mayda, nochor kishilar bo'lib ko'rinyapti, Hech kimni nazar-pisand qilgim kelmaydi.

Gulzor oldidan o'tib ketyapman. Bog'bon amaki skameykaga belbog'ini yozib bir bosh uzum, non qo'yib, nonushta qilyapti. Shu ham nonushta bo'ptimi? Billur qadahlariga konKjyak, qovurilgan go'sht bilan nonushta qilmagandan keyin shuni ham umr deb bo'ladimi? Bu chol umrbo'yi shu xil nonushta qilib kelgan bo'lsa kerak. Bechora!

Birdan cholning ko'zi menga tushib qoldi,

- E, bolam, kel. O'zim ham kelib qolarsan, deb turgan edim. O'tir, birga nonushta qilamiz.

Shuncha pulim, shuncha imkoniyatim bo'la turib shu arzimas ovqatni yeymanmi?

- Olsang-chi, muncha imillaysan?

Chol uzumni shingillab qo'limga tutqizib qo'ydi.

- Malol kelmasa senga bitta ish bor edi. Bolam, illo yo'q demaysan.

Uning menda qanday ishi bo'lishi mumkin ekan, deb hayron bo'lib turgan edim, o'tirgan yerida hassasi bilan skameyka orqasida tizza bo'yi bo'lib ochilib yotgan gullar orasini titkiladi. Ariq ichida kattakon tarvuz yotardi.

- Xoltoyni ko'rib kelmoqchi edim. Tarvuzning kattarog'ini olib qo'yipman. O'zim ko'tarib borolmaydiganga o'xshayman. Og'ir, to'qqiz kilo keldi. Birga borib kelaylik. Kasalxona uzoq emas, yaqin.

Nima deyishimni bilmay indamay turib qoldim. Yo'q, desam chol ranjiydi. Boya aytdimku, chol uyida tansiqroq ovqat bo'lsa menga ilinadi deb. Shundoq odamning gapini qaytarishga ko'nglim bo'lmadi. Xo'p dedim.

Chol dasturxonaga fotiha o'qib belbog'idagi ushoqlarini gulzor ichiga qoqdi.

- Qani, tarvuzni ko'tar. Ketsk!

Chol oldinda hassasini do'qillatib ketyapti. Men orqasida bugun qiladigan xarjlarimni o'ylab ketyapman.

Dunyoda uch narsa yomon deyishardi. Biri - yolg'iz qo'yni yetaklash, ikkinchisi - birovni kutish, uchinchisi - tarvuz ko'tarish.

Shu gapning chinligiga ishonдим. Bu tarvuz qurib ketgurning ushlaydigan joyi bo'lmasa. Silliqligini aytmaysizmi. O'ng qo'ltig'imga olib ko'raman, chap qo'ltig'imga olib ko'raman. Bo'lmaydi. Qornim ustiga qo'yib orqaga gavgamni tashlab ko'tarib ko'raman. Shu payt bitta xira pashsha burnimga qo'nib jonimdan bezor qilyapti. Kallamni silkitaman, qani bu xira o'lgur uchib ketsa. Birdam uchadiyu yana yo qulog'imga, yo iyagimga qo'nib oladi. Juda yomon bo'lar ekan. Jonim xalqumimda likillab turganga o'xshaydi. Sal yo'talsam g'iq etib chiqib ketadigandek.

Dod devorgim keladi.

Yonimda naqd bir ming ikki yuz so'm pul bo'lsa. Uni ichimdan sirib bog'lab olgan bo'lsam. Axir shu ham insofdanmi? Cholning ketidan o'lasi bo'lib tarvuz ko'tarib yurish mendek bir puldorga yarashadigan ishmi? Odamlarning gapiga ham ishonmay qo'ydim.

Puli borning qo'li uzun bo'ladi. Hamma unga ta'zim qiladi, deyishardi.

Bekor gap! Qo'li uzun bo'lsa men bo'lardim, ta'zim qilishadigan bo'lsa eng avval menga ikki bukilib ta'zim qilishardi. Qani u ta'zim?

Shu badbaxt tarvuzni yerga bir uraymi? Hozir uraman. Yerga tushib majaq-majaq bo'lib ketsin. Menga desa urug'lari hamma yoqqa sochilib ketsin?

Chol birdan to'xtadi.

- Bolam, sen mana shu yerda sal damingni olib tur. Nonvoyxonadan ikkitagina issiq non olib chiqay.

Choyxonaga yaqin kelib qolgan edik. So'riga o'tirdim. Chol hassasini to'qillatib bozor ichiga kirib ketdi. Xuddi atayin meni ermak qilgandek boyagi xira pashsha o'tirishim, ikki qo'lim bo'shshasi bilan uchib ketdi. Sal jonim orom olgandek bo'ldi. Jindek sabr qilish kerak. Manavi tarvuz o'lgirni kasalxonagacha oborib beray. Ana undan keyin ixtiyor o'zimda. Nima qilsam ham o'zim bilaman.

Shunday xayollar bilan bir oz o'ylanib o'tirdim. Chol keldi. Yana boshlashib yo'lga tushdik.

- Senga ham ikkitagina issiq non oldim. Hali tushlik qilib olarsan. Ma, belingga tugib qo'y.

Yo'q, desam chol qo'ymadi. Ikki qo'lim band bo'lganidan cholning o'zi non o'ralgan qog'ozni qo'ynimga tiqib qo'yimoqchi bo'ldi. Etim seskanib ketdi. Mana, u nonni joylayapti. Naq eski bahoda o'n ikki ming so'm pul boylab qo'yilgan joyga qo'li tegay, tegay deyapti.

- Nima balo, bolam, nosqovog'ing bormi? Belingga nima tugib qo'ygansan?

Nima deyishimni bilmay dovdiram.

- Hammomga tushmoqchi edim, sovun, sochiq, degandek...

- Bu ishing ma'qul. Odam degan pokiza yurishi kerak. Toza yurgan odamning tabiati ravshan bo'ladi. O'zi sog'lom bo'ladi. Yuz ko'zidan nur yog'iladi. Hammomga tushmagan odamni odam dema. Unaqa odamning basharasidan kul yog'ilayotganga o'xshaydi.

Mening Homidvoy degan sayramlik oshnam bor, Hammomga tushishni ana o'shanga chiqazgan. Qachon qarasang qo'ltig'ida sochiq. Basharasi bamisoli lampochkaga o'xshab yaltarab turadi. Qaerda sovun ko'rsa, albatta to'xtaydi, bir yuvinib o'tib ketadi.

Uyda sovunga qiron keltiradi. Ana shunaqa, bolam. Toza yurgan odamning vijdoni ham toza bo'ladi. Haromga yo'lamaydi. Shu nazarimda og'aynimning pulini olgan yaramas ham juda iflos odamga o'xshaydi. Hammom betini ko'rmagan isqirt bo'lsa kerak.

Soch soqoli o'sib ketgan, basharasini pashsha talagan odam bo'lsa kerak. Juvonmarg bo'lsin u. Go'rida to'ng'iz qo'psin!

Padaringga la'nat boyagi pashsha hali ham ergashib kelayotgan ekan, yana burnimga qo'nib olsa bo'ladimi? Chol hozir, isqirt odamning, vijdoni nopok odamning basharasini pashsha talaydi, dedi. Menga atayin shunaqa deyatgani yo'qmi? Azbaroyi xudo, shu pashsha qo'limga tushsa naq g'ajib tashlayman. Yo'q, undan ham battar qilaman.

Qayoqdan ham cholga yo'liqdim. Mana, yana to'xtadi. O'ziga o'xshagan bir cholni topib qayoqdagi gaplarni cho'zg'ilayapti.

- Indingami, bo'пти. Ammo-lekin sen yutib chiqsang kerak. Sening gullaring oldida meniki nima bo'пти.

- Yo'q, yo'q, unaqa dema. Sening duxoba gulingga hamma qoyil qoladi. Bo'пти. O'sha yerda uchrashamiz.

Ular shu ko'yi yarim soatcha guldan gaplashishdi. Oxiri og'aynisi bilan xayrlashib yana yo'lga tushdi. Qo'llarim tolib ketdi. Belim naq uzilib ketaman deydi.

- Haligi o'rtog'imni tanimaysan-a. Gulchilikda undan o'tadigani bo'lmaydi. Indinga seni ham gul vistavkasiga olib boraman.

Ko'rasan! Mening gullarimni ham ko'rasan. Bu og'aynim, albatta, birinchilikni oladi. G'alati odam, u. Burnoq yili terakka o'n xil atir gul payvand qilgan. Qizil, sariq, pushti, oq gullar terakning qilt uchida ochilib turipti. Mahallasining qay burchidan qarasang ham ko'rinadi. O'sha gul payvand qilingan terakni uch marta kinoga olishdi. Jurnallarda ham surati chiqqan.

Chol, balki juda qiziq gaplarni aytayotgandir. Ammo bu gaplarning menga sira ham qizig'i yo'q. Mana, u bu gapni tamomlab boshqasini boshladi.

- Butilkaning ichida bodring bitganini ko'rganmisan?

Istar-istamas, yo'q, dedim.

- Bilmaysan, ko'rmagansan, tushingda ham ko'rmagansan. Mana bundoq bir shishaning ichida bodring. Uning ichiga qandoq qilib bodring siqqan? Hech kim bilmaydi. Bilasanmi, og'aynim nima qilgan? Bodring guldan chiqib endi naychalayotganda shishaning

ichiga tiqib qo'yan. Bodring o'sha shisha ichida o'sib pishgan. Pishgandan keyin dumini uzib tashlagan. Hozir uyida shunaqa antiqa bodringdan to'rttasi bor. Tuzlab qo'yi. Yeyman degan odam shishani sindirib ichidan oladi. Ha, shunaqa, bolakay.

- Yetay dedikmi, ota? - dedim norozi ohangda.

- Charchading-a, bolakay, yetdik. Hu anavu darvoza kasalxona. Kiramizu oshnamni chaqirtiramiz. Shu bilan vassalom.

Kirib tarvuzni qo'lga beramanu salom alikni nasiya qilib quyon bo'laman.

Darvozadan kirdik. Kasalxonaning hovlisi kattakon bog' ekan. Daraxtlar tagidagi stulchalarda xalat kiygan bemorlar gaplashib o'tirishipti. Chol u yoqdan-bu yoqqa alanglab oldi. Keyin bir tanishini ko'rib undan og'aynisining qaysi palatada ekanini surishtira boshladi.

- Xoltay ota, hu anavu daraxt tagida direktorlari bilan gaplashib o'tiriptilar. Boravering.

Ikkovlashib o'sha tarafga ketdik. Bir ko'zoynakli o'rta yashar kishi kim bilandir qizishib gaplashyapti. Orqasini o'girib o'tirgan bemor hassasining uchi bilan yer chizyapti. Yaqiniga bordik. Bemor chol o'girildi.

O'sha. Skameykada ko'ngli ketib qolgan chol.

Beixtiyor to'xtab qoldim. Qo'limdagi tarvuz tushib ketay dedi. Uning ko'zlari men ko'rgandagidek nursiz, xira emas. Ammo juda ma'yus.

Bog'bon amaki u bilan juda quyuq ko'rishdi-da, qo'lidagi gazetaga o'ralgan narsalarni stol ustiga qo'ydi.

- Bolam, - dedi menga qarab, - tarvuzni bu yoqqa olib kel.

Avvaliga bog'bon cholning gapiga tushunmadim. Uning nima deganini anchadan keyin tushundim. Tarvuzni oborib stolga qo'ydim. Qo'ydim-u, yuragimning gupillab urishini aniq eshitdim. Bemorning ko'zlariga qaramay sekin tisarilib yerga qarab turaverdim.

- O'tir, bolam, - dedi bemor, - manavi stulga o'tir.

O'tirdim.

Oraga sovuq jimlik tushdi. Boya biz kelganda ularning gapi, bo'linib qolgan ekan. Ulab yuborish qiyin bo'ldi shekilli, direktor papiros tutatib yerdagi soyalarga ancha vaqt qarab turgandan keyin juda ham qiyinchilik bilan gapira boshladi.

- Nima qilishga hayronmiz. Maorifga xabar qildik. Militsiya bu ish bilan hozir qattiq shug'ullanyapti. Qosimovning putyovkasi kelgan edi. Soyuzga qaytib topshirib yubordik.

Bemor chol ingraganga o'xshash ovoz chiqardi.

- Oshqozonining mazasi yo'q edi. Kurortga bormasa bo'lmaydi. Meni deb putyovkadan ajralib qopti-da. Putyovkani chakki qaytarib yuboribsizlar. Kecha kampirim kelgan edi. Hovlimizning yarmini sotmoqchimiz. Yana bir ikki kun sabr qilinglar, to'laymiz. Sog'ayib chiqay.

Direktor xijolatlik bilan e'tiroz bildirdi.

- Sotmang. Hovli sotish nimasi. Boshqa biron ilojini topish kerak.

- Boshqa iloji yo'q. O'qituvchilar otpuskaga chiqishlari kerak-ku, axir, yil bo'yi ishlab, endi dam olamiz deyatog'ganlarida bundoq bo'lib o'tirsa...

Ichimdan bog'lab olgan pul to'la belbog' tanamni kuydirib tashlayotgandek bo'ldi. Agar sharmandalik bo'lmasa, shu o'tirganlarning ta'nali boqishlariga tob berishning iloji bo'lsa belbog'ni yechib pulni stol ustiga tashlardim. Afsuski, bunday qilishning sira iloji yo'q. Bu ahvolda ularning alamli suhbatlariga quloq solib o'tirish ham mumkin emas. Ularning har bir so'zlari meni bo'g'izlar, har daqiqada ming martadan o'ldirar edi.

O'rnimdan turdim.

- Ketmoqchimisiz? Shoshma, - dedi bog'bon amaki. - Birga ketamiz.

- Zarur ish bor, - dedim eshitilar eshitilmas.

- Ha, aytgancha hammomga tushmoqchi eding-a. Mayli, bora qol.

O'lgandan battar bo'lib tashqariga chiqdim.

Darmonim qurib uzoq borolmadim. Ko'chaning narigi betiga o'tib kekxa tol tanasiga suyanganimcha qancha turganimni bilmayman. Ko'chalarda chiroqlar yonipti. O'tkinchilar ham siyraklashib qolipti. Kuni bilan tuz totganim yo'q. Ammo hech narsa yegim kelmaydi. Tomog'im qurib chanqab ketyapman. Ko'zimni ochsaman bemor cholning xira ko'zlari ko'rinadi, yumsam uning titroq tovushi eshitiladi.

Bu kekxa, bemor kishining shundog'am oz qolgan umrini men qisqartirayotganimni o'zim bilib turibman.

Hayotda insonlarning ko'p yaxshiliklarini ko'rdim. Mana shu mutlaqo begona bog'bon cholning o'zi menga qancha yaxshiliklar qildi. U menga ishonadi. Xuddi o'z bolasidek haddi sig'ib ish buyuradi. Uyida tansiqroq ovqat pishirilsa nasibang, deb olisdan hassasini do'qillatib olib keladi.

U mendan nima yaxshilik ko'rdi. Shu yaxshiliklarning evaziga men nima qildim. Hatto tom shuvoq qildirganda ham xasharga bormadim. Men o'zim kimman? Nimaman? Odammanmi? Undan ortiq o'qituvchining yozgi dam olishidan, hatto oshqozoni yil bo'yi azob bergan bir kekxa o'qituvchining davolanishidan ham mahrum qildim. Menga nima bo'ldi? Bunday pastkashlik menga qaydan ilashdi? Turgan bitganim harom! Odamlar nega mendan jirkanishmaydi?

Osmon to'la yulduzlar

Balog'at yoshidan hatlab o'tganimga ham ancha bo'ldi. Haligacha biron qizni yaxshi ko'rib qolganim yo'q. Sevgi odam yuragiga tiniqlik, nur, ko'ngilga ezgu-orzular soladi, deyishadi.

Hamyotoq o'rtoqlarim sevgi-muhabbatdan gaplashayotganda ko'zlari, basharalari juda g'alati bo'ladi. Xuddi shirin bir narsa yeyayotgandek ko'zlari yumilib ketadi. Kuniga soqol qirtishlashadi. Shimlariga suv purkab to'shak tagiga bostirib yotishadi.

Yaxshi ko'rgan qizlarining suratini tumbochka ustiga qo'yib, soatlab tikilib o'tirishadi. Nega men shunday qilolmayman? Ko'ngilni yoritadigan qanday niyatlarim bor?

Mana shu savoldan ko'zlarim chaqna ketdi.

Shu paytgacha bu to'g'rida sira o'ylab ko'rmagan ekanman. Juda arzimmas narsalar haqida kallani shishirib yurgan ekanman.

Pul, yaxshi kiyinish, yaxshi yeyish. Mana shular mening orzum, mening niyatim, qolaverea hayotdan ilinjim shular edi. Yo'q. Ana shuning uchun ham yuragimga sevgi kelmagan. Sevgisiz yashashning dahshati butun tanimga zirqiroq soldi.

Uch kun bo'ldi basharamni soqol bosib ketganiga. Shu uch kundan beri isqirt bo'lib yuribman. Birovlarning mehnat qilib topgan pullarini belimga tugib pastkash niyatlarimdan mast bo'lib, shabko'r odamdek oyoq ostidan narini ko'rolmay yuryapman. Xo'sh, bu

pullarni ham sovurib bo'larman. Tilla soat taqib qaysi bir qimmatli umrimni hisoblayman. Eng yaxshi kostyumni kiyib olib qaysi bazmga, qaysi ziyofatga boraman? Kimim bor? Kim meni to'yga aytadi? Xo'sh pul ham tugaydi? Unda nima bo'ladi? Demak, demak qolgan umrim birovlarining cho'ntagiga tikilib o'tarkan-da! Mehnatchi? Qachon mehnat qilaman? Mana shunday dahshatli xayollar bilan shahar kezib yuribman. Ko'chalar jimjit. Tramvaylarda ham odam siyrak. Deraza chetiga bosh qo'yib konduktorlar mudrab ketyapti. Mana, ikki pritsepini sudragan tramvay ostanovkaga kelib to'xtadi. Hech kim chiqmadi ham, tushmadi ham. Hatto kekxa konduktor bosh ko'tarib qaramadi. Bilaman. Bu odamning ham bola-chaqalari bor. Keksaligiga qaramay ishlayapti. Kuni bilan saraton cho'qqa aylantirgan tiqilinch tramvayda shaharning u boshidan bu boshiga qatnaydi. Shu mehnati bilan ro'zg'or tebratadi. Ishlab topgan har bir tiyinig qanchalab peshana teri tomadi.

Tramvay qayilishdan g'iqillab o'tib ketdi. Yana azamat shaharning sokin tuni hokim bo'lib qoldi.

Oldimdan tez yordam mashinasi o'qdek uchib o'tib ketdi. Vrachning oq xalati ko'zimga arang chalinib qoldi.

Qaerdadir, kimdir betob. Mana shu oq xalat kiygan kishi uni o'limning omonsiz changalidan qutqaradi. Bu odam o'lim bilan olishgani, uni yenggan ketyapti.

Xuddi kunduzdek yorug' sokin ko'chani o'rtasida, asfaltKjtda bitta-bitta bosib militsioner yuripti, Bu odam tong otguncha uxlamaydi. Odamlar tinch uxlasin, deb uyqusidan kechib tunni tongga ulaydi.

Qaydadir parovoz qichqirdi. Qaydan kelayotganikin? Olis cho'llar, dovonlar, tog' tonnellaridan o'tib kelayotgan bu karvon shahri azimga yetdim, deb qichqiryapti. Uning qichqirishi go'yo, ey azamat shahar senga qo'riq yerlarning nonini olib keldim, poyonsiz o'rmonlardan yog'och, yer qa'ridan ko'mir, ma'dan olib keldim, deyayotganga o'xshardi. Mashinistning o't yallig'ida yaltiragan qoramoy basharasi ko'zimga ko'ringandek bo'ldi.

Shahar uyquda. Qorong'i kechada proyektorini nurli o'qdek otib tepamda ko'tarma kran g'iqillayapti. Elektr payvandi chaqin chaqyapti. Uy qurishyapti.

Yonboshiga "non-xleb" deb yozilgan mashina o'tdi. Sokin kechada issiq non hidi ancha vaqtgacha turib qoldi.

Ketyapman. Shoshilmay o'z taqdirim, qilmishlarim haqida o'ylab ketyapman. Vaqt alla-palla bo'lib qolgan. Tramvay, avtobuslar ham yotgan. Katta shahar ko'chasida militsioneru men uyg'oq. To'rt qavatli uyning hamma uylarida chiroq o'chganu ikkinchi qavatidagi bitta uyning derazasi yorug', undan pijama kiygan, sochlari to'zg'ib ketgan bir kishi ko'rinadi. U tinimsiz sigareta chekyapti. U ko'z oynagini qo'lga olib, qorong'i bo'shliqlarga tikilganicha qimirlamaydi. Kim bo'ldi bu? Shoirmi? Injenermi? U kim bo'lmasin uxlamayapti. Bu odam tong otguncha yurtga bir nima sovg'a qiladi. Ye she'r, yo yangi qo'shiq, yo tarixning varaqlanmagan bir sahifasi paydo bo'lyapti.

O'rda ko'prigiga kelib qolibman. Anhorga tikilganimcha o'ysiz, hissiz turib qoldim. Suv jim-jim qilib oqyapti. Qirg'oqdagi chiroqlarning aksi suvning eng tagigacha sanchilgandek. Mayda toshlar ustiga qadalgandek.

U yoq-bu yoqqa qaradim. Ko'prikning u tomonidagi sabzavot do'koniga pomidor tushirishyapti. Sekin belimdan necha kundan beri meni odamgarchilikdan chiqazgan pul tugilgan belbog'ni yechdim. Uni hozir suvga uloqtiraman. Uloqtiramanu, asli holimga, jinoyatga qo'l urmagan pok odamga aylanaman.

Belboqni changallab turipman. Mana o'ng qo'limni ko'tarib qulochkashlab turib, anhorning o'rtasiga uloqtiraman.

Oyoq tovushini eshitib qo'limni shoshib pastga tushirdim. Ko'prik tarafga qarab yoshgina bir yigit kelardi. U menga yaqin kelib to'xtadi.

- Og'ayni, bitta chektirsang-chi?

Shunday karaxt edimki, bu yigitning menda nima ishi borligiga, nima qilib oldimda to'xtaganiga tushunmasdim. Boshdan oyoq qaradim.

Oyog'ida etik, egnida jo'ngina qora xalat.

- Bitta chektirsang-chi, karmisan?

Shundagina hushim o'zimga keldi. Chekmasligimni aytdim. U afsuslangan bir qiyofada qoshlarini kerdi.

- Gugurt bor-u, papiros yo'q. Ikki soat bo'ldi tamom bo'lganiga. Quloqlarim shishib, kalam g'uvillab ketyapti.

Shu payt papirosini yiltirib militsioner yetib keldi.

- Ha, montyor bola. Nima qilib yuribsan?

- Xumor bo'lib ketdim, o'rtoq nachalKjnik. Militsioner yonidan bir pachka papiros olib unga uzatdi.

- Chek, chekaver, og'ayni. Ko'chani shundoq yoritib qo'yipsanu, sendan papiros ayaymanmi.

Montyor yigit shoshib papiros oldi, shoshib o't oldirdiyu, maza qilib cheka boshladi. Militsioner menga qaradi.

- Sen bola nima qilib shahar kezib yuribsan? U yoqqa borasan angrayasan, bu yoqqa kelasan angrayasan. Xo'sh, nima qilib yuribsan?

Hech kimdan bunaqa so'roq kutmaganimdan esankirab qoldim.

- O'zim, shundoq.

- Imtihondan yiqildim. Uyqum qochib ketdi.

- E, - dedi u achinib. - Bu ishing chakki bo'пти. Men ham bir marta yiqilganman.

Hayron bo'ldim. U qanaqa imtihondan yiqilishi mumkin. O'zi militsioner bo'lsa.

- Hayron bo'lma. Militsionerlar ham o'qiydi. Men sirtqining uchinchisidaman. Yiqilganimning sababi shu bo'lganki...

U xotiralarga berilib ketgandek suvning jimjimasiga tikilib ancha vaqtgacha turib qoldi. Keyin boshini ko'tarib kulimsiradi.

- Mundoq bo'lgan. U paytda men qidiruv bo'limida inspektor edim. Ertaga imtihon bo'ladi deb turgan paytimda boshlig'imiz menga bir ish topshirib qoldi. Urush vaqtida Toshkentga kelib qolgan leningradlik bir bolani dadasi qidirtiribdi. Ikki yildan beri qidirib topisholmas ekan. Shuni o'zing topasan, deb qoldi. Yo'q deb bo'ladimi? Bizda harbiy intizom. Bajarish shart.

- Topdingizmi? - dedim shoshib.

- Hovliqma, bola, hozir aytib beraman. Shu desang, imtihonlar ham qolib ketdi. Butun Uzbekistonni qidirdim. Xat yozmagan shaharim qolmadi. Oxiri topdim.

- Qaerdan topdingiz?

- Muni qarangi, o'sha odam bilan har kuni ming marta gaplashib, bir xonada ishlarkanmiz. Hatto o'sha odamning o'zi menga qo'shilib qidirishib yuripti. Bo'limimizdagi laborant yigit o'sha ekan. Rosa qiziq bo'lgan-da, o'shanda. Bola vaqtida nomi ham, familiyasi ham boshqa ekan. Boqib olgan odam o'z familiyasiga o'tkazib qo'ygan ekan. Ana o'shanda dars tayyorlash qolib ketib burnimning to'g'risidagi odamni o'n beshta shahardan qidirganman. Oxiri boshqarmadan a'lo, institutdan ikki baho olganman.

Montyor bola yana ikkita papiros olib ketdi. Militsioner ham ketarkan, dedi:

- Endi bor. Yotib damingni ol. Hali zamon tong otib qoladi. Bo'ladi. Studentlikda har gap bo'ladi. Xo'p bo'lmasam, postni bir aylanib chiqay.

U ketdi. Pul to'la belbog'ni changallaganimcha yolg'iz qoldim. Sal o'tmay militsioner yana orqasiga qaytdi. Bu gal uning qovog'i soliq. Menga juda yomon qarardi.

- Qani marsh, jo'na. Sendaqa irodasi bo'sh studentlarning ko'pini ko'rganman. Bilaman. O'zingni suvga tashlamoqchisan. Boshimni baloga qo'yimoqchisan.

Bir gap demay nari ketdim. Orqamdan u javraganicha qoldi.

- Ha, yoshlar, yoshlar. Jonining qadriga yetmaydi. Bitta bolaga ota bo'l, jon shirinligini ana o'shanda bilasan.

Yoz kechalari juda vaqtli tong otardi. Ufq cheti qizil alvondek bo'zarib kelyapti. Avtobuslar serharakat bo'lib qoldi.

Bu musaffo tong hammaning diliga yorug'lik, olijanob rejalar solyapti. Odamlar orom uyqusidan keyin yangi umr, yangi istaklar bilan yostiqtan bosh ko'tarishyapti.

Faqat mening yuragim bo'sh. Bu tiniq, tarovatli tong mening yuragimga zarracha ham nur tashlamayapti. Mening yuragimda hali tong otgani yo'q. Osmon to'la yulduzlar birin-ketin o'chib oftobga yo'l bo'shatishyapti.

Yotoqqa keldimu ko'rpaga burkanib yotib oldim. Hali ham ko'zlarimga uyqu ilinmaydi.

Uyg'ongan shaharning shov-shuvidan, odamlarning oyoq tovushlaridan, oftob tig'idan qochib burkanib yotibman.

Ko'zimga bemor chol, mudragan konduktor, ikkinchi qavatda tong otguncha chirog'i o'chmagan ijodkor, o'lim bilan olishgani ketayotgan vrach, uxlamay shaharga nur taratayotgan montyor yigit va nihoyat odamlar tinch uxlasin deb shaharning u boshidan bu boshiga piyoda qatnab turgan militsioner ko'rnaverdi. O'zimni ularga solishtirib ko'ryapman.

Butun alamlarimni, xo'rliklarimni bag'rimdan chiqarib yuborgudek bo'lib yig'lab yubordim.

Qalbidagi dog'larni bu ko'z yoshlari yuvolsa edi, butun vujudimni ko'z yoshiga aylantirib yig'lardim.

Bu ojizlik, chorasizlik ko'z yoshlari ekanini bilardim...

Xayr, sershovqin shahar!

Bugun badbaxtlik umrimning so'ngi bo'lishini istardim.

Shu niyat bilan o'rnimdan turdim. Necha kundan beri bu oyoqlar jinoyat yukini ko'tarib yuraverib holdan toydi. Endi bu oyoqlarning yukini yengil qilmoqchiman.

Sartaroshxonaga kirdim. Usta basharamga sovun surtib qirt-qirt soqol olyapti. U basharamni odam qiyofasiga kiritmoqchi. Oh, u birgina basharamni tozalash bilan qalbidagi dog'ni tozalayolmasligini bilsaydi. Sekin o'z betimga qarayman. Naqadar hayosiz ko'zlar bu. Ozib ketibman. Faqat shu beibo ko'zlarimgina mushuk ko'zidek yiltirab turipti.

Bog'bon amakini qidirib gulzor oldiga keldim. Yo'q. Eng zarur paytda, mening taqdirim hal bo'layotgan bir paytda shu yerda bo'lsa-chi. Uni ko'p kutdim. Kelmadi. Tezroq kela qolsaydi. Niyatimdan qaytmasdan, yana harom, nopok niyatlar kalamga uya qurmasdan kela qolsaydi.

Axir, men o'zimni bilaman. Miyamda tug'ilgan va qat'iy deb ishongan fikrlarimdan ham juda ko'p marta qaytgan odamman. Men ana shunaqa subutsiz odam edim.

Xayriyat, bog'bon amaki kelib qoldi.

- Baxayr, bolam, nima qilib o'tiripsan?

- Dam olib o'tiripman.

Shunday dedimu o'rnimdan tura solib nari ketdim. Shu ketganimcha oldiga qaytmadim. Bir mahal qaragam, ko'chaning narigi betida undan qochgandek yugurib ketyapman.

Hozirgina aytayotgan edim-a, fikridan, niyatidan tez qaytadigan odamman deb. Men cholning oldiga nima uchun kelayotgan edim? Unga butun qilmishlarimni aytmoqchi, uning bemor do'sti boshiga tushgan kulfatning sababchisi menman, demoqchi edim.

Mana, aytolmay qochib ketdim.

Endi birgina yo'l qoldi. U ham bo'lsa kasalxonaga borib bemorning oldiga pullarini qo'yib, meni nima qilsangiz qiling, men o'g'riman, deb aytish. Shunday qila olamanmi?

O'yladim. O'ylagan sarim dahshatli olov ichiga kirib ketayotganga o'xshayverdim.

Nima qilay bo'lmasa? Nima qilsam pul egasiga tegadi? Bu xilda belimga boylab to o'lgunimcha yurolmayman-ku?! Nimadir qilish kerak.

Ochiq oydin iqrar bo'lishga-ku qo'rqyapman. Meni jazolaydilar, ta'na qiladilar, peshonamga o'g'ri, degan mal'un tamg'ani bosadilar, deb qo'rqyapman. Agar shu qo'rquv bo'lmaganda allaqachon pulni egasiga topshirib tinchib olgan bo'lardim.

Pochtaga kirdim.

Birov xat jo'natyapti, birov olis yurtdagi do'stiga sovg'a yuboryapti. Qaerda, mening kimim bor? Kimga xat yozamanu, kimga sovg'a jo'nataman?

Birdan miyamga yalt etib bir o'y keldi.

Portfelni pochtaga jo'natsammikin? Qimga yuboraman? Aytgancha vedomostda maktab adresi bor. Shunday qilaman.

Kichkinagina bir quti olib ro'molga tugib olgan portfelni, ichidagi jamiki qog'ozlari bilan, pullari bilan joyladim.

Shu payt ko'nglimni yorituvchi g'alati hislar birin-ketin quyilib kela boshladi.

Darrov bir varaq qog'oz oldimu qalamni tishlab o'ylab ketdim.

"...Sizlardan uzr so'ramoqchi emasman. Faqat yuragimni bo'shatish uchun nimalar deyishim kerak. Ha, men o'g'rilik qildim.

Mehnat bilan topgan pullaringni olib qo'ydim. Bu faqat pastkashlarning pastkashi qilishi mumkin bo'lgan ish, xolos. Pulingizni yo'qotgan kassir chol kasalxonada og'ir ahvolda yotibdi. Agar men shu ishni qilmaganimda, balki uning dardi bunchalik og'irlashmagan bo'lardi. Hammasini bilib, ko'rib, eshitib turibman. Vedomostning oltinchi qatoridagi Karimov familiyalı o'qituvchi sanatoriyaga borolmadi. Chunki putyovka puli menda. Endi u balki bu yil oshqozonini davolayolmas. Men uning ham dardini og'irlashtirdim.

Pullaringizning bir tiyinigam ham tegmadim. Butunligicha qaytaryapman. Buning uchun rahmat eshitishni istamayman. Bu xil ishga rahmat aytilmaydi.

Bu qilmishlarim uchun meni sudga berish, jazoga torttirish kerak edi. Men ana shundan qo'rqib bir necha kundan beri

pullaringizni ko'tarib yuribman. Endi o'z jazomni o'zim bermoqchiman. Axir dunyoda vijdon sudi ham bor-ku? Eng dahshatli, eng

This is not registered version of TotalDocConverter

adonimni qaytib berishimning fikrini to'rtinchi oxirigacha afv etmaydi. Jazolayveradi, jazolayveradi...".

Shu xat mening kimligimni, qilmishimning naqadar mudhishligini o'zimga aniq ko'rsatib qo'ydi.

Quti ustiga maktab adresini yozdimu pochtagiga topshirib yana tashqariga chiqdim.

Qushdek yengil edim. Ko'ksimni bosib yotgan yuk endi yo'q. Bir o'zim, bo'sh xayollarim, qurumdan tozalangan, ammo hali o't yoqilmagan mo'ridek huvullab qolgan qalbim bilan yolg'iz qoldim. Endi bu yurakni yaxshi hislar bilan to'ldirish kerak.

Xuddi umrim daftarinig ikki baho qo'yilgan ilk sahifasini yirtib tashlagandekman. Endi bu daftarni nima bilan to'ldiraman?

Bu endi mening hayotdan ilinjim, birinchi qadamni qay xilda bosishimga bog'liq.

Texnikum direktoriga, meni o'qishdan chiqazishlarini so'rab ariza qoldirdim-da, arzimas buyumlarimni ko'tarib yo'lga chiqdim.

Sayfi bilan ham, Umar bilan ham xayrlashmadim. Nopok qo'llarim bilan ularning qadoqli qo'llarini bulg'atgim kelmadi.

Ketyapman. Shahar chetiga yetishim bilan qirg'oqqa sapchib oqayotgan anhorda sho'ng'ib-sho'ng'ib cho'milgim keldi.

Suv shu qadar tanga yoqardiki, aslo chiqqim kelmasdi. Anhor chetidagi tizza bo'yi keladigan joyda tanimga sovun surib rosa

ishqayapman. Kirlarim suv betida birdam aylanib olislarga oqib ketyapti.

Shu payt bog'bon amakining gaplari esimga tushib ketdi.

- Toza yurgan odamning vijdoni ham toza bo'ladi.

Shu gapning rostligiga endi ishonyapman. Qancha yuvinsam shuncha fikrim tiniqlashayotganga o'xshaydi.

Katta sement ko'prik ustidan tinimsiz mashinalar o'tib turipti. Odamlarning keti uzilmaydi. Men ham ana shu mehnatkash odamlar

orasida bo'lgim keladi. Qachonlardir men ham shulardek mehnat qilaman. Peshopa terim to'kilgan tiyinni xarjlab kun kechiraman.

Mana shu kun mening eng baxtli kunim bo'lishi kerak. Men ana shu kunni tezroq ko'rishga shoshilyapman.

Shoshib kiyindimu katta yo'lga qarab so'qmoqdan chiqdim.

Bu yo'lning so'nggi ko'rinmaydi. Tekis asfalt go'yo ufqqa nayzadek sanchilgan. Mana shu so'ngsiz yo'lning qaysi bir bekatida mening baxtim kutib turganikin? Shu yo'lning qaysi bir bekatiga mening peshona terim to'kilarkin? O'sha bekatga tezroq yetishga intilyapman. Oyoq olishim ildamlashyapti.

Orqamga qaradim.

Sershovqin shaharning ko'kka intilgan imoratlari, zavodlarning baland korpuslari hali ham ko'rinib turipti.

Men shu shaharda bir yil yashadim. Bu shahar o'z farzandidek boshimni silab bag'ridan menga joy berdi. Non berdi, tuz berdi.

Men...

Men uning nurli ko'chalarida g'ijimlab tashlangan chiqindi qog'oz parchasidek u yoqdan-bu yoqqa uchib yurdim. Supurgiga chap berib sudralib yurdim. Odamlariga xiyonat qildim. Ko'zga tushgan qum donasidek odamlarga azob berdim.

Kechir, onadek aziz shahar! Senga farzandlik qilolmadim. Biron imoratingga g'isht qo'yolmadim. Qo'yningda burgadek o'rmladim, xolos.

Qachondir yana bag'ringa qaytaman. Odam bo'lib qaytaman. Farzandlik qarzimni uzgani kelaman. Shunda ostonangga qadam qo'yishim bilan bosh egib ta'zim qilamanu, assalomu alaykum, ona deyman.

Hozircha huzuringga kelolmayman. O'zimni o'zim sud qildim. O'zimga o'zim dahshatli hukm chiqardim.

Bu hukm sud majlisida chiqarilib qog'ozga yozilgan hukmdan o'n chandon og'ir. Bu hukm mening jigar bag'ringa, qalbimga, butun vujudimga bitilgan.

Bu qat'iy, uni hech qanday farmon bilan afv qilib bo'lmaydi.

O'girilib yana so'ngsiz yo'lga tikildim.

Ishonch bilan, qandaydir yorqin umidlar bilan yo'lga tushdim.

Ketyapman.

Bu mening kattakon yo'ldagi birinchi qadamim bo'lishiga ishonaman.

O'ylayapman. Bu o'ylar ertangi porloq kunimning aniq rejalari bo'lishiga ishonaman.

Qaydasan, mening nurga burkangan qo'nalg'am?

Xuddi so'rog'imga javob bergandek simyog'ochdagi qaldirg'ochlar yuraver, yuraver, deb chug'urlashadi.